

Mualliflar:

Z. Ya. Babakalanov, S. S. Rustamov, S. M. Selimanova,
X. X. Baxramov, D. D. Babayev, Sh. I. Ismoilov

T a q r i z c h i l a r:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik instituti
«Ma’muriy va moliya huquqi» kafedrası mudiri yuridik
fanlar doktori, professor; **X.S. Islamxadjayev**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi JXT va JQKDM loyihasi
rahbarining o‘rinbosari, yu.f.n., dotsent **N.T. Ismoilov**

MA’MURIY HUQUQ

MAXSUS QISM

Ma’ruzalar kursi

Z. Ya. Babakalanov

M-38 Ma’muriy huquq: Ma’ruzalar kursi / Z. Ya. Babakalanov, S. S. Rustamov va boshq. –T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. – 188 bet.

«Ma’muriy huquq» fanining maxsus qismini o‘rganish bo‘yicha tayyorlangan mazkur ma’ruzalar kursida mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy-madaniy va ma’muriy-siyosiy sohalarini ma’muriy-huquqiy tartibga solish masalalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organlari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish borasida qabul qilingan qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni, davlat boshqaruv organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari hamda mazkur sohalaridagi boshqaruv organlari bilan ichki ishlar idoralarining o‘zaro munosabatlari keng yoritib berilgan.

BBK 67.99(5U) 1 ya 73

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari ma'muriy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ma'muriy islohotlar asosida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarini oqilona qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq belgilab qo'yish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muayyan natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 20-iyundagi farmoyishi asosida Ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga oid takliflarni tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilishi, shuningdek davlatimiz rahbarining 2003-yil 9-dekabrda farmoniga muvofiq, Respublika davlat boshqaruvi organlari ro'yxatining tasdiqlanishi boshqaruvning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish hamda ushbu sohadagi modernizatsiyalash jarayonlari izchilligini ta'minlashda muhim asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida»gi 2005-yil 10-mart qarori ma'muriy qonunchilik sohasida ham islohotlarning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Ushbu Dasturning bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasida ma'muriy javobgarlik, ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniyligni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan huquq -huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish huquqiy

aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda»¹.

Ma'lumki, ma'muriy huquq tizimini liberallashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiyalash hamda ma'muriy qonunchilikni yanada takomillashtirishdan iborat mazkur jarayonlar jarayonlar nazariy g'oyalarni mujassam etadigan konseptual yondashuvni talab etadi.

Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining yirik, salmoqli, rivoj topgan va murakkab tarmoqlaridan biridir. Uning bu maqomi ma'muriy huquq tartibga soladigan kuchli ijtimoiy munosabatlar mazmuni va ahamiyati bilan belgilanadi.

Ma'muriy huquq fanining maxsus qismida – jamiyatning alohida sohalarida amalga boshqaruvining davlat boshqaruvining xususiyatlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy institutlar, bo'limlar) ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *iqtisodiyot sohalarini boshqarish* (sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, yo'l xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohaları);

– *ijtimoiy-madaniy sohalarini boshqarish* (ta'lim, fan, madaniyat va sport, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohaları);

– *ma'muriy-siyosiy sohalarini boshqarish* (ichki ishlar, mudofaa, milliy xavfsizlik, favqulodda vaziyatlar, bojxona, adliya va tashqi ishlar sohaları).

Mazkur ma'ruzalar kursi davlat boshqaruvida amal qilayotgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar tizimi shuningdek, mamlakatimizda iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish masalalari haqida umumiy ma'lumot beradi. Ma'ruzalar kursi yuqorida ta'kidlangan davlat boshqaruvi va qonunchilik sohasidagi yangiliklarni, qolaversa, ichki ishlar idoralari faoliyatidagi islohotlarni e'tiborga olgan holda tayyorlangan. Shuningdek, ma'ruzalar kursi huquqni muhofaza qilish organlari, xususan, ichki ishlar idoralari xodimlarining ma'muriy-huquqiy sohadagi tasavvurlarini kengaytirishga, ijro etuvchi hokimiyat tizimida davlat organlari faoliyatining huquqiy tartibga solinishiga oid bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза (2010 йил 12 ноябрь). – Т., 2010. – Б.15.

Ushbu ma'ruzalar kursida turli ijtimoiy sohalarda boshqarishni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor berilgan, jumladan, ichki ishlar, mudofaa, tibbiyot, bojxona sohalari batafsil tahlil etilgan.

Ma'ruzalar kursida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, ichki ishlar va boshqa ijro etuvchi organlarning amaliy tajribasidan foydalanilgan holda ularning mazmuni keng yoritilgan. Havola etilayotgan mazkur ma'ruzalar kursi IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlarining huquqiy madaniyati hamda bilimlarini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

MAXSUS QISM

7-BO'LIM. IQTISODIYOT SOHASINI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

23-mavzu. IQTISODIYOTNI BOSHQARISH

1. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot sohasini boshqarishdagi vakolatlari va iqtisodiy sohaga oid obyektlar

Iqtisodiyotga bozor mexanizmi va uslublarini joriy qilishni davom ettirish, jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish talablariga muvofiq Iqtisodiyot va statistika organlarining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi 2002-yil 24-dekabr farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatildi va uning negizida birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi tashkil etildi.

Ushbu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 37-sonli qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan Iqtisodiyot vazirligining Nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

– iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopolialashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

– boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi;

– fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

– fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalaniishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

– sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

– O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo'riqlanishini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

– davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariya va falokatlarining, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

– O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi;

– tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi, shuningdek qonunda belgilangan boshqada vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 12-martdagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi tasdiqlandi. Unga ko'ra:

– Bosh vazir — qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazirning birinchi o'rinbosari — moliya vaziri — makroiqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri — tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi — kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisi — mashinasozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksi rahbari;

– Bosh vazir o'rinbosari — O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga quyidagi vazirliklarning vazirlari va davlat qo'mitalarining raislari tasdiqlandi. *Vazirliklarga :*

- 1) Iqtisodiyot vaziri;
- 2) Qishloq va suv xo'jaligi vaziri;
- 3) Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri;
- 4) Sog'liqni saqlash vaziri;
- 5) Madaniyat va sport ishlari vaziri;
- 6) Mudofaa vaziri;
- 7) Ichki ishlar vaziri;
- 8) Tashqi ishlar vaziri;
- 9) Adliya vaziri;
- 10) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri;
- 11) Xalq ta'limi vaziri;
- 12) Favqulodda vaziyatlar vaziri.

Davlat qo'mitalariga:

- 1) Davlat soliq qo'mitasi raisi;
- 2) Davlat bojxona qo'mitasi raisi;
- 3) Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisi;
- 4) Davlat statistika qo'mitasi raisi;
- 5) Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi;
- 6) Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi raisi vazifasini bajaruvchi;
- 7) Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi raisi vazifasini bajaruvchi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasi birinchi qismiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga lavozimi bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy sohadagi obyektlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi;
- O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi;
- O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi;

– O'zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

– O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

– O'zbekiston Respublikasi Elektr energiyada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi;

– O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

Iqtisodiyot vazirligi faoliyatini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga Vazir rahbarlik qiladi. Iqtisodiyot vazirligiga Vazir nomzodini O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazir tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida esa, Iqtisodiyot vazirligiga Vazir rahbarlik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi (Parlamenti) tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot bosh boshqarmalari rahbarlari tegishli ravishda viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot bosh boshqarmalari tizimi, tashkilotlari va muassasalari boshqaruv apparati xodimlari soni, shuningdek uning markaziy apparati tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda shahar va tumanlar iqtisodiyot boshqarma va bo'limlarining tizimini, hay'atini, tashkilotlari va muassasalarini, boshqaruv apparati xodimlari sonini, shuningdek uning markaziy apparati tuzilmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga (Hukumatiga), viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot bosh boshqarmalari, shuningdek respublika shaharlari va tumanlaridagi iqtisodiyot bo'limlari tegishli ravishda viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga qarashli bo'ladi.

Viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot bosh boshqarmalari, shuningdek respublika shaharlari va tumanlaridagi iqtisodiyot bo'limlarining faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va muvofiqlashtirishni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirining bir nafar birinchi o'rinbosari va Bosh boshqarmalar boshliqlari hisoblanadigan uch nafar o'rinbosari bo'ladi. Vazirning birinchi o'rinbosari maqomiga ko'ra Vazirga, Vazir o'rinbosarlari Bosh boshqarmalar boshliqlari Vazirning birinchi o'rinbosarlariga tenglashtiriladi.

Iqtisodiyot vaziri:

– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Vazirlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi va oshirilishi amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi;

– Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining Vazirlik faoliyatining ayrim yo'nalishlariga rahbarligi yuzasidan shaxsiy javobgarligi darajasini belgilaydi;

– Iqtisodiyot vazirligi markaziy apparati va organlari hududiy organlari tuzilmasiga xodimlarning belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

– Vazirlik markaziy apparati bo'linmalari va unga qarashli tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

– Iqtisodiyot vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

– Iqtisodiyot vazirligi markaziy apparati shtatlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

– Qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Iqtisodiyot vazirligida 9 kishidan iborat Hay'at tuziladi, uning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at o'zining muntazam o'tkazib turiladigan majlislarida mamlakatni, tarmoqlarni va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim muammolarini, prognozlash va uni tashkil etishni yaxshilash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarini ko'rib chiqadi.

Hay'at qarorlari Iqtisodiyot vaziri buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi.

Vazir o'rinbosarlari Bosh boshqarma boshliqlari rahbarlik qiladigan Bosh boshqarmalar, bo'limlar, guruhlar Iqtisodiyot vazirligining asosiy tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi.

Bo'lim boshliqlari maqomiga ko'ra boshqarma boshlig'iga, guruh rahbarlari esa boshqarma boshlig'ining o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Iqtisodiyot vazirligining bo'lim, guruh boshliqlari Vazir qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Iqtisodiyot vazirligi o'z huzuridagi:

– Samarali iqtisodiy siyosat markazi;

– Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi;

– Tovar bozorlari konyunkturasi o'rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish respublika markazi;

– Vazirlik ma'muriy binosidan foydalanish boshqarmasi;

– »O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi« jurnalni tahririyati faoliyatiga rahbarlik qiladi.

2. Iqtisodiyot vazirligining jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdagi asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi asosiy vazifalari quyidagilar:

– jamiyatni rivojlantirish hamda demokratik qayta o'zgartirishlarning maqsad va ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va isloh qilishning, iqtisodiyotni boshqarishda bozor uslublari va mexanizmlarini joriy etishning chuqur o'ylangan strategiyasini ishlab chiqishni tashkil qilish;

– asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, respublika, mintaqalar hamda tarmoqlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini kompleks tizimli tahlil qilib borish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, iqtisodiyotdagi mavjud nomutanosibliklari aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslab berish;

– iqtisodiyotni rivojlantirishning ko'p variantli ssenariylarini, mintaqalarda iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari bo'yicha mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning qisqa muddatli va o'rta muddatli prognozlari hamda dasturlarini ishlab chiqish;

– eng muhim qiymat, moddiy va mehnat balanslarini ishlab chiqishni tashkil etish;

– asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni pul-kredit agregatlari, davlat budjet parametrlari, tashqi savdo, to'lov va tarmoqlararo balanslar bilan o'zaro bog'lanishini ta'minlaydigan ta'sirchan mexanizmni shakllantirish;

– demografik prognozlar, aholining aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ichki iste‘mol bozorini to‘ldirish, xalq farovonligini o‘stirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

– iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning o‘rta muddatli prognozlari, tarmoqlarni rivojlantirish, zamonaviylashtirish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, resurslarni tejaydigan ilg‘or texnologiyalarni joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

– strukturaviy siyosat maqsadlariga erishishni, mintaqalarni kompleks rivojlantirishni ta‘minlaydigan qisqa muddatli va o‘rta muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

– eksport salohiyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish, tashqi savdo va to‘lov balanslarini maqbullashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, tovarlar (ishlar, xizmatlar)eksporti prognozini tayyorlash, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv strategiyasini ishlab chiqishda qatnashish;

– O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid prognozlarni hamda dasturlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy iqtisodiyot kompleksiga kiruvchi vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish yo‘li bilan amalga oshiradi.

3. Moliya va kredit boshqaruvi

Davlat moliyasi – Davlat organlarining pul mablag‘ini yig‘ish va uni sarflash, taqsimlashga qaratilgan faoliyati — davlatning moliyaviy faoliyati bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati birgalikda boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga soladi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qiladi va uning ijrosini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi, yagona narx siyosati o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini, shuningdek, O‘zbekiston

Respublikasini ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbol ko‘rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta‘minlashni, valuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta‘minlaydi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining nizomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1992-yil 23-noyabr qarori bilan tasdiqlangan. Vazirlikning tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tuzilishi to‘g‘risida»gi 1992-yil 11-fevral qarori bilan tasdiqlangan.

Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta‘minlaydi.

Shu maqsadlarda Moliya vazirligi:

– O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini kelishilgan yagona moliyaviy, soliq, valuta va narx-navo siyosatini shakllantirish ishlarini olib borishga, oltin zahirasini ko‘paytirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashga, respublika iqtisodiyotini sog‘lomlashtirishga, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida narx-navoni tartibga solishning iqtisodiy usullari rolini kuchaytirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltiradi;

– xalq xo‘jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag‘ bilan ta‘minlaydi, respublika mintaqalarining yaxlit ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyoti uchun moliyaviy negiz yaratadi;

– o‘z vakolati doirasida respublika moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini nazorat qilishni tashkil etadi va amalga oshiradi, ular faoliyati usullari va shakllarini takomillashtiradi, mazkur organlar xodimlarining kasb mahoratini oshirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar, preyskurantlar va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi va chiqaradi;

– respublika xalq xo‘jaligini, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va boshqa davlat muassasalarini, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga a‘zolik badallari to‘lashni valuta bilan ta‘minlaydi.

Moliya vazirligining asosiy vazifalari:

– moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta‘sir ko‘rsatishni ta‘minlash;

– ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta‘minlash;

– milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o‘shishini ta‘minlash;

– respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish;

– zarur moliya, valuta rezervlarini tashkil etish;

– rahbarlikning iqtisodiy usullari, uzoq muddatli me‘yorlar va normativlardan keng foydalanish;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish;

– moliya va narx mexanizmining aksilxarajat yo‘nalishini oshirish;

– nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni ko‘paytirish;

– moliya, budjet, valuta va soliqni rejalashtirish va mablag‘ bilan ta‘minlash usullarini takomillashtirish;

– korxonalar, vazirliklar, idoralar, banklar va davlat sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish;

– soliq solish, narx belgilash, sug‘urta, valuta-moliya auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida qonunchilik va me‘yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish;

– moliya, soliq narx belgilash, sug‘urta, valuta auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirish va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi faoliyatini tashkil etish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlaydigan va lavozimidan ozod qilinadigan Vazir boshchilik qiladi. Moliya vaziri bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibini tasdiqlash haqida»gi 2010-yil 12- martdagi farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosariga tenglashtirilgan, ya‘ni Moliya vaziri – makroiqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari kompleksi rahbari sifatida faoliyat yuritadi.

Moliya vaziri Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan o‘rinbosarlarga ega bo‘ladi. O‘rinbosarlar o‘rtasidagi vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan taqsimlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi (Parlament) tomonidan tayinlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risida»gi 1998- yil 29-yanvardagi qonuniga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi o‘z faoliyati yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Parlamentiga muntazam hisobdor hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tizimiga:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi;

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklaridagi boshqarmalar va bo‘limlari, shuningdek tuman va shahar hokimliklaridagi boshqarmalari va bo‘limlari;

Davlat sug‘urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini kiritishimiz mumkin.

Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlari orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

Moliya vazirligi o‘z vakolati doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda, *buyruqlar, yo‘riqnomalar, qoidalar, nizomlar* chiqaradi.

Kredit tashkilotlari – Kredit tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi va 1996-yil 25- aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlari bilan belgilanadi.

«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning birinchi moddasiga ko‘ra, bank - tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan *quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:*

– yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

– to‘lovlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va boshqa tijorat banklaridan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning bosh banki hamda mutlaq mulki bo‘lib hisoblanadi. Markaziy bank – o‘z sarf-xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat. *Uning asosiy vazifalari:*

– monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlash;

– banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog‘ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

– banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta rezervlarini, kelishuvga binoan hukumat rezervlarini qo‘shgan holda, saqlash va tasarruf etish;

– davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobdordir. Oliy Majlisning Senati:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga ko‘ra Markaziy bank boshqaruvining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

– yillik hisobotni, shuningdek auditorning xulosasini ko‘rib chiqadi.

Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir.

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimidir.

Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etadi.

Markaziy bank Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti, viloyatlarining markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bosh boshqarmalar tuzadi.

Markaziy bankka qarashli xizmatlar va muassasalar Markaziy bank boshqaruvi tasdiqlaydigan nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Markaziy bankning ustav kapitali miqdori ikki milliard so‘mdan iborat. Ustav kapitali miqdori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga muvofiq oshiriladi.

Markaziy bankning hisobot davri 1-yanvar – 31-dekabr qilib belgilanadi. Yillik hisobot 15-maydan kechiktirilmay Oliy Majlis Senati ko‘rib chiqishi uchun taqdim etiladi.

Markaziy bankning oliy organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi.

Boshqaruv o‘n bir kishidan iborat bo‘ladi. Boshqaruv tarkibiga Markaziy bank raisi, uning o‘rinbosarlari, shuningdek bankning asosiy bo‘linmalari rahbarlari kiradi.

Markaziy bank raisi boshqaruvning raisi hisoblanadi. Boshqaruv a‘zolarini Markaziy bank raisining taqdimnomasiga ko‘ra Oliy Majlisi Senatining Kengashi tasdiqlaydi.

Markaziy bank raisi:

– Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi;

– Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, ushbu Qonunga binoan Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

– Boshqaruv qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

– Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqaradi;

– Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo‘yicha Markaziy bank nomidan ish ko‘radi;

– ayrim masalalarni hal qilishni o‘zining o‘rinbosarlariga, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlariga, hududiy muassasalarning rahbarlariga topshiradi.

Markaziy bank raisining vakolat muddati – besh yil.

Markaziy bank – raisi bo‘lmagan paytda uning vazifalarini o‘rinbosarlaridan biri bajaradi.

Markaziy bank raisi quyidagi asoslarga ko'ra egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin:

- vakolat muddati tugaganida;
- iste'foga chiqishni so'rab, sabablarini ko'rsatgan holda yozgan shaxsiy arizasiga ko'ra;
- jinoyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb topilganda;
- o'zining xizmat vazifalarini salomatligiga ko'ra bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;
- egallab turgan lavozimiga munosib bo'lmagan xatti-harakatlar qilganida, shu jumladan ushbu qonunni qo'pol ravishda buzganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar yetkazganida.

Markaziy bank raisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Markaziy bank raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari Markaziy bank raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va fiskal agenti (xazina vakili) sifatida ish tutadi.

Markaziy bank hukumatga Markaziy bankning vazifalariga hamda vakolatlariga daxldor barcha muhim masalalar bo'yicha maslahat beradi.

Markaziy bank har yili hukumatga iqtisodiy va moliyaviy masalalar, shuningdek monetar va valuta siyosati bo'yicha davlat budjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruzani taqdim etadi.

Markaziy bank moliya – bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.

Markaziy bank banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari, garovxonalar faoliyatini va qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi.

Banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga olish, shuningdek banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovxonalar litsenziyalar berish haq evaziga Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab

chiqarishga litsenziyalar berish haq evaziga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi kerak.

Markaziy bank Banklarni davlat ro'yxatiga olish daftari, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari, garovxonalarga hamda qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga berilgan litsenziyalar reyestrini yuritadi.

Moliyaviy kontrol va nazorat – moliyaviy kontrolni doimiy amalga oshiruvchi organi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati, qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalar amalga oshirilishi, oltin-valuta zaxiralarini boshqarish, xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samarali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o'z vaqtida qaytarilishi doimiy monitoringi va nazoratini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida»gi PF-3093-sonli 2002-yil 27-iyun farmoni bilan tashkil etilgan. Ushbu farmonga 2002-yil 4-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3157-sonli farmoni bilan tuzilmasi va nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining vakolatlarini kengaytirish, budjet jarayonini chuqurroq va har tomonlama tahlil etish va uning bajarilishini nazorat qilishni ta'minlash maqsadida 2005-yil 4-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida»gi PF-3592-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tuzilmasi va nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib qayta tasdiqlandi.

Mazkur farmon bilan Hisob palatasining quyidagi asosiy vazifalari belgilab berildi:

- Davlat budjeti loyihasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarini shakllantirish jarayonini chuqur va puxta o'rganish, ularni bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida o'tkazilayotgan siyosatning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlariga, respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasida qabul qilingan maqsadli kompleks dasturlarga to'la-to'kis mos kelishi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash;

– tarmoqlar va hududlar bo'yicha Davlat budgetining daromad qismi shakllantirilishi va ijrosini moddama-modda, har tomonlama chuqur tahlil etish;

– budget daromadlarining asosiy moddalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining realligi va tig'izligiga baho berish, bunda yoqilg'i-energetika kompleksi, qazib chiqarish sanoati, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo, iqtisodiyotning daromad hosil qiluvchi boshqa tarmoq va sohalaridagi zaxiralarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish;

– agrosanoat kompleksidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati monitoringini amalga oshirish;

– qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirishga ajratiladigan budget mablag'lari hamda budgetdan tashqari jamg'armalarning mablag'laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilish;

– mahalliy budgetlar shakllantirilishi va amalga oshirilishini, ularning balanslanishini muntazam tahlil etish va nazorat qilish;

– mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish uchun ularga real moliyaviy mablag'lar ajratib berish vazifasini hal etish;

– respublika darajasida ham, mahalliy darajada ham davlat budgetining ijrosi va davlat mablag'larining sarflanishi ustidan nazoratni tashkil qilish va ta'minlash;

– Davlat xarajatlarini kamaytirish rezervlarini aniqlash;

– Markazda va joylarda budget mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanilishini, ulardan foydalanishda qonunbuzarliklar va suiiste'molchiliklarning oldini olish choralarini amalga oshirish;

– budgetdan tashqari jamg'armalar - Respublika yo'l jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, Qishloq xo'jaligini avanslash jamg'armasining davlat budjeti tarkibida yig'iladigan mablag'lari to'liq tushishi, ulardan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish;

– o'tkazilayotgan pul-kredit siyosatini, milliy valutani mustahkamlash;

– respublika tashqi savdo oborotining ahvolini chuqur tahlil qilish, respublika to'lov balansini shakllantirish va undan foydalanishni baholash;

– Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti prognozi bajarilishi, mahsulot importi maqbullashtirilishining ta'minlanishi, eksport tushumlari va xorijiy valutani sotish to'la-to'kis va o'z vaqtida bo'lishi monitoringini amalga oshirish;

– Ichki valuta bozorida valutaga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, ayirboshlash kursi dinamikasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish, milliy valutaning erkin almashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– Hukumat tomonidan yoki Hukumatning kafolati bilan olingan tashqi kreditlarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishini qattiq nazorat qilish;

– oltin-valuta zaxiralarining holati va uning harakati ustidan nazoratni amalga oshirish;

– oltin-valuta zaxiralari, shu jumladan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi hamda baho berishda mustaqil va xolis bo'lgan organ hisoblanadi.

Hisob palatasi faoliyatini tashkil etish tartibi. Hisob palatasining tuzilmasi va xodimlar soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlanadi. Hisob palatasiga Hisob palatasining Raisi boshchilik qiladi, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

Hisob palatasi Hisob palatasining raisidan, Hisob palatasi mas'ul xodimlari (inspektorlari)dan iborat bo'ladi.

Hisob palatasining raisi:

– Hisob palatasi faoliyatiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil qiladi;

– Hisob palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshirishlarni tashkil qilish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlaydi;

– Hisob palatasi qabul qilgan qarolarning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

Hisob palatasining faoliyatiga taalluqli masalalar ko'rib chiqilishi chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari majlislarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarida qatnashadi, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga hisobotlar taqdim etadi; berilgan vakolatlarga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Hisob palatasi faoliyatining muayyan yo'nalishlariga rahbarlik qiluvchi mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Hisob palatasining mas'ul xodimlari (inspektorlari):

– o'z vakolatlari doirasida, o'zlari boshchilik qilayotgan yo'nalishidagi faoliyatini tashkil etishga oid barcha masalalarni mustaqil ravishda hal etadilar va uning natijalari uchun javobgar bo'ladilar;

– Hisob palatasining faoliyatiga taalluqli masalalar ko'rib chiqilishi chog'ida Oliy Majlis palatalari qo'mitalarining, ijroiya hokimiyat organlari va boshqa davlat organlari hay'atlarining majlislarida ishtirok etish huquqiga egadirlar;

– muallimlik va ilmiy ishlardan tashqari tijorat hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida budget jarayonining barcha bosqichlarida budget intizomiga rioya etilishini nazorat qilish *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari* tomonidan amalga oshiriladi. *Ushbu organlar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:*

– moliya organlari va budget muassasalari tomonidan budget va moliya qonunchiligiga rioya etilishini, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari va yo'riqnoma ko'rsatmalari, budget majburiyatlari ijrosi bilan bog'liq boshqa qonunchilik hujjatlari bajarilishi ta'minlanishini nazorat qilish;

– respublika budjeti va mahalliy budgetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash;

– moliya organlari va tijorat banklarining birinchi navbatdagi sarfxarajatlar navbatiga, mablag' bilan ta'minlash hamda budget muassasalari xodimlariga ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarni to'lash muddatlariga va to'liqligiga rioya qilish, shuningdek budget muassasalariga ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun naqd pul berish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

– ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanishini va ularni kam ta'minlangan oilalarga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali berilishini nazorat qilish;

– paxta xom ashyosini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, paxta mahsuloti ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha statistika hamda buxgalteriya hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– paxta tozalash korxonalari tomonidan qabul qilinadigan, saqlanadigan va qayta ishlanadigan paxta xom ashyosining miqdori va

sifati bo'yicha ma'lumotlar nazorat va taftish qilinishini, xom ashyoni qayta ishlash chog'ida olinadigan paxta tolasi, paydo bo'ladigan kuyindilar hamda boshqa chiqindilarning belgilangan me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash;

– navlarni joylashtirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi, belgilangan standartlarga va seleksiya navlari joylashtirilishiga muvofiq urug'lik chigitlar tayyorlanishi hamda paxtakor xo'jaliklarning ular bilan ta'minlanishi monitoringini amalga oshirish;

– paxta xom ashyosi hamda undan ishlab chiqariladigan paxta mahsulotlarining miqdori va sifatini hamda ularning hisobotda aks ettirilishini baholash bo'yicha tekshirishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;

– investitsiya dasturlarini amalga oshirishga ajratiladigan markazlashtirilgan budget mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanilishini nazorat qilish;

– budget mablag'larini kommunal xizmatlar va elektr energiyasiga sarflash limitlariga rioya etilishini muntazam ravishda tekshirib borish;

– budget muassasalari tomonidan shtat-smeta intizomiga rioya etish ta'minlanishini nazorat qilish;

– hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlari va mansabdor shaxslari tomonidan budget jarayoniga noqonuniy aralashish hollarining oldini olish;

– davlat valuta mablag'larining to'g'ri va belgilangan maqsadda sarflanishini nazorat qilish;

– fuqarolarning moliya va budget intizomining buzilishi hollari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda auditorlik tashkilotlarining roli (audit). O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda yangi tahrirda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi qonuniga ko'ra, auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish va boshqa professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Auditorlik faoliyati maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi.

Auditorlik tekshiruv majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o'tkaziladi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 10-moddasiga ko'ra aksiyadorlik jamiyatlari; banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug'urta tashkilotlari; investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda

ularning boshqaruv kompaniyalari; manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar; mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar; ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak.

Shuningdek, auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan ular o'rtasida tuzilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan o'tkazilishi mumkin. Auditorlik tekshiruvi o'tkazishda aynan bir xil asoslarga ko'ra, aynan bir auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tekshirishga takror jalb etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Auditorlik tekshiruvi auditorlik hisoboti tuzish bilan yakunlanadi. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjatdir. Auditorlik hisobotidagi axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor qilinishi mumkin emas.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot sohasini boshqarishdagi vakolatlari qanday?
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining tizimi va tuzilishi haqida ma'lumot bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdagi asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Moliya sohasini boshqarish tushunchasi va vazifalari haqida so'zlab bering.
5. Kredit sohasini boshqarish qanday tashkil etilgan?
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi va vazifalari haqida so'zlab bering.
7. Hisob palatasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

24-mavzu. SANOAT, ENERGETIKA, QURILISH VA XO'JALIK XIZMAT KO'RSATISHNI BOSHQARISH

1. Sanoat sohasini boshqarish va uning o'ziga xos xususiyatlari

Sanoat har qaysi mamlakat iqtisodiyotining asosi, yuragi hisoblanadi. Ko'pincha sanoatning qay darajada rivojlanganligiga qarab, davlatning iqtisodiy qudratiga baho beriladi. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish jarayoni barcha sohalarida bo'lgani kabi sanoat sohasida ham tub burilishlar yasadi. Prezidentimiz I. Karimov aytganlaridek, – nafaqat iqtisodda, umuman respublikada o'tkazilayotgan barcha islohotlar – bu, avvalambor, institutsion islohotlar, ya'ni, eski, mustabid iqtisodning qotib qolgan, g'oyat markazlashtirilgan tizimini yangi, erkin boshqaruvga ko'chirish, rag'batlantirish va jonlantiruvchi tizimga aylantirish poydevori hisoblanadi.

Sanoat sohasini boshqarish o'z ichiga metallurgiya sanoati, mashinasozlik sanoati, avtomobilsozlik sanoati, rangli metallarni qazib chiqarish sanoati, yengil sanoat va boshqa sanoat sohalaridagi korxonalarni boshqarishni qamrab oladi. Bular sanoatning ustuvor sohalarini hisoblanib, ularni boshqarish uchun tegishli davlat boshqaruv organlari tashkil etilgandir.

Yengil sanoat. O'zbekiston Respublikasi yengil sanoatida yagona davlat siyosati *O'zbekiston Yengil sanoat mollari ishlab chiqarish davlat aksiyadorlik kompaniyasi* (O'zbekengilsanoat) tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur kompaniya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika yengil sanoatini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2002-yil 1-iyul farmoni¹ bilan respublika to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik va chinni sanoati tarmoqlarini yanada rivojlantirish hamda ularni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, paxta tolasini chuqur qayta ishlash hisobiga yengil sanoat mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida sobiq O'zbekiston Yengil sanoat mollari ishlab chiqarish uyushmasi o'rnida tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 2-iyuldagi qaroriga binoan «O'zbekengilsanoat» yengil sanoat tovarlari ishlab chiqarish davlat aksiyadorlik kompaniyasi «O'zbekengilsanoat»

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2002. – № 6–7. – 118-м.

uyushmasining huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Faoliyat sohalari quyidagilarga:

- to'qimachilik;
- trikotaj;
- tikuvchilik;
- chinni buyumlar ishlab chiqarish;
- kompaniya ustaviga zid bo'lmagan boshqa faoliyat turlari.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekengilsanoat» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va respublika yengil sanoatini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹ 2004-yil 25-mart qaroriga binoan quyidagilar «O'zbekengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasining *asosiy vazifalari hisoblanadi*:

– tarmoqni barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

– tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, bunda ip yigirishdan tayyor buyumlar ishlab chiqarishgacha barcha texnologik jarayonlarda mahsulotlar sifati oshirilishi va qiymati pasaytirilishini nazarda tutish;

– xorijiy sheriklar bilan uncha katta bo'lmagan, ixcham qo'shma korxonalar tashkil etish, shuningdek yengil sanoat korxonalarini xususiylashtirish va xususiy mulk etib berish masalalariga butun choralar bilan ko'maklashish, bunda yirik hamda bozor sharoitlariga moslashmagan ulkan korxonalar tashkil etilishiga yo'l qo'ymaslik;

– faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish, bunda ularda zamonaviy ilg'or asbob-uskunalar va texnologiyalar joriy etilishini nazarda tutish;

– yengil sanoat sohasida jahon bozorida yetakchi mavqeni egallagan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish va marketing tadqiqotlarini tashkil etish, bunda tarmoqning eksport salohiyatini rivojlantirishga va tovarlarni tashqi bozorlarga kiritishga alohida e'tibor qaratish;

– kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Respublika yengil sanoati to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik va chinni sanoati tarmoqlaridan iborat bo'lib, kompaniya ushbu tarmoqda yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Kompaniya faoliyatini tashkil etish. Kompaniya boshqaruvi to'qqiz kishidan, shu jumladan rais va uning uch nafar o'rinbosaridan iborat bo'ladi, o'rinbosarlaridan biri birinchi o'rinbosar hisoblanadi. Kompaniya boshqaruv raisi maqomi, maishiy ta'minot, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish sharoitlari bo'yicha vazirga, raisning birinchi o'rinbosari vazirning birinchi o'rinbosariga, rais o'rinbosarlari esa vazirning o'rinbosarlariga tenglashtirilgan. Kompaniya o'z faoliyatini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirib, boshqaruvchi organlari kompaniya kengashi va kompaniya rayosati hisoblanadi. Kompaniya kengashi tarkibiga kompaniya tarkibidagi bir qancha konsern, korxona, tashkilotlar rahbarlari kiradi. Kengashning yig'ilishlari kengash raisining tashabbusi bilan, lekin yiliga ikki martadan kam bo'lmagan muddatda chaqiriladi. Navbatdan tashkari kengash yig'ilishlari kompaniyaning uchdan bir qismidan kam bo'lmagan a'zolari tomonidan chaqirilishi mumkin.

Kengashning qarorlari kengash yig'ilishida a'zolarining ochiq ovoz berish yo'li qabul qilinib, har bir a'zo bir ovozga egadir. Agar berilgan ovozlar teng bo'lib qolsa, kengash raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Kompaniya raisi va uning o'rinbosarlari kompaniya kengashi tomonidan besh yil muddatga saylanadi va tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Kompaniyada kompaniya funksiyalarini amalga oshirish va kompaniya kengashi hamda kompaniya rayosati faoliyatini ta'minlash maqsadida ishchi apparat tashkil qilinadi.

2. Neft va gaz sanoati boshqarish tizimi

Keyingi yillarda O'zbekistonda neft va gaz tarmog'i ildam rivojlandi. Respublikamizda neft va gazni qayta ishlaydigan ikkitadan zavodlar ishlab turibdi. Zavodlarda xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Mustaqillik yillarida respublikamizda yangi mahsulotlar turi – benzin, aviakerosin, aviabenzin, neft moylarining xilma xil turlarini, suyultirilgan gaz va boshqalarni olish o'zlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 11-dekabr farmoni bilan neft va gaz qazib chiqarish hajmini ko'paytirish, yangi neft va gaz konlari o'zlashtirilishini jadallashtirish, neft va gazni qayta ishlash hamda tashish samaradorligini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish borasidagi ishlarni faollashtirish, respublikaning neft va gaz sanoatida bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda neft-gaz tarmog'ini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida «O'zbekneftgaz»

¹ O'sha manba. – T., 2004. – № 12. – 145-m.

Milliy korporatsiyasi «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi hamda ushbu farmon bilan quyidagilar «O‘zbekneftgaz» xolding kompaniyasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari etib belgilandi:

- joriy va uzoq muddatli bashoratlarni, gaz, neft va neftni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning, tabiiy resurslardan va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning aniq maqsadli ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish; respublika iqtisodiyoti hamda aholisining neft mahsulotlari va gazga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini to‘la-to‘kis ta‘minlash;

- neft va gaz sohasidagi geologiya-qidiruv ishlarining strategik hamda ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va muvofiqlashtirish, neft va gaz konlarini qazishning samarali tizimi va usullarini joriy etish;

- xorijiy mamlakatlar va kompaniyalar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va investitsiya sohasidagi hamkorlikni har tomonlama kengaytirish;

- neft, gaz va neft mahsulotlari respublika hamda jahon bozori konyunkturasini o‘rganish negizida sarmoyalarni jalb etish;

- gaz ta‘minoti va neft mahsulotlari bilan ta‘minlash tizimining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- tarmoq korxonalarida yangi texnologiyalarni va ilg‘or menejment usullarini joriy qilish.

Faoliyatni tashkil qilish.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi boshqaruvi raisi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi boshqaruvining raisi maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi vaziriga, «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining bosh boshqarmasi boshlig‘i raisning birinchi o‘rinbosari – vazirning birinchi o‘rinbosariga, «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bosh boshqarmalari boshliqlari – raisning o‘rinbosarlari – vazir o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi.¹

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi boshqaruvi raisi, uning o‘rinbosarlari, «O‘zgeoburg‘uneftgaz», «O‘zneftgazqazibchiqarish», «O‘zneftgazqurilishinvest», «O‘zneftmahsulot», «O‘ztransgaz», aksiyadorlik kompaniyalari bosh direktorlari lavozimga «O‘zbekneftgaz» xolding kompaniyasi taqdimnomasi asosida, O‘zbekiston Respublikasi

¹ Самигжонов Ф.Р., Хакимов Ф.Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т., 2009. – Б.23.

Prezidenti bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadilar.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi boshqaruvining raisi maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi vaziriga, «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining bosh boshqarmasi boshlig‘i — raisning birinchi o‘rinbosari — vazirning birinchi o‘rinbosariga, «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bosh boshqarmalari boshliqlari — raisning o‘rinbosarlari — vazir o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bosh boshqarmasi boshlig‘i — boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosariga vazirlarga belgilangan, bosh boshqarmalar boshliqlari — boshqaruv raisining o‘rinbosarlariga — vazirning birinchi o‘rinbosarlariga belgilangan moddiy va maishiy ta‘minot, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish shart-sharoitlari saqlab qolinsin.

«O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi va uning bo‘linmalari xodimlarida ular uchun avvalgi ish joyi bo‘yicha belgilangan moddiy ta‘minot va tibbiy xizmat ko‘rsatish shart-sharoitlariga bo‘lgan huquqlari saqlanib qolingan.

3. Sanoat sohasidagi davlat inspeksiya organlari faoliyati

2004-yil 9-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan sanoatda, gaz ta‘minoti hamda kon nazorati sohasida boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish va ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish samaradorligini ta‘minlash maqsadida Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi («Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi)ga aylantirildi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi («Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi) respublika hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarning sanoatda ishlarni bexatar olib borish, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunchilik hujjatlari hamda normativ-texnik hujjatlar talablariga rioya qilishlari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 28. – 319-м.

maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va u o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Davlat inspeksiyasi, uning hududiy inspeksiyalari va unga idoraviy mansub tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining sanoatda xavfsizlik sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining yagona tizimini tashkil etadi. Mintaqaviy inspeksiyalar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil hisoblanadi va bevosita Davlat inspeksiyasiga bo'ysunadi. Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi hamda xalqaro bitimlar asosida boshqa davlatlarning davlat nazorat organlari bilan o'zaro aloqa va hamkorlik qiladi.

Quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sanoatda va gaz ta'minotida ishlarni bexatar olib borishga, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga, mineral xom ashyoni qayta ishlash va metallurgiya jihatidan saralashga, shuningdek kon ishlarini geologiya-marksheyderlik xizmati bilan ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlari va normativ-texnik hujjatlar talablariga rioya qilishlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini ta'minlash sohasida oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- gaz xo'jaligi tizimida va ko'p xonali turar joylar va respublikaning kommunal-maishiy obyektlarining gaz ta'minotida xavfsizlik ta'minlashini nazorat qilish;

- texnik xavfsizlik va yer osti boyliklarini muhofaza qilish masalalari bo'yicha ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish;

- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida ishlarning bexatar olib borilishini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- O'zbekiston Respublikasi harbiylashtirilgan kon-qutqarish qismlariga tezkor va metodik rahbarlik qilish; o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha normativ-huquqiy va texnik hujjatlarni ishlab chiqish va belgilangan tartibda qabul qilish.

Neft va gaz sohasida davlat nazorati. O'zbekiston Respublikasida neft mahsulotlari va gaz sotish hamda ulardan foydalanish bo'yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning

bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur inspeksiya neft mahsulotlari va gazdan foydalanish, ularni sotish, shuningdek neft, gaz va gaz kondensati qazib olish, ularni qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-iyulda qabul qilingan qarori¹ bilan neft mahsulotlari va gazni qazib olish, ishlab chiqarish, sotish va ulardan foydalanishda belgilangan tartibga va texnologiya talablariga rioya etilishini nazorat qilish darajasini oshirish maqsadida quyidagilar «O'zdavneftgazinspeksiya»ning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- neft mahsulotlari va gaz sotish hamda ulardan foydalanish bo'yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish;

- energiyani tejovchi davlat dasturlarini, neft, gaz, gaz kondensati va ularni qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish masalalari bo'yicha loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish;

- neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

- neft mahsulotlari va gazdan foydalanish, ularni sotish, shuningdek neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanish bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish.

«O'zdavneftgazinspeksiya» o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Inspeksiya tizimiga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'limlar, shuningdek Toshkent nazorat-kimyolaboratoriyasi kiradi.

«O'zdavneftgazinspeksiya»ga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi. Boshliqning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 28. – 322-м.

qilinadigan ikki nafar o‘rinbosari bo‘ladi. «O‘zdavneftgazinspeksiya» boshlig‘i maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi vazirining birinchi o‘rinbosariga, boshliq o‘rinbosarlari – O‘zbekiston Respublikasi vaziri o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi.

«O‘zdavneftgazinspeksiya» xodimlari maqomiga ko‘ra «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi xodimlarining tegishli toifalariga tenglashtiriladi.

4. Energetika sohasidagi iqtisodiy islohotlar

2004-yil 21-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga¹ ko‘ra «O‘zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi va ko‘mir bilan barqaror ta‘minlash, respublika energiya tizimi ish rejimlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish;

elektr energetikasini va ko‘mir sanoatini rivojlantirishning qisqa muddatli va uzoq muddatli bashoratlarini hamda maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, elektr energiyasi hamda ko‘mir ishlab chiqarish hamda iste‘mol qilish balanslarini shakllantirishda qatnashish;

zamonaviy asbob-uskunalar va ilg‘or texnologiyalar negizida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish quvvatlari va elektr tarmoqlarini, ko‘mir sanoati korxonalarini rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirishni amalga oshirish;

ko‘mir tarmog‘ida geologiya-qidiruv ishlarini muvofiqlashtirish, ko‘mir konlarini ochish va qazib olishning samarali tizimlari va metodlarini joriy etish, uni ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda undan elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda ustun darajada foydalanish, energiya tiklanayotgan, shu jumladan noan‘anaviy manbalarini rivojlantirish va joriy etish;

respublika korxonalari va tashkilotlari bilan birgalikda elektr energiyasi va ko‘mirni tejash, ulardan oqilona foydalanish hamda ularning isrof bo‘lishini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish;

marketing tadqiqotlarini tashkil etish, tarmoq korxonalariga ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning raqobatga bardoshli yangi turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishda, ularning jahon bozoriga chiqishida ko‘maklashish;

kompaniyaning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko‘rsatish;

elektr energetikasi va ko‘mir sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Elektr energetikada davlat nazorati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagi 96-sonli qarori bilan¹ Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat agentligi Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat inspeksiya («O‘zdavenergonazorat» inspeksiya) ga aylantirildi. Inspeksiya elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste‘mol qilish va ko‘mirdan foydalanish sohasida normalar va qoidalarga rioya etilishini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

– elektr energiyasi, issiqlik energiyasi oqilona va samarali ishlab chiqarilishi, uzatilishi, iste‘mol qilinishi va ko‘mirdan foydalanishni nazorat qilish;

– elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste‘mol qilishda va ko‘mirdan foydalanishda xavfsizlik ta‘minlanishiga yo‘naltirilgan oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirilishini nazorat qilish;

– elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste‘mol qilish va ko‘mirdan foydalanish sohasida zarur normativ hujjatlar va qoidalarni ishlab chiqish;

– energetika tekshiruvlari va ekspertizalari o‘tkazish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash.

Inspeksiya tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi, O‘zbekiston Respublikasining Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo Toshkent, Farg‘ona, Xorazm viloyatlaridagi hududiy bo‘limlar va Toshkent shahar bo‘limi kiradi. Hududiy bo‘limlar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita «O‘zdavenergonazorat» inspeksiya hisobot beradi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 25. – 288-м.

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 9. – 105-м.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining elektr, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, uzatish, sotish va iste'mol qilish hamda ko'mirdan foydalanish masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Inspeksiya zarur hollarda, boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlar chiqarishga haqlidir.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasiga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq boshchilik qiladi.

Boshliq maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vazirining birinchi o'rinbosariga, boshliqning o'rinbosarlari vazirning o'rinbosariga tenglashtiriladi. Boshliq lavozimiga ko'ra bir vaqtning o'zida Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektori, uning o'rinbosarlari esa – Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektorining o'rinbosarlari hisoblanadi. «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi hududiy bo'limlarining bosh inspektorlari elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish ustidan nazorat qilish bo'yicha katta davlat inspektorlari hisoblanadi.

5. Kapital qurilishi mamlakat ishlab chiqarishining moddiy asosi sifatida

Kapital qurilish sohasi mamlakat ishlab chiqarishining moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Ushbu soha orqali yangi ishlab chiqarish obyektlari, turar joy, madaniy-maishiy va ma'muriy binolar quriladi yoki mavjud obyektlar ta'mirlanadi.

Shaharsozlik faoliyati – davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, binokorlik materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarning fuqarolar manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlari, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy xususiyatlari inobatga olingan

holda loyihalashtirilishi, qurilishi va rekonstruksiya qilish sohasidagi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga binoan har bir fuqaro qulay yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti bilan ta'minlanish huquqiga ega.

Shaharsozlik faoliyatining alohida tartibga solinadigan obyektlari jumlasiga quyidagi aholi punktlari kiritilishi ham mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti – Nukus shahri;
- viloyatlarning ma'muriy markazi bo'lgan shaharlar;
- hududida madaniy meros obyektlari bo'lgan shaharlar;
- kurort-shaharlar;
- qo'riqxonalar-shaharlar;
- yashash va faoliyat ko'rsatishning alohida rejimi belgilangan aholi

punktlari (harbiy shaharchalar va o'zga rejimli hududlar, davlat qo'riqxonalardagi, milliy bog'lar va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi aholi punktlari).

O'tgan yillar mobaynida hukumatimiz tomonidan kapital qurilish sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 18-noyabrda qabul qilingan «Kapital qurilishda boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga ko'ra¹ Qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning 1998–2000-yillarga mo'ljallangan dasturiga muvofiq, shuningdek, kapital qurilishda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, qurilish sohasidagi boshqarish tuzilmalarini monopoliyadan chiqarish va ixchamlashtirish, pudrat ishlari bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston sanoat va xo'jalik qurilishi – «O'zsanoatxo'jalikqurilish» davlat korporatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika ishlab chiqarish davlat-kooperativ qurilish birlashmasi – «O'zdehqonchilikqurilish», O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi kooperativ va aksiyadorlik qurilishi korxonalari uyushmasi – «O'zjamokatqurilish» tugatilib, tugatilgan «O'zsanoatxo'jalikqurilish» korporatsiyasi, «O'zdehqonchilikqurilish» birlashmasi va «O'zjamokatqurilish» uyushmasi tarkibiga kiruvchi pudrat qurilish trestlari, boshqarmalar, birlashmalar,

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 1998. – № 10–11. – 208-м.

sanoat va transport korxonalari hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar mustaqil yuridik shaxs sifatida saqlanib qoldi.

Qurilish, arxitektura, shaharsozlik, sohasidagi faoliyatni, qurilish materiallari ishlab chiqarishni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muvofiqlashtirish va funksional boshqarish *O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi («Davarxitektqurilish»)* tomonidan amalga oshiriladi.

«Davarxitektqurilish» qo'mitasi:

– shaharsozlik va shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi;

– o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi;

– o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

«Davarxitektqurilish» qo'mitasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi arxitektura va qurilish qo'mitasi;

– viloyatlar va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari;

– shaharlar va tumanlar arxitektura va qurilish boshqarmalari (bo'limlari);

– davlat ekspertizasi hududiy boshqarmalari;

– davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyalari;

– qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazlari;

– qurilishda standartlashtirish va sertifikatlash respublika markazi;

– kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi;

– «AQATM» axborot-joriy etish markazi.

Quyidagilar «Davarxitektqurilish» qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

– shaharsozlik va shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablari texnologiyalarini hisobga olgan holda hududlarni joylashtirish, rejalashtirish va qurilishning ilmiy asoslangan sxemalarini ta'minlash;

– loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlari sifati, shahar va qishloq aholi yashash punktlarini rejalashtirish va qurilishda shaharsozlikka oid qonunchilik hujjatlari, shaharsozlik normalari, qoidalar va standartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– shaharsozlik faoliyati sohasida yagona ilmiy va texnika siyosatini amalga oshirish, tegishli axborot bazasini yaratish;

– kapital qurilishda islohotlarning borishini muvofiqlashtirish va uning monitoringini olib borish, kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarning borishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish, kapital qurilishda islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

– kapital qurilishni yanada isloh qilish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning monitoringini olib borish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, shartnoma munosabatlarining rolini oshirish, qurilishda narxlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

– loyihalashtirish va pudrat ishlari, qurilish materiallari bozorlarida raqobat muhitini yanada shakllantirishga ko'maklashish;

– xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishda, xususiylashtirish va qo'shma korxonalar, injiniring, konsalting, sug'urta tashkilotlari va bozor infratuzilmasining boshqa tashkilotlarini tashkil etishda, shaharsozlik faoliyati sohasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda ko'maklashish;

– tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar majburiyatlari bajarilishi monitoringini olib borish, obyektlar qurilishi sifati va muddatlari ustidan nazorat qilish, markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtirilayotgan obyektlarni qurish sifati va muddatlarini nazorat qilish va boshqalar.

Qo'mita faoliyatini tashkil etish. «Davarxitektqurilish» qo'mitasiga belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. Raisning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan uch nafar o'rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qaror tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi tomonidan qabul qilinadi.

Boshqa tarkibiy bo'linmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi qabul qiladi.

Qo'mitada tarkibiga rais (hay'at raisi) va rais o'rinbosarlari, shuningdek «Davarxitektqurilish» qo'mitasi va uning tarkibiy bo'linmalarining boshqa xodimlari kiruvchi 9 kishidan iborat hay'at tuziladi. Hay'at a'zolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat arxitektura-qurilish nazorati. O'zbekiston Respublikasi hududida arxitektura-qurilish sohasida davlat standartlariga, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishini O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tizimiga kiruvchi *davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyasi* ta'minlaydi. Inspeksiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasiga hisob beradi.

Quyidagilar Inspeksiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalar talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; obyektlar qurilishini moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, qurilishning barcha bosqichlarida loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlari sifatiga, davlat standartlariga, qurilish normalari va qoidalariga, ishlarni amalga oshirish texnologiyasiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbalaridan va buyurtmachining mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yakka tartibdagi uy-joy qurilishidan tashqari, barcha qurilish obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish, qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnomalar berish;

bajarilayotgan qurilish-montaj ishlarining, qo'llanayotgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining davlat standartlari talablariga va texnik shartlarga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

qurilish industriyasi korxonalarida qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlarini ishlab chiqarish shart-sharoitlarining davlat standartlariga, normativ-texnik va loyiha hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalar ishlarida majburiy ravishda qatnashish kabilar.

6. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining huquqiy maqomi

Avtomobil va suv transportini boshqarish – O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi 1998-yil 29-avgustdagi

qonuniga binoan¹ avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sertifikatlash, litsenziyalash, soliq solish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tashishlar uchun tariflarni shakllantirish, yagona ilmiy texnika siyosatini o'tkazish yo'li bilan, shuningdek qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

2001-yil 4-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida» gi farmonida² avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

– avtotransportda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlari va korxonalarini keng xususiyalashtirish, xususi avtomobil tashuvchilar faoliyati sohasini kengaytirish, transport xizmatlari bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

– avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni boshqarishning ortiqcha bo'g'inlarini tugatish, boshqaruvning bir va ikki bo'g'inli tizimiga o'tish;

– avtomobil transportida boshqarishni markazlashtirishdan chiqarish va avtomobilda yo'lovchilar tashuvchi, yuklarni viloyat ichida tashuvchi, transport-foydalanish va axborot xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash funksiyalarini bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berish. Shuningdek, ushbu farmonga binoan 1993-yil 8-yanvarda tashkil etilgan O'zbekiston avtomobil transporti davlat-aksionerlik korporatsiyasi («O'zavtotrans») tugatilib, uning tarkibiga kiruvchi hududiy davlat aksionerlik konsernlari va birlashmalari avtomobilda tashuvchilarning hududiy uyushmalariga aylantirildi hamda ushbu uyushmalar Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari ixtiyoriga berildi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис ахборотномаси. – 1998. – № 9. – 174-м.

² Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2001. – № 6. – 118-м.

O'zbekiston Respublikasida avtomobil va daryo transporti sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyulda qarori bilan Respublika «O'zavtolitsenziya» boshqarmasi bazasida avtomobil va daryo transportini boshqarishni tashkil etish darajasini oshirish va bu faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirish, avtotransport xizmatlari ko'rsatish bozorida raqobatni rivojlantirish, harakat xavfsizligi va ekologik talablarni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tarkibiy va institutsional o'zgartirish masalalarini hal qilish, xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishga hamda avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish uchun maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Agentlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Agentlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash respublika markazi, «Avtodaryotransilm» kasb malakasini oshirish davlat ilmiy-metodik markazi, «O'zbekiston avtomobilchisi» gazetasi tahririyati kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martda qabul qilingan «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori¹ bilan quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilishini ta'minlash;

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo'lovchilar tashishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash;

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 10. – 120-м.

- avtomobil va daryo transporti sohasida yagona texnika siyosatini shakllantirish va o'tkazish;

- avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni litsenziyalashni tashkil etish;

- avtomobil va daryo transportida kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Agentlikka qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi. Boshliqning ikki nafar o'rinbosari bo'ladi. Agentlik boshlig'i maqomiga ko'ra vazirga, boshliq o'rinbosarlari vazir o'rinbosarlariga tenglashiriladi.

Agentlikda tarkibiga agentlik boshlig'i (hay'at raisi), boshliq o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra) va agentlik tizimi boshqa rahbar xodimlari kiradigan 5 kishidan iborat hay'at tashkil etiladi. Hay'atning shaxsiy tarkibi agentlik boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tomonidan tasdiqlanadi.

Shahar yo'lovchilar transporti – Shahar yo'lovchilar transporti O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonuni¹ bilan tartibga solinadi. Shahar yo'lovchilar transporti deganda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olingan, shahar doirasida yo'lovchilar hamda bagaj tashishga mo'ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi. Shahar yo'lovchilar transporti ommaviy yoki xususiy mulk asosida ishlashi mumkin.

2004-yil 11-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori² bilan Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish bilan band bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Toshkent shahar yo'lovchilar tashish transporti davlat uyushmasi «Toshshaharyo'lovchitrans» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi va quyidagilar «Toshshaharyo'lovchitrans» aksiyadorlik kompaniyasining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:

- shahar yo'lovchilar tashish transportini rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash, Toshkent shahar hokimligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yo'lovchilar tashish transportini

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 4–5. – 124-м.

² Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – № 24. – 274-м.

rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– marketing tadqiqotlarini tashkil etish va shahar transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish;

– Toshkent shahar aholisining shahar yo‘lovchilar tashish transporti xizmatlariga ehtiyojini qondirish, shahar yo‘lovchilar tashish transportining iqtisodiy foydali va ekologiya jihatidan toza turlarini kompleks rivojlantirish;

– yo‘lovchilar tashish transportida yo‘l harakati xavfsizligining yuqori darajasini ta‘minlash;

– kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Sanoat sohasini boshqarish va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.

2. Sanoatda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimi va asosiy vazifalari haqida ma‘lumot bering.

3. Sanoat sohasidagi davlat inspeksiya organlarining asosiy vazifalari haqida so‘zlab bering.

4. Energetika sohasidagi davlat organlarining asosiy vazifalari haqida so‘zlab bering.

5. Neft va gaz sanoatini boshqarish organlarining tizimi va asosiy vazifalari haqida ma‘lumot bering.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

7. Davlat arxitektura-qurilish nazoratining mohiyati nimalardan tashkil topgan?

8. O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qanday shakllarda amalga oshiriladi?

9. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining asosiy vazifa va funksiyalari nimalardan iborat?

10. O‘zbekiston Respublikasida qanday turdagi avtomobil yo‘llari mavjud va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?

25-mavzu. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISH

1. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida

Mamlakatimiz iqtisodiyotini qishloq xo‘jaligi sohasisiz tasavvur qilish qiyin. Qishloq xo‘jaligi respublikamiz iqtisodiyotining boshqa real sektorlari kabi uning izchil rivojini ta‘minlovchi muhim tarmoqlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish: yerlardan unumli foydalanish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlash va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni yaxshi yo‘lga qo‘yish; ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash va boshqa faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sohani boshqarish *O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi* tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi organlari:

«O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1998-yil 30-aprel qonuni, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi 1993-yil 6-may qonuni, «Veterinariya to‘g‘risida»gi 1993-yil 3-sentabr qonuni, «O‘simliklar karantini to‘g‘risida»gi 1995-yil 30-avgust qonuni, «Naslchilik to‘g‘risida»gi 1995-yil 21-dekabr qonuni, «Urug‘chilik to‘g‘risida»gi qonuni, «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida»gi 1997-yil 25-dekabr qonuni, «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi 1997-yil 26-dekabr qonuni, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi 1997-yil 26-dekabr qonuni, «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi 1998-yil 30-aprel qonuni, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi 1998-yil 30-aprel qonuni, «O‘rmon to‘g‘risida»gi 1999-yil 15-aprel qonuni, «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi 1999-yil 20-avgust qonuni, «Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida»gi 2000-yil 31-avgust qonuni, «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi 2001-yil 6-dekabr qonuni, «Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida»gi (yangi tahriri)dagi 2002-yil 29-avgust qonuni, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi (yangi tahriri)dagi 2004-yil 26-avgust qonuni asosida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, qonunosti hujjatlaridan quyidagilarni ta‘kidlash mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xolding to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 1995-yil 12-oktabr qarori,

«Respublika paxta tozalash sanoatini monopoliyadan chiqarish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 -yil 11-iyun farmoni, «Davlat korxonalarini ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi 1995-yil 15-iyun qarori, «Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 -yil 22-avgust qarori, «O'zdonmahsulot» davlat aksiyadorlik korporatsiyasini «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-avgust qarori, «O'zbekiston Respublikasi Davlat o'rmon qo'mitasini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasiga aylantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 -yil 7- fevral farmoni, «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi, Suv xo'jaligi departamenti, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi, Shartnoma majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish bosh davlat inspeksiyasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 -yil 30-mart qarori, «Respublika yengil sanoatini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 -yil 1-iyul farmoni, «O'zbekiston Suv xo'jaligi qurilishi davlat konserni («O'zsuvqurilish») tugatish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 23-iyun farmoni, «O'zqishloqxo'jalik-ta'minotuzatish» Davlat-kooperativ qo'mitasini «O'zagro mashservis» uyushmasi etib o'zgartirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 31-oktabr farmoni kabilar.

Yuqoridagi ta'kidlangan qonunlardan, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi asosida qishloq xo'jaligi organlari umumiy tartibda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo, sug'oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash; qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash prinsiplariga tayanib o'z vazifalarini tashkil etadilar.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi.

Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'pyillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofaza qilinishi lozim.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qishloq xo'jaligidan o'zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yerlarga o'tkazishga alohida hollarda yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yo'l qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya suvdan foydalanish va suv iste'moli tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ularning unumdorligini oshirish shartidir.

Sug'oriladigan yerlar. Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Qishloq va suv xo'jaligi organlari sug'oriladigan yeri bo'lgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni sug'orish ishlari uchun manbalarning sersuvligini hisobga olgan holda joriy etilgan limitlar bo'yicha suv to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibda suv bilan ta'minlashlari shart.

Sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim. Bunday yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish alohida hollarda, tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar. Kadastr baholanishiga ko'ra o'rtacha tuman bonitet ballidan 20 foizdan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklariga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga – tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;

- tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy tadqiqot va boshqa qishloq xo'jalik muassasalari va tashkilotlariga ilmiy tadqiqot va ta'lim maqsadlari, tovar qishloq xo'jaligini yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – fermer xo'jaliklarini yuritish uchun;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;

- qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga – yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Davlat boshqaruvida suvdan foydalanish ham asosan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va boshqariladi.

Suv va suvdan foydalanish to'g'risida qonunga asosan suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (yer usti suvlari), O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (yer osti suvlari) hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib

borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (yer osti issiq suvlari va mineral suvlar) o'z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo'yilgan tartibga barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari va fuqarolar rioya qilishlari, suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek suv to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilab berilgan boshqa qoidalarni bajarishlarini ta'minlashdir.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradilar. Suvdan foydalanish ustidan idoraviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi organlari amalga oshiradilar.

Veterinariya to'g'risida qonunga asosan veterinariya xizmatini boshqarish. O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat veterinariya bosh boshqarmasi xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qiladi.

Viloyatlarda va Toshkent shahrida veterinariya xizmatiga rahbarlikni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalariga tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Tuman va shaharlarda veterinariya xizmatiga rahbarlikni tuman va shahar davlat veterinariya bo'limlari amalga oshiradilar. Tuman va

shaharlardagi veterinariya bo'limlariga tegishli tuman va shahar hokimlari bilan kelishilgan holda viloyat davlat veterinariya boshqarmalari tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat chegarasida va transportda veterinariya xizmatiga rahbarlikni davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi veterinariya xizmatini boshqarish davlat idoralari vakolatlari doirasida tegishli hokimlarga va yuqori idoralarga bo'ysunadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi xo'jaligi to'g'risidagi»gi qonuniga asosan fermer xo'jaligi – fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyekti hisoblanadi.

Fermer xo'jaligining boshlig'i. Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning muassisi – fermerdir. O'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi fermer bo'lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ana shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi. Fermer xo'jaligi boshlig'ining huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari. Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 30 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 5 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o'rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi.

Fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi. Fermer xo'jaligi shu xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo'jaligiga tegishli alohida mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun uning boshlig'i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish. Fermer xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo'jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro'yxatiga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomini oladi, bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'lishga haqli.

Fermer xo'jaligi tashkil etishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo'jalikning ustavi qonunga muvofiq bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi qonun asosida qishloq xo'jaligi kooperativlarini (shirkat xo'jaliklarini) tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi hamda tugatilishining huquqiy asoslarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydi, ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) faoliyatining asosiy turi qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishdir.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bir qatorda kooperativning (shirkat xo'jaligining) o'z hududida ham, shuningdek undan tashqarida ham

qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'mol mollari, ishlab chiqarish-texnika ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, savdo-sotiq, ta'mirlash va qurilish ishlari, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish, shuningdek qonunlarda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»gi 2000 -yil 31 avgust qonunining maqsadi: qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus vakolat bergan organ (bundan buyon – maxsus vakolatli organ deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi 2001 -yil 6 dekabr qonunining maqsadi: xo'jalik shirkatlarining tuzilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Xo'jalik shirkati: muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar.

Xo'jalik shirkati to'liq shirkat yoki kommandit shirkat shaklida tuziladi. Xo'jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xo'jalik shirkati o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Ro'yxati qonunlarda belgilanadigan faoliyatning ayrim turlari bilan xo'jalik shirkati faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi, vakolatxonalar va filiallar tashkil etishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs sifatida tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shirkati to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xo'jalik shirkatining joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Xo'jalik shirkatining muhrida uning firma nomi xo'jalik shirkatining ixtiyoriga ko'ra boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati o'zining firma nomi yozilgan shtamlarga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgisiga va boshqa o'z belgi-alomatlariga ega bo'lishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni: dehqon xo'jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishining huquqiy asoslarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarni tartibga soladi.

Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

2. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining huquqiy maqomi, tizimi va asosiy vazifalari

Vazirlik qishloq xo'jaligi sohasini boshqarishni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari va farmoyishlari hamda vazirlik

to'g'risidagi Nizom asosida o'zining hududiy organlari orqali amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari Vazirlikning hududiy organlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga hamda Vazirlikka bo'ysunadilar va hisob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi 290-son asosan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi to'g'risida nizom tasdiqlangan bo'lib, ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining (keyingi o'rinlarda Vazirlik deb ataladi) vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek o'z tasarrufidagi respublika organlari va hududiy organlar orqali hal etadi.

Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, bank muassasalarida hisob raqamlariga egadir.

Vazirlikning vazifalari va funksiyalari:

qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini amalga oshirish;

zamonaviy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlariga joriy etish;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor prinsiplari va mexanizmlari asosida xizmat ko'rsatayotgan tarmoqlar, bo'g'inlar va tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

agrar sektorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijara munosabatlarini, oila pudratini, fermer xo'jaliklarini keng rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish;

qishloq xo'jaligini yuritishni va qishloq xo'jaligi ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

seleksiya, urug'chilik, naslchilik ishlari, veterinariya, o'simliklar karantini sohasida davlat siyosatini olib borish hamda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;

irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning va suv iste'molining bozor prinsiplarini joriy etish;

davlat suv xo'jaligi tizimidan foydalanilishini va uning zamonaviylashtirilishini ta'minlash;

ilgaridan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;

yer va suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

o'rmon xo'jaligidan foydalanish, uni qo'riqlash, himoya qilish va rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

o'ziga qarashli tashkilotlar va korxonalarni ilmiy-texnik va axborot bilan ta'minlash;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

qishloq xo'jaligida o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish, o'simliklar kasalliklarining oldini olish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga, begona o'tlarga va chigirtkaga qarshi kurashish bo'yicha yagona texnika va texnologiya siyosatini o'tkazish.

Yuklangan vazifalarga muvofiq Vazirlik quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ularni ro'yobga chiqarish strategiyasi va mexanizmlari bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligini rivojlantirishning tarmoq va mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori konyunkturasi marketing tadqiqotlarini amalga oshiradi, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini zarur axborot bilan ta'minlaydi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligiga tashqi va ichki investitsiyalarni jalb etishda ishtirok etadi, budjet mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi;

navlarni sinash, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi istiqbolli navlarini yaratish va ko'paytirishga ixtisoslashtirilgan o'ziga qarashli elita va urug'chilik xo'jaliklari ishini muvofiqlashtiradi;

tarmoqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va mehnatni tashkil etish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

davlat karantin qoidalari bajarilishini, epidemiologiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi va chorva mollari, parrandalar va baliqlarni kasalliklardan himoya qilish qoidalariga rioya qilinishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

seleksiya-naslchilik ishlarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

suv resurslari balansini ishlab chiqadi, suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilaydi;

suvdan limit bo'yicha foydalanish va suv iste'moli tartibi amalga oshirilishini ta'minlaydi;

suv iste'molchilari uyushmalari va boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

havza prinsipi asosida yer usti suv resurslari boshqarilishini amalga oshiradi;

suv resurslaridan foydalanishda o'zaro munosabatlarning bozor prinsiplarini va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yerlarni o'zlashtirish dasturlarini ishlab chiqadi;

kanallar va kollektorlardan, suv omborlari, nasos stansiyalari, gidrotexnika inshootlaridan va boshqa davlat suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanishni tashkil etadi;

suv iste'molchilari uyushmalarining suv xo'jaligi obyektlaridan texnik foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtiradi;

suv resurslari hisobini olib boradi va ulardan foydalanilishini nazorat qiladi, «Suvdan foydalanish» bo'limi bo'yicha davlat suv kadastrini yuritishda qatnashadi;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, sug'orish va kollektor-drenaj suvlari sifati ustidan monitoringni amalga oshiradi;

irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalariga, suv omborlaridan foydalanish boshqarmalariga, transchegaraviy suv obyektlaridan, viloyatlararo ahamiyatga molik suv obyektlaridan, yirik va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarga, nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmalariga, melioratsiya ekspeditsiyalariga, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarga va suv iste'molchilariga — respublika yoki viloyatlararo ahamiyatga molik sun'iy suv obyektlaridan suvdan maxsus foydalanishga yoki suv iste'moliga ruxsatnomalar beradi, tabiatni muhofaza qilish organlariga tabiiy yuza suv obyektlaridan suvdan maxsus foydalanish va suv iste'moliga ruxsatnoma berish to'g'risida takliflar kiritadi;

suv resurslaridan kompleks foydalanishning istiqbolli sxemalarini ishlab chiqadi;

transchegara suv resurslari va obyektlarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadi;

o'rmonlarni boshqarish, ulardan foydalanish, ularni qayta tiklash, muhofaza qilish va qo'riqlashni, davlat o'rmon kadastrini yuritishni amalga oshiradi hamda qo'riqxonalar ishlarini tashkil etishda qatnashadi;

o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, o'rmon va ovchilik xo'jaligini yuritishga doir normativ-texnik hujjatlar bajarilishi ustidan idoraviy nazoratni amalga oshiradi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot, loyihalash-qidiruv va konstruktorlik ishlarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, ularni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi, ularning natijalari amaliyotga joriy etilishiga ko'maklashadi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida xalqaro hamkorlik qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

respublika o'quv yurtlarida va ilmiy muassasalarida, shuningdek xorijda shirkat va fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislari malakasi oshirilishini va tajriba almashuvini tashkil etadi;

kompleks tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi, zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlar tarqalishi imkoniyatlarini o'rganadi va prognozlashtiradi, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini kimyoviy va biologik himoya vositalari, stimulyatorlar bilan ta'minlaydi;

o'simliklarni himoya qilish sohasida qishloq xo'jaligi korxonalari va aholini metodik ta'minlashni, shartnoma asosida qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmatlari ko'rsatish ishlari bajarilishini tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi ekinlarining o'ta xavfli zararkunandalarini qirib tashlashning ilmiy asoslangan tadbirlari o'tkazilishini tashkil etadi;

o'simliklarni himoya qilish sohasida rahbarlar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.

Vazirlik:

paxtachilikni rivojlantirish;

g'allachilikni rivojlantirish;

sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish hamda ularni kompleks qayta ishlash;

chorvachilikni rivojlantirish;

yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va yerlar unumdorligini oshirish;

qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish muammolari bo'yicha Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Vazirlikning huquqlari:

o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

kelishish uchun o'ziga taqdim etiladigan yer, suv va o'rmon resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar loyihalari va takliflar yuzasidan xulosalar berish;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan respublika hududiga jahonning epizootik jihatdan nosog'lom mintaqalaridan chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, shuningdek dehqonchilik mahsulotlari va urug'lik keltirilishini taqiqlash;

suv manbalariga suv kelishi o'zgargan taqdirda suv olish limitlariga o'zgartirishlar kiritish;

limitdan ortiq suv olingan, suv resurslaridan xo'jasizlarcha, nooqilona foydalanilgan taqdirda suv berishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish;

suv to'g'risidagi qonun hujjatlari, suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralarini qo'llash;

suv resurslarini samarali boshqarganlik va ulardan tejamli foydalanganlik uchun suvdan foydalanuvchilarni va suv iste'molchilarini iqtisodiy rag'batlantirishni tashkil etish;

Vazirlik boshqaruvi sohasiga tegishli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan kelishgan holda tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;

o'ziga qarashli budjet korxonalari va tashkilotlarida davlat mulkini belgilangan tartibda boshqarish;

ommaviy axborot vositalari ta'sis etish.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlarining vazirliklar, idoralar, muassasalar, joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolarini hal etish bo'yicha Kengashlar O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi boshqaruvi markaziy apparati tuzilmasida:

paxtachilikni rivojlantirish;

g'allachilikni rivojlantirish;

sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish hamda ularni kompleks qayta ishlash;

chorvachilikni rivojlantirish;

yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va yerlar unumdorligini oshirish;

qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish muammolarini hal etish bo'yicha Kengashlar tuziladi.

Kengashlar to'g'risidagi nizomlar Qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagilar Kengashlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– tegishli tarmoqlarni isloh qilish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqish;

– qishloq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini, ular samaradorligini oshirish yo'nalishlari va yo'llarini belgilash;

– har bir mintaqaning iqlim, ob-havo sharoitlarini va xususiyatlarini hisobga olgan holda ekinlarni kelgusida va har bir qishloq xo'jaligi -yilida

oqilona joylashtirish bo'yicha aniq agrotexnologiya tavsiyalarini ishlab chiqish;

– qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligida, shuningdek naslchilik ishlarida ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

– zamonaviy, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Kengashlarning tarkibiga, egallab turgan lavozimlari va ilmiy unvonlaridan qat'i nazar, fan va amaliyotning tegishli sohalarida obro'si e'tirof etilgan yetakchi mutaxassislar va olimlar jamoatchilik asosida kiradilar. Kengashlar a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Vazirlik hay'ati tomonidan tasdiqlanadi.

Kengashlarning raislari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati a'zolari hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Kengashlarning barcha tavsiyalari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati majlislarida muhokama qilinadi, uning qarorlarining bajarilishi majburiydir.

Kengashlarning ishchi organlari funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tegishli boshqarmalari va bo'limlariga yuklanadi.

Vazirlik faoliyatini tashkil etish:

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan vazir boshchilik qiladi.

Vazirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan besh nafar o'rinbosarlari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

Vazirning suv xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi o'rinbosari ayni vaqtda Suv xo'jaligi bosh boshqarmasining boshlig'i hisoblanadi.

O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining bosh direktori lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosari hisoblanadi.

O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosari hisoblanadi.

Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosarlari ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Vazir:

Vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Vazirlikka yuklangan vazifalar va majburiyatlar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

vazir o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini belgilangan tartibda tasdiqlaydi va zarurat bo'lganda xodimlarning shtatda belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Vazirlik markaziy apparatining va o'ziga qarashli budjet tashkilotlarining tasdiqlangan tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;

Vazirlik markaziy apparati xodimlarini, uning hududiy organlari rahbarlarini, shuningdek tasarrufidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolari bo'yicha Kengashlar to'g'risidagi nizomlarni, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar) va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari to'g'risidagi nizomlarni, shuningdek tasarrufidagi budjet tashkilotlari to'g'risidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlaydi;

Vazirlikning, uning hududiy organlarining, tasarrufidagi tashkilotlarning xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalar chiqaradi, ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

hududiy organlar va tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari buzilgan holda qabul qilingan qarorlarni (ko'rsatmalarni) bekor qiladi;

qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlikda Vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini muammolarini hal etish Kengashlari raislari, agrosanoat kompleksi tizimining ayrim bo'linmalari, vazirliklari va idoralari rahbarlaridan, shuningdek Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Vazirning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Vazirlik faoliyatining qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlariga joriy etish, agrar

sektorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek seleksiya, urug'chilik, naslchilik ishlari, veterinariya, o'simliklar karantini sohasida davlat siyosatini olib borish hamda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning va suv iste'molining bozor prinsiplarini joriy etish, shuningdek ilgaridan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Vazirlik rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Vazirlik vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega. Hay'at majlisiga Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda rais paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin. Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari,

Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari Vazirlikning hududiy organlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga hamda Vazirlikka bo'ysunadilar va hisob beradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari rahbarlari viloyatlar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari tuman hokimlari taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri hamda viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari boshliqlari lavozimga Vazir tomonidan tanlov asosida tayinlanadi.

Tanlovni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik va uning hududiy organlari ekspert va maslahat organlari tashkil etishga haqlidir, ular to'g'risidagi nizomlar tegishli ravishda Vazir yoki hududiy organ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Budjetdan ajratiladigan mablag'lar va korxonalarning xo'jalik hisobidagi faoliyatidan olinadigan daromadlar Qishloq va suv xo'jaligi vazirligini va uning bo'linmalarini mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligida belgilangan tartibda Ijtimoiy rivojlantirish va rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etiladi, Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ko'rsatilgan, Vazirlik tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning, shu jumladan tuzilgan shartnomalar asosida shirkat xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi kooperativlari)ning xo'jalik faoliyatidan (ixtiyoriy tartibda) ajratiladigan mablag'lar Jamg'armaning manbalari hisoblanadi.

Jamg'arma mablag'lari ilmiy-qidiruv, ma'rifiy, bosmaxona va noshirlik ishlariga yo'naltiriladi. Vazirlikning markaziy apparati va hududiy bo'linmalari ta'minotini moliyalashtirish ham Jamg'arma hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy rivojlantirish va rag'batlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom Vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatiladi.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini boshqarish

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish o'z ichiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni yaxshi yo'lga qo'yish, ishlab chiqarishning moddiy texnika bazasini mustahkamlash va boshqa faoliyat turlarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» 2003-yil 24-martdagi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2003-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilingan. Ta'kidlash joizki, ushbu qonunosti hujjatlari yillar davomida takomillashib, bozor iqtisodiyoti va zamon talablari asosida huquqiy mustahkamlanib bormoqda. Darhaqiqat, mazkur qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi xizmat ko'rsatuvchi, tayyorlov hamda qayta ishlash korxonalari va tashkilotlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan o'zaro munosabatlariga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan faoliyati muvofiqlashtiriladigan tashkilotlar va korxonalar ro'yxati quyidagicha: 1. O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi; 2. G'o'za urug'chiligi respublika markazi; 3. «O'zsoovetta'minotxizmat» respublika birlashmasi; 4. «O'zbek qorako'li» kompaniyasi; 5. «Suvmax-susta'mirqurilish» uyushmasi; 6. «O'zsuvxorijiyqurilish» respublika tashqi iqtisodiy korxonasi; 7. «O'zmaxsussuvdrenaj» uyushmasi; 8. «O'zsuvloyiha» uyushmasi; 9. «O'zirta'mirqurilish» uyushmasi; 10. Suv xo'jaligi sanoat korxonalari uyushmasi; 11. SANIIRI ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi; 12. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab

chiqarish markazi; 13. Veterinariya bosh davlat boshqarmasi va uning bo'linmalari; 14. «O'zsuvta'mirfoydalanish» respublika birlashmasi; 15. O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi va uning bo'linmalari; 16. Chorvachilikda naslchilik ishlari bosh davlat inspeksiyasi; 17. «O'zdavtexnazorat» mashina va asbob-uskunalarining texnik holatini nazorat qilish bosh davlat inspeksiyasi; 18. «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi; 19. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi; 20. Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'ini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish davlat markazi («O'zdavurug'nazoratmarkaz»); 21. Davlatlararo muvofiqlashtirish suv xo'jaligi komissiyasining ilmiy-axborot markazi; 22. Irrigatsiya va drenaj milliy qo'mitasi; 23. Markaziy texnologiya va dispetcherlik xizmati; 24. Toshkent davlat agrar universiteti; 25. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti; 26. Samarqand qishloq xo'jaligi instituti; 27. Andijon qishloq xo'jaligi instituti; 28. Suv xo'jaligining foydalanish va boshqa tashkilotlari; 29. Respublika o'simliklarni himoya qilish va agrokimiyo markazi; 30. «Pilla» hududiy birlashmalari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari nimalardan iborat.

2. Qishloq va suv xo'jaligi sohasida boshqaruvni amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimi va tuzilishi haqida so'zlab bering.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini boshqarish haqida ma'lumot bering.

4. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati qanday organlar tomonidan amalga oshiriladi?

5. O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatiga rahbarlikni qaysi organ amalga oshiradi?

6. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy subyekti haqida so'zlab bering.

**8-BO‘LIM. IJTIMOIIY-MADANIY SOHANI
MA‘MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

**26-mavzu. TA‘LIM, FAN VA SOG‘LIQNI SAQLASH
SOHALARINI BOSHQARISH**

**1. Ta‘lim sohasini boshqarish tizimi, huquqiy maqomi
va asosiy vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi 1997 -yil 29- avgust qonuni¹, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat ta‘lim standaptlapini ishlab chiqish va jopiy etish to‘g‘risida»gi 1998-yil 5-yanvar qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi hamda «O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1998-yil 13-may qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2001-yil 16-avgust qarori³, shuningdek, boshqa ta‘lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta‘lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta‘lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. –1997. – №9. – 225-м.

² Ushbu manba. –№11–12. – 295-м.

³ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами.–Т.,2001. – №15–16.–104-м.

–umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining majburiyligi;

–o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishini: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

–ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

–davlatda ta‘lim olishning hamma uchun ochiqligi;

–ta‘lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

–bilimli bo‘lishni va iste‘dodni rag‘batlantirish;

–ta‘lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Har kimning jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e‘tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat‘i nazar, bilim olishda teng huquqlari kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

– davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish;

– ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta‘lim olishni tashkil etish;

– ta‘lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek, ta‘lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;

– barcha turdagi ta‘lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo‘lishi;

– oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o‘tgan ta‘lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta‘minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Tegishli ma‘lumotga, kasb tayyorgarligi va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o‘quv yurtlariga ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta‘lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida belgilangan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmui hamda o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);

- umumiy o'rta ta'lim (I – IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslash-tirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limning navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga mo'yilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) maxsus, o'quv kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarda (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada o'qitilishi va mustaqil ta'lim olishi tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy jihatdan, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat

tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibda imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasasida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmi va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish bo'yicha ishlash huquqini beradi.

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonunchilik hujjatlariga va normativ hujjatlariga muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haq to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalash-tirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga

yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik, tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bolalar va o'smirlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim sohasini boshqarish organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimiga kiruvchi (Oliy ta'lim muassasalari), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga bo'ysunuvchi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (O'MKHTM) va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1990 -yil 7- yanvarda Prezident farmoni bilan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kadrlarni sifatli o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 20-iyul 341-sonli qarori bilan vazirlikning nizomi tasdiqlandi va mazkur Qarorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 2-oktabrdagi 207-sonli qaroriga muvofiq o'zgartishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, vazirlik Nizomiga amal qiladi.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Oliy Kengash Rayosatining 1990 -yil 27-yanvar farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 1990-yil 27- yanvar qarori bilan tashkil etilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini – maktabgacha va o'rta umumiy ta'limni to'la ko'lamli rivojlantirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 2004–2009 -yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida bir nechta qarorlar qabul qildi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 5-avgust qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Nizomi tasdiqlangan. Bundan tashqari mazkur Qarorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-avgust va 2006-yil 2-oktabr qarorlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, shuningdek vazirlik Nizomiga amal qiladi.

Vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi bo'limlari hamda idoraviy mansub boshqa muassasalar, korxonalar va tashkilotlar kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi bo'limlari ikki tomonlama bo'ysunishda bo'ladilar va Vazirlikka hamda tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga hisob beradilar.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarining ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumotlar to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
- ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasalaridan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqlari doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangicha ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;
- o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;
- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
- o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;
- ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonunchilik hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqi va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasiga, maktabgacha, umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

Ta'lim oluvchilarni o'qitish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishga jalb etish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ta'lim oluvchilarning vazifalari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, axloq va odob qoidalariga, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib-qoidalariga rioya etish, o'z bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasb mahoratlarini muntazam ravishda oshirib borishdan iboratdir. Ta'lim oluvchilarning boshqa huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining qonunlari, ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomlar hamda ularning ustavlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida»gi 1998-yil 24-fevral qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi 2004-yil 20-iyul qarori¹ hamda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi idoraviy metrologik nazorat xizmatini tashkil etish to'g'risida»gi 2006 -yil 14-dekabr qarori. Ushbu qarorlar asosida Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish, ularning faoliyatini yo'lga kuyish va muvofiqlashtirish, ularda barkamol, chuqur bilimga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tashkil etilib, takomillashtirildi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2004. – №29. – 333-м.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari Markaz rahbari lavozimi joriy etilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari tashkil etilgan.

O'rta maxsus va kasbga yo'naltirilgan hunar-texnika ta'limining, faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarining hamda ular negizida tashkil qilinayotgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyatiga tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv dasturlarini unifikatsiyalash, pedagog kadrlar tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi zimmasiga yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to'g'risida»gi 1994-yil 14-may qarori bilan tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining tarkibi to'g'risida» 2003-yil 30-oktabrdagi qarori bilan unga bir nechta o'zgartirishlar kiritilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 24-iyun qaroriga asosan o'zgartirishlar kiritildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan qarorlar asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat test markazi tarkibida Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasini tashkil etish to'g'risida»gi 1998-yil 11-mart qaroriga ham bir necha o'zgartirishlar kiritildi.

Yuqorida ko'rsatilgan qarorlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi davlat boshqaruv organi hisoblanadi hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. U o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek Davlat test markazi to'g'risidagi nizomga amal qiladi.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

respublika ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligi xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

abituriyentlar, o'quvchilar, talabalar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlariga va davlat talablariga muvofiqligini tahlil qilish;

qobiliyatli yoshlarni izlash va tanlash tizimini takomillashtirish;

murakkablik darajasi ta'lim dasturlariga muvofiq bo'lgan test materiallarini ishlab chiqish hamda ular asosida ta'lim muassasalariga kirayotgan abituriyentlarni test sinovlaridan o'tkazish;

test sinovi natijalarining xolisonaligi, ishonchliligi va adolatligini ta'minlash;

ta'lim va o'qitish sifatini, test baholari va reyting ballarining xolisonaligini tekshirishni tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimida band bo'lgan pedagoglar, professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish;

idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash;

pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ta'lim tizimi rahbar organlari va mahalliy hokimliklar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi funksiyalarini bajarish;

Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi sifatida nodavlat ta'lim muassasalariga litsenziyalarni rasmiylashtirish;

pedagoglar, professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar kadrlarni, shuningdek ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish uchun talablar va mezonlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni e'tirof etish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash) tartibi amalga oshirilishini tashkil etish va ta'minlash;

davlat ta'lim standartlari va davlat talablarini, shuningdek ular asosida ta'limning barcha turlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini ularni belgilangan tartibda tasdiqlash uchun ekspertizadan o'tkazish;

kadrlar tayyorlash sifati monitoringi tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish va boshqalar.

Fan sohasini boshqarish. O'zbekiston – ilm-fan va madaniyat qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan biridir. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to'qimachilik, me'morchilik, ma'danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. O'zbekiston olimlari otabobolari yaratib ketgan ilmiy merosni o'rgandilar va boyitdilar. O'zbekistonda hozir ham yuqorida sanab o'tilgan sohalar rivojlantirilmoqda, ularning qatoriga yangilari qo'shilmoqda.

O'zbekiston olimlari o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bo'limlari, Buxoroda ilmiy markazi, Urganchda Xorazm Ma'mun akademiyasi ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlar, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyasi tizimida, shuningdek, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida tayyorlanadi.

Ilmiy tadqiqot muassasalari tarmog'i va ilmiy kadrlar sonining jadal o'sishi, olimlar oldiga yangi-yangi vazifalarning qo'yilishi ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish ishlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Mamlakatimizda 1932-yilda Fan qo'mitasi ta'sis etildi. 1940-yilda Fan qo'mitasi negizida Ittifoq Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali O'zFan tuzildi. Shu davrda O'zFan O'zbekistonning ilmiy tadqiqot markaziga aylandi. 1943 -yilda O'zFan asosida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilindi. O'sha paytda uning tarkibida o'nta ilmiy tadqiqot instituti faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, ilmiy tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish, ilmiy jamoalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish, ularning sa'y-harakatlarini real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilish, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb masalalarini hal etishni, ularning ishlab

chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanib bordi.

O'zbekiston Respublikasida fan va texnika sohalarini boshqarish bo'yicha mustaqilligimizning ilk davrlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan 1992-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat komiteti¹ (O'zbekiston Respublika FTDK) keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2002-yil 20-fevral farmoni² asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi hamda uning ijroiya organi sifatida Fan va texnologiyalar markazi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002-yil 4-mart qarori, shundan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006-yil 7-avgust qaroriga³ asosan Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etilib, nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida fanni rivojlantirishda avvalo Fanlar akademiyasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muassasaga tabiiy, texnikaga oid va ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy tekshirish ishlari olib borish vazifasi yuklatilgan. Fanlar akademiyasi o'ziga bo'ysungan ilmiy tadqiqot muassasalariga va institutlariga rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2004 -yil 7- sentabr qarori⁴ qabul qilindi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanishga sharoit yaratish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va

¹ Ўзбекистон Респбликаси Олий Кенгашининг ахборотномаси.—1992. — №4. —199-м.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. —2002. — №3. — 48-м.

³ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами.— Т.,2006. — №31—32.—311-м.

⁴ О'sha manba. —2004. — №36. — 401-м.

texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish vazifalari, zamonaviy fan yutuqlari hisobga olingan holda Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan birga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

vazirliklar va idoralarning ilmiy tadqiqot institutlari va muassasalari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, Fanlar akademiyasining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

ilmiy-texnika dasturlari amalga oshirilishini, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari iqtisod, ishlab chiqarish, ta'limning turli sohalarida qo'llanilishini samarali monitoring qilishni tashkil etish;

ilmiy-texnika sohasida o'zaro foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakat ilm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarining xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlarida qatnashishi uchun ko'maklashish.

Qo'mita raisining o'rinbosari — ijro etuvchi apparati rahbari maqomi, moddiy va maishiy ta'minot sharoitlari bo'yicha vazir o'rinbosariga tenglashtirilgan.

Qo'mita tomonidan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa vazirlik va idoralarning ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari tomonidan fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan ilmiy-texnika dasturlari asosida olib boriladi;

davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari fondlar, homiylardan tushgan mablag'lar va xo'jalik subyektlari bilan ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomalardan tushgan mablag'lar moliyalash manbalari hisoblanadi;

davlat budjeti mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, yetakchi tadqiqot markazlariga, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalariga ega bo'lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga ajratiladi;

Innovatsiya, fan-texnika faoliyatini moliyalashtirish jamg'armasini shakllantirish uchun mablag' vazirliklar, idoralar, xo'jalik hisobidagi tuzilmalardan kelib tushadigan mablag'lar, xalqaro grantlar, tijorat banklari va xorijiy moliya institutlarining maqsadli imtiyozli kreditlari bilan bir qatorda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan davlat budjetidan ajratiladi;

Fanlar akademiyasi vazirliklar va idoralar tadqiqot va innovatsiya ishlari uchun ajratiladigan budjet mablag'larini ilmiy tadqiqot, ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek, amalga oshiriladigan ilmiy-texnika loyihalariga ilmiy-texnika loyihalarini ekspertizalari natijalariga qarab tanlov asosida mustaqil taqsimlaydi.

Har yili stajor-tadqiqotchi-izlanuvchilar instituti va katta ilmiy xodim-institutiga qabul qilinadigan shaxslar soni Moliya vazirligi tomonidan maxsus ajratiladigan mablag'lar doirasida o'rnatilgan tartibda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar tomonidan aniqlanadi.

Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda ikki oy muddatda ilmiy tadqiqot, ta'lim muassasalari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlariga ega vazirliklar va idoralarda bajariladigan Fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining ilmiy-texnika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni ekspertiza qilishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida *Oliy attestatsiya komissiyasi* ham (O'zbekiston Respublikasi OAK) tashkil qilingan¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlar Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalari, vazirliklari, idoralar, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va muassasalar kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, ular uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1992-yil 31- martda tashkil etilgan. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etish masalalari haqida»gi 1992-yil 9-sentabr qarori qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi fan, texnika, ta'lim va madaniyat yo'nalishlari bo'yicha ilmiy, ilmiy-pedagog xodimlarga ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar beruvchi davlat organi hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idora huquqlaridan foydalanadi va respublikada ilmiy, ilmiy-pedagog xodimlarni davlat yo'li bilan attestatsiyadan o'tkazishning ahvoli va tizimini takomillashtirish uchun mas'uldir.

OAKning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishga rahbarlik qilish hamda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga qo'yiladigan talablarning yagonaligini ta'minlash;

ixtisoslashtirilgan kengashlar ishi va dissertatsiya ishlari sifatini, ularning ilmiy va amaliy qiymatini nazorat qilib borish;

ilmiy unvonlar va ilmiy darajalarga qo'yiladigan malaka talablarini xalqaro andazalarga muvofiq holga keltirish.

OAK raisi, uning o'rinbosarlari, bosh ilmiy kotib va OAK ilmiy Kengashi boshqa a'zolaridan iborat Rayosat OAKning rahbarlik qiluvchi ijro etuvchi organi hisoblanadi. Rayosati a'zolari soni va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

OAK Rayosati ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil qilish tartibini ishlab chiqadi, ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil etish uchun ruxsat beradi, ularning shaxsiy tarkibini tasdiqlaydi, ularga tegishli ixtisoslar bo'yicha dissertatsiya ishlarini ko'rib chiqish huquqini beradi; ekspertlar kengashini tuzish haqida qarorlar kiritadi va o'z ishida ularga tayanadi, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish haqida qarorlar qabul qiladi. ixtisoslashtirilgan kengashlar va ilmiy unvonlar beruvchi kengashlar raislarining ishi to'g'risidagi hisobotlarni, davlat inspeksiyasi bo'limi axborotlarini vaqti-vaqti bilan eshitib turadi, OAK plenumi ko'rib chiqishi uchun kiritilgan hujjatlar loyihalarini muhokama qiladi, OAK ixtiyoridagi boshqa masalalarni hal etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. –1992. – №6. – 245-м.

OAK faoliyatiga oid kundalik masalalarni ko'rib chiqish va hal etish, OAK bo'limlari, bo'linmalari ishiga tezkor rahbarlik qilish va ularni nazorat qilib borish, qabul qilingan qarorlarning ijrosini tekshirish, OAK apparati xodimlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish uchun OAK raisi, uning muovnlari, bosh ilmiy kotib hamda davlat bosh inspektoridan iborat OAK hay'ati tuziladi.

Ilmiy kengash Rayosati, hay'at ishiga OAK raisi rahbarlik qiladi.

Ilmiy kengash, Rayosat, uning hay'ati qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlis ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Taqdim etilgan dissertatsiyalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqish uchun OAK fan tarmoqlari bo'yicha xalq xo'jaligi va madaniyatning yetakchi mutaxassis olimlaridan iborat ekspertlar kengashlari tuzadi. Ekspertlar kengashlarining shaxsiy tarkibi oliy o'quv yurtlari ilmiy tadqiqot institutlari va muassasalarining, fanlar akademiyalari, shuningdek, manfaatdor vazirliklar va idoralarning tavsiyalari hisobga olingan holda belgilanadi va keyinchalik kengashning kamida uchdan bir qismini yangilash sharti bilan, OAK Rayosati tomonidan 3 yil muddatga tasdiqlanadi.

OAK apparati tuzilmasi va shtatdagi xodimlari soni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. OAK apparatining xodimlari ro'yxati, shuningdek, bo'limlar, ekspertlar kengashlari to'g'risidagi nizomlar OAK Rayosati tomonidan tasdiqlanadi. OAKning ishdan ozod etilmagan a'zolarining, ekspertlar kengashlarining, shuningdek, opponentlar va taqrizchilarning, jalb etilgan mutaxassislarning mehnatiga belgilangan tartibda haq to'lanadi.

2. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish tizimi va asosiy vazifalari

Sog'liqni saqlash sohasini boshqaruv organlari O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi 1996-yil 29-avgust qonuni¹ hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respubli-

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1996. – № 9. – 128-м.

kasi Sog'liqni saqlash vazirligining qaror va ko'rsatmalariga asosan o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida»gi 1998-yil 10- noyabr farmonini bajarish yuzasidan hamda aholi sog'lig'i ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Vazirlik faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi 1999-yil 14- yanvar qarori qabul qilindi.

Davlat sog'liqni saqlash *tizimiga* O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog'liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo'linmalari kiradi. Davlat sog'liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo'lgan va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo'ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, tibbiy dori-darmonlar va tibbiyot texnikasi ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar, ilmiy tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika va dorixona muassasalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash sohasini boshqarish Sog'liqni saqlash vazirligiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi organlarining *asosiy vazifalari* quyidagilar hisoblanadi:

sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

aholiga bepul tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasi va sifatini ta'minlash;

boshqarishning barcha darajalarida aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil etish va mustahkamlash;

sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan davolash-profilaktika muassasalarining bosqichma-bosqich pulli xizmatlar ko'rsatishga o'tkazilishini ta'minlash;

jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda barpo etish.

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;

fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi; aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;

profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;

tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

3. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini boshqarishda ichki ishlar idoralari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash

Jamiyatning alohida sohalarida amalga oshiriladigan davlat boshqaruvining xususiyatlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ijtimoiy-madaniy sohalarini boshqarish ta'lim, fan, sog'liqni saqlashni va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda yosh avlodining ta'lim-tarbiyasiga, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Barkamol avlod -yili» Davlat dasturini hayotga tatbiq etishga 8 trln. so'm hamda 165 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' sarflangani, mamlakat yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizi ta'limga yo'naltirilgani yoshlar tarbiyasi va taqdiri davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligining yorqin isbotidir¹.

O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida» gi 2010-yil 29-sentabr qonunining maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatni axborot bilan ta'minlashda:

– ichki ishlar idoralari — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar to'g'risida, shuningdek voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud ularga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan ota-onalar va o'zga shaxslar haqida;

–sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalarini — muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishi oqibatida tibbiy tekshiruvga, kuzatuvga yoki davolanishga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risida;

ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalarini — ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini yoki boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etgan yoxud ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotgan hamda davlatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risida zudlik bilan xabardor qiladi.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, bundan mazkur muassasalarda ta'lim faoliyati yoki ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbir doirasida bo'lishi mustasno, voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishiga, chekishiga yo'l qo'ymaslik, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga, joylarda tungi vaqtda ulardan birining kuzatuvvisiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, ichki ishlar idoralari, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va

¹ Халқ сўзи. – 2011. – 19 фев.

huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga kiradi.

Ichki ishlar idoralari. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini Ichki ishlar idoralari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Ichki ishlar idoralarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan iboratdir. Ichki ishlar idoralarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi.

Ichki ishlar idoralarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalari yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqadi;

huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llash to'g'risida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi;

voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari faktlari, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlar to'g'risida tegishli davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ichki ishlar idoralariga olib boradi, bu haqda zudlik bilan bayonnoma tuzadi hamda voyaga yetmaganlar keltirilganligi haqida ularning ota-onasini yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni xabardor qiladi;

voyaga yetmaganlarning yashash, o'qish (ish) joyidagi ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to'garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o'rganadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'adi va umumlashtiradi;

yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi.

Ichki ishlar idoralarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga

yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining, shuningdek voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa muassasalarning faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi hamda ularning hisobini yuritadi, ularning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olishiga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

voyaga yetmaganlarga o'z hayot yo'lini va kasb-hunar tanlashida ularning qobiliyati, qiziqishi, mo'yilligi hamda sog'lig'ining holatiga muvofiq psixologik yordam ko'rsatadi;

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydigan, ularni kompleks tekshiruvdan o'tkazadigan hamda ularning kelgusidagi ta'minoti, tarbiyasi va ta'limi shakllarini belgilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tuzadi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil etilishini hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etishni ta'minlaydi, voyaga yetmaganlarning bandligi va dam olishini tashkil etishda qatnashadi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda boshqa ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni yoxud o'qishida muammolari bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik yordam ko'rsatadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi, ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berishga doir chora-tadbirlar ko'radi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil qiladi hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni aniqlaydi hamda ushbu oilalarga o'z bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasida yordam ko'rsatadi;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlarni ko'radi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarning ota-onasi vafot etgan, ularning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ular ota-onalarining ota-onalik huquqi cheklangan, ota-onasi muomalaga layoqatsiz deb topilgan, ota-onasi kasal bo'lgan, ota-onasi uzoq muddat bo'lmagan, ota-onasi bolalarini tarbiyalashdan yoki ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlagan hollarda, shu jumladan ota-onasi o'z bolalarini ta'lim muassasalaridan, sog'liqni saqlash muassasalaridan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va boshqa muassasalardan olishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek bolalar ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash, ularga ta'lim berish, kelgusida ularni joylashtirish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun qabul qiladi;

kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarning voyaga yetmagan bolalarini, faqat otasi yoki onasi bor bo'lgan voyaga yetmaganlarni ushbu oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir -yildan ortiq bo'lmagan muddatga ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun qabul qiladi;

mazkur muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi.

Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rmini bosuvchi shaxslar o'rtasida sanitariya-gigiyena bilimlarini keng yoyish, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni tashkil etadi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlik hamda ularning xulq-atvoridagi shu bilan bog'liq nuqsonlarning profilaktikasi bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalishi to'g'risida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarni xabardor qiladi;

uch yoshgacha bo'lgan adashib qolgan, tashlab ketilgan va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa bolalarni kecha-kunduz qabul qilish hamda parvarishlashni amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalarga, shuningdek voyaga yetmaganlarning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga maslahat yordamini ko'rsatadi;

alkogol ta'sirida mast holatda bo'lgan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan voyaga yetmaganlarni kecha-kunduz qabul qilishni amalga oshiradi va ularga tibbiy yordam ko'rsatadi;

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmaganlarga ixtisoslashtirilgan tashxis hamda davolash-tiklash (reabilitatsiya) yordamini ko'rsatadi;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga yuborilayotgan voyaga yetmaganlarning sog'lig'i to'g'risida belgilangan tartibda xulosalar tayyorlaydi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishni tashkil etadi;

jinsiy yo'l bilan yuqtiriladigan kasalliklarning manbalarini aniqlash, ushbu kasalliklarga chalingan voyaga yetmaganlarni tekshirish va davolashni tashkil etadi.

Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilishini tashkil etish. Ichki ishlar idoralari ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini uning shaxsi va yon-atrofidagilarning o'ziga xos xususiyatlarini, sodir etilgan huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning xususiyatini, oilaviy tarbiya sharoitlarini hisobga olgan holda olib boradi. Ushbu holatlar voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, boshqa shaxslar bilan profilaktika suhbatlari o'tkazish, voyaga yetmaganni uning yashash, o'qish (ish) joyiga borib ko'rish, tavsiflovchi materiallarni o'rganish davomida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda «Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risi»dagi qonunida ham ichki ishlar idoralari bilan o'zaro hamkorlikni ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi maxsus davolash-oldini olish muassasalarida surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash belgilab qo'yilgan.

Jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan, yoxud aholining osoyishtaligi, salomatligi va ma'naviyatiga xavf tug'dirayotgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarga nisbatan majburiy davolash qo'llanadi.

Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemor deb topish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tegishli davolash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs majburiy davolashga jo'natish uchun tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan hollarda, u ichki ishlar idoralarining ko'magida o'n kun muddat ichida narkologiya muassasasida majburiy tarzda tekshirilishi kerak.

Mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallar tibbiy xulosa bo'lgan taqdirda ichki ishlar idoralari tomonidan ularning o'z tashabbusiga ko'ra, yoki bemorning oila a'zolari yoxud qarindoshlarining, mehnat jamoalarining, sog'liqni saqlash muassasalarining iltimosnomalari asosida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolashga jo'natish masalasi yigirma kun ichida bemor yashab turgan joydagi yoki narkologiya muassasasi joylashgan yerdagi sud tomonidan bemor ishtirokida hal etiladi.

Bemor uzrsiz sabab bilan kelmasa, u ichki ishlar idoralari orqali majburiy tarzda olib kelinadi.

Sudning majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori haqida ustidan qaror chiqarilgan shaxs yoxud uning himoyachisi shikoyat qilishi yoki prokuror tomonidan kassatsiya tartibida yetti kun ichida yuqori turuvchi sudga norozilik bildirilishi mumkin.

Shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan kassatsiya tartibida norozilik bildirilishi sud qarorining ijrosini to'xtatib turadi.

Sudning shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori ichki ishlar idoralari tomonidan bu qaror qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab kechi bilan o'n kun ichida ijro etiladi.

Majburiy davolash muddati to'g'risidagi masala davolash muassasasi tomonidan komissiyadan o'tkazish tartibida, bemor davolashga joylashtirilgach besh kun ichida hal etiladi.

Bemor davolanayotgan davolash muassasasining komissiyasi qabul qilgan qaror asosida bemorni majburiy davolash to'xtatiladi.

Shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sudning qarori uni ishdan bo'shash nafaqasi to'lamay ishdan bo'shatishga asos bo'ladi.

Majburiy davolanishga yuborilgan shaxslar avvalgi yashash joyidagi turar joy maydonidan foydalanish huquqini saqlab qoladilar.

Davolash muassasalaridan majburiy davolashdan qaytgan shaxslarni ishga joylashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ta'lim sohasini boshqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Ta'lim sohasini boshqarish organlari tizimi va huquqiy holati qanday?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tizimi va asosiy vazifalari haqida ma'lumot bering.
4. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish haqida so'zlab bering.
5. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish organlari va huquqiy holati haqida tushuntirib bering.
6. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini boshqarishda ichki ishlar idoralari bilan o'zaro hamkorlik qanday amalga oshiriladi ?

27-mavzu. MEHNAT VA AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH, MADANIYAT VA SPORT SOHALARINI BOSHQARISH

1. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining huquqiy maqomi va vazifalari

Mehnatni rag'batlantirish va manfaatdorlikni oshirish sohasida boshqaruvni tashkil etish darajasini o'stirish va takomillashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash, erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashtirish sharoitida ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, shu asosda aholi farovonligining barqaror

yuksalib borishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 2001-yil 13-fevral farmoni qabul qilindi. Ushbu vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligi negizida tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligining tegishli hududiy organlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tashkil qilindi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy bosh boshqarmalari o'z faoliyatida tegishli hokimliklarga hamda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga hisobot beradilar.

farmon asosida tumanlar va shaharlarda Bandlikka ko'maklashish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyat ko'rsatmoqda;

Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari o'z faoliyatida tegishli hokimliklar hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy bosh boshqarmalariga hisobot beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan uning vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, korxona va muassasalar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan ijro etish uchun majburiy hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligining majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish hududiy bosh boshqarmalari rahbarlari viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan, tumanlar (shaharlar) bo'limlari rahbarlari esa — tuman va shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga vazirning uch nafar o'rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari hamda 9 kishidan iborat hay'at bo'lishiga ruxsat etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son farmoni ijrosini ta'minlash hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tuzilmasini yanada maqbullashtirish, ularning aholi bandligini ta'minlash, yolg'iz qariyalar, nogironlar va aholining boshqa zaif qatlamlarini bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan javobgarligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2009-yil 30-dekabr qarori qabul qilindi. Unga asosan quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari etib belgilandi:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli ustuvorliklarini hisobga olgan holda mehnat, aholining bandligi va ijtimoiy muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mehnat bozorini rivojlantirish va boshqarish, aholining bandligini, shu jumladan xorijda ishlashini ta'minlash, demografik omillar va iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ish bilan ta'minlashning ilg'or shakllarini joriy etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish;

band bo'lmagan aholi va ishsizlarga, birinchi navbatda yoshlar, ayollar, imkoniyati cheklangan shaxslarga professional qayta tayyorlash va ish bilan ta'minlash, shuningdek, ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish;

yolg'iz qariyalar, nogironlar, kam ta'minlangan oilalar va aholining boshqa zaif toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha amaliy va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash;

mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni, mehnat munosabatlari, mehnatni moddiy rag'batlantirish va muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir bir nechta qonunlar ham mavjud va bularga:

O'zbekiston Respublikasining «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida»gi 2008-yil 10-sentabr qonuni, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi 1998-yil 1-may qonuni, «Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida»gi 2001-yil 11-may, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi 1998-yil 1-may qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ish bilan ta'minlanish – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, erkin mehnat orqali ularga daromad keltiradigan faoliyatdir.

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanish mutlaq huquqi fuqarolarga tegishlidir.

Majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmashligi ularni javobgarlikka tortishga asos bo'la olmaydi.

Quyidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan kasanachilik bilan shug'ullanayotgan, shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

betobligi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to'xtatib qo'yilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo'lmaganda xodimning ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

Qurolli Kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar idoralari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan, shuningdek muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;

qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.

Ishsiz deb e'tirof etish:

o'n olti yoshdan boshlab to' pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi.

Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror mahalliy mehnat organi tomonidan ular ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n birinchi kundan kechiktirmay qabul qilinadi.

Quyidagilar ishsiz deb e'tirof etilmaydi:

mehnat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida taklif etilgan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan shaxslar;

ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida maqbul keladigan ishni qidirish maqsadida uzrsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan shaxslar.

Taklif etilgan ishdan bosh tortgan kundan yoki maqbul keladigan ishni qidirish maqsadida uzrsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan kundan boshlab o'ttiz kalendar kun o'tganidan keyingina shaxs ish qidirayotgan sifatida qayta ro'yxatdan o'tishga haqli bo'ladi.

Fuqarolarni ishsiz sifatida ro'yxatga olish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ish bilan ta'minlashda davlat boshqaruv organlari quyidagi vakolatlarga ega: mehnat bozorini barpo etish va rivojlantirishni ta'minlovchi tuzilmaviy, moliyaviy, kredit, investitsiya va soliq siyosatini amalga oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi;

iqtisodiyot tuzilishini tahliliy tadqiq etadi, mehnat bozori holati hamda aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi ahvolning istiqbolini belgilaydi, bu sohada davlat statistika hisobi va hisobotini yuritadi;

aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

fuqarolarning ish bilan ta'minlanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan tegishli ravishda kafolatlanishini, shuningdek himoya qilinishini ta'minlaydi;

qo'shimcha ish joylari yaratilishiga, mehnat sharoitlari yaxshilashiga ko'maklashadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi:

mehnat bozorini tahlil etadi va istiqbolini belgilaydi hamda aholini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

aholini ish bilan ta'minlash masalalari yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahalliy mehnat organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'laridan ishsiz shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylari yaratish, ish bilan band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish uchun foydalanishning yo'nalishlarini belgilaydi;

aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy mehnat organlari:

fuqarolarga maqbul keladigan ishni tanlashda, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilarga esa zarur xodimlarni tanlashda yordam beradi;

mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolar va ish beruvchilarga ish topish va ishchi kuchi bilan ta'minlanish imkoniyatlari to'g'risida, xodimlarga nisbatan qo'yilayotgan talablar haqida va ish bilan ta'minlashga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar beradi;

ishlamayotgan fuqarolarni kasbga o'rgatish, qayta o'rgatish va malakasini oshirish to'g'risida o'quv yurtlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi;

ishsiz shaxslarni ro'yxatga olishni ta'minlaydi va ularga yordam ko'rsatadi, shu jumladan nafaqalar tayinlash va to'lashni amalga oshiradi;

mehnat bozorining holatiga va mazkur bozorni rivojlantirish istiqbollari baho beradi, uning monitoringini tashkil etadi va o'tkazadi hamda tegishli axborot tarqatilishini ta'minlaydi;

bo'sh ish joylari (vakant lavozimlar) hamda ish qidirib murojaat etayotgan va ishga joylashishga muhtoj fuqarolar hisobini yuritadi;

aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadi;

korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan mo'ljallanayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar hamda amalga oshirilishi natijasida xodimlar ishdan ozod etilishi mumkin bo'lgan boshqa tadbirlar to'g'risida, shuningdek bo'sh ish joylari (vakant lavozimlar) bor-yo'qligi, mehnat xususiyati va sharoitlari to'g'risida axborot oladi;

davlat va nodavlat ta'lim muassasalaridan ularning yo'nalishi va ixtisoslashuvi, bitiruvchilarning kasb-malaka tarkibi va soni to'g'risida axborot oladi;

mehnat organlariga murojaat etgan fuqarolarni kasb tayyorgarligi va malaka darajasiga muvofiq korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularda bo'sh ish joylari (vakant lavozimlar) bo'lgan taqdirda ishga joylashtirish uchun yuboradi;

korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilishga mo'ljallangan eng kam miqdordagi ish joylarini belgilash to'g'risida takliflar ishlab chiqadi va ularni mahalliy davlat hokimiyati organlarining muhokamasiga kiritadi, shuningdek mazkur fuqarolarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yuboradi;

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ishonchnomasi asosida ular nomidan fuqarolarni ishga joylashtirish to'g'risida ularni oldindan (zarurat bo'lgan taqdirda) kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish, yo'lkira, kundalik xarajatlar haqini to'lash sharti bilan shartnomalar tuzadi, shuningdek yangi yashash va ish joyiga ko'chib borish chog'ida tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan yordam puli beradi;

ishsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga belgilangan tartibda ularning o'z xohishiga ko'ra jo'natadi;

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasining mablag'larini belgilangan tartibda tasarruf etadi;

fuqarolarga ishsizlik nafaqasini belgilangan tartibda tayinlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mehnat organlari tomonidan aholiga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, boshqa ish beruvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, shu jumladan mehnat bozori holati to'g'risida axborot berish bepul amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish;

aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining umumiy prinsiplari amalga oshirilishini ta'minlovchi normativ hujjatlar qabul qilish;

aholini ish bilan ta'minlash yuzasidan hududiy tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunning 7-moddasida ko'rsatilgan fuqarolarni (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo'shinlaridan bo'shatilganlarga; nogironlarga va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarga; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarga tortilgan shaxslar) ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash yoki ayrim turdagi ishlarni (kasblarni) ehtiyot tariqasida saqlab turish;

mehnat bozoridagi ahvol barqarorlashuviga ko'maklashuvchi, shu jumladan mehnat shartnomalari ommaviy ravishda bekor qilinishining oldini olishni, mavjud ish joylarini saqlab qolish va yangi ish joylarini yaratishni, haq to'lanadigan vaqtinchalik va jamoat ishlarini tashkil qilishni, ustuvor rivojlanish hududlarini aniqlashni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, shuningdek jamoa kelishuvlari bilan Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunga zid bo'lmagan, fuqarolarning ijtimoiy muhofazalanganligini kuchaytiruvchi maqbul keladigan ish taklif etish, ishsizlarni ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatga olishning boshqa shartlari va tartibi, shu jumladan mahalliy budjet mablag'lari hisobidan ishsizlik nafaqalarini to'lash muddatlarini uzaytirish va miqdorlarini oshirish, jamoat ishlaridagi mehnatga haq to'lash, shuningdek kasbga o'qitish davrida stipendiya to'lash nazarda tutilishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etish to'g'risidagi qarorni olti oygacha muddatga to'xtatib qo'yishi mumkin, bunda ular ana shu kechiktirish tufayli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ko'radigan zararni qisman yoki to'liq qoplaydilar.

2. Madaniyat va sport ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tizimi va asosiy vazifalari

Madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, shuningdek madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida, 2004-yil 24-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida» farmoni qabul qilindi va unga asosan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi tugatilib, ular negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil qilindi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatining asosiy vazifalari hamda yo'nalishlari etib belgilandi:

madaniyat va ommaviy sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, xalqning boy madaniy merosini qayta tiklash, asrlar mobaynida shakllangan yuksak ma'naviyatni, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va uyg'un kamol topgan shaxslarni voyaga yetkazish borasidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

milliy istiqlol g'oyasidan, O'zbekiston xalqining madaniy va ma'naviy-axloqiy an'alaridan kelib chiqqan holda aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini amalga oshirish, odamlarning madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish;

teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at, sirk, xalq amaliy va estrada san'atini yanada rivojlantirish, ularning g'oyaviy-badiiy va ma'naviy saviyasini oshirish, xalq tarixining eng yorqin sahifalarini va uning hozirgi hayotini, mamlakatning erkin demokratik taraqqiyotini yoritib beradigan asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama yordam ko'rsatish;

madaniy-ommaviy va bayram tadbirlarining chuqur g'oyaviy mazmun bilan boyitilishini ta'minlash, respublikaning ijodiy uyushmalari

va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, ijodkor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning o'z talant va iste'dodlarini to'la namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, aholini, birinchi navbatda yoshlar va bolalarni sport bilan shug'ullanish zarurligini anglash ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat ishtiyoqini singdirish, yoshlarni mehnatga va respublika qurolli kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash;

Olimpiya o'yinlarida, jahon va osiyo chempionatlarida, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qiladigan va sportda yuqori natijalarga erisha oladigan yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlash maqsadida olimpiya zaxirasi muassasalarini qo'llab-quvvatlash va zarur shart-sharoitlar yaratish, jumladan, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

xalq o'yinlari, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish;

turar-joylar va mahallalarda madaniy-ma'rifiy faoliyatni, aholini madaniy va jismoniy jihatdan tarbiyalashni tashkil qilishda, fizkultura sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini o'tkazishda davlat va jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan faol hamkorlik qilish va ularga yordam ko'rsatish;

davlatlararo va xalqaro madaniy hamda sport aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, konferensiya, ko'rgazma va sport musobaqalari o'tkazish, madaniyat, san'at va sport sohasiga xorijiy investitsiya va grantlarni jalb etish borasidagi ishlarni tashkil qilish;

madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish muassasalari, obyekt va inshootlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan imkoniyat darajasida to'la va samarali foydalanishni ta'minlash;

madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil qilish, respublika madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish muassasalari, o'quv yurtlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;

professional, xalq va havaskorlik ijodiyotini, ommaviy sport va jismoniy tarbiyani, ommabop madaniy-ma'rifiy va sport dasturlarini keng ko'lamda targ'ib qilish, shuningdek madaniyat va sport sohasida ommabop adabiyotlarni chop etish hamda video va kino materiallar chiqarish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida» 2004-yil 27- sentabrda PF-3491-son farmonini bajarish yuzasidan hamda madaniyat va sport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini oshirish maqsadida 2004-yil 30-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining tuzilmasi, Viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi, tumanlar (shaharlar) madaniyat va sport ishlari bo'limlarining namunaviy tuzilmasi tasdiqlandi.

2005-yil 5-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» qarori qabul qilindi.

Ushbu tasdiqlangan nizomga asosan:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi (keyingi o'rinlarda Vazirlik deb ataladi) madaniyat va sport sohasidagi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

Vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari, tuman (shahar) madaniyat va sport ishlari bo'limlari, «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi, «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi, «O'zbekdavlat sirk» respublika birlashmasi, «O'zbekmuzey» respublika jamg'armasi hamda Vazirlikka qarashli boshqa madaniyat, sport va ta'lim muassasalari kiradi.

Vazirlikning hududiy bo'linmalari ikki tomonlama bo'ysunadilar hamda Vazirlikka va mahalliy davlat hokimiyati tegishli organiga hisob beradilar.

Vazirlikning hududiy bo'linmalari moliya organlari tomonidan belgilangan hajmlar va muddatlarda budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasining ijrosi to'g'risida tegishli moliya organlariga hisobot taqdim etadilar hamda nusxasini Vazirlikka topshiradilar.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari faoliyatini moliyalashtirish davlat budjeti mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari, Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

vazirliklar, idoralar, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning madaniyat va sport sohasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi;

Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha qonun hujjatlariga rioya qilish monitoringini olib boradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

madaniyat va sport sohasida hamkorlik bo'yicha xalqaro loyihalarni ishlab chiqadi, qabul qilingan xalqaro bitimlarning bajarilishini ta'minlaydi;

teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini rivojlantirishni ta'minlaydi, ijodiy jamoalarga xalqimiz tarixining eng yorqin sahifalarini, uning hozirgi hayotini, mustaqil rivojlanish tajribasini aks ettiruvchi asarlar yaratishda har tomonlama yordam beradi;

kadrlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tayyorlash jarayonini tashkil qiladi, kishilarning o'zining umumta'lim va madaniy saviyasini oshirishga intilishini rag'batlantirish, ularni milliy, jahon madaniyati va san'atining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish ishlarini amalga oshiradi;

Vazirlik tizimi kadrlari malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazish, shuningdek xorijda tajriba oltirishini, o'qitishni ta'minlaydi;

muzeylarda milliy mustaqillik g'oyalariga hamohang bo'lgan, o'zbek xalqining boy madaniy merosini, uning insoniyat tarixidagi roli va ahamiyatini, uning rivojlanish bosqichlarini haqqoniy aks ettiruvchi ekspozitsiyalarning tashkil etilishini, shuningdek zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o'rganishni, muzeyshunoslik, muzeylar fondlaridagi eksponatlarining yagona katalogini yuritish bo'yicha umummilliy siyosatning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

respublika aholisini O'zbekiston xalqlari tarixi to'g'risida xabardor qiluvchi chet ellarda saqlanayotgan qadimiy buyumlar, shuningdek mamlakatimiz muzeylarida namoyish qilinayotgan noyob eksponatlar bilan keng tanishtirish vositasida odamlarda umuminsoniy qadriyatlarni, boy milliy madaniy merosni hurmat qilish va e'tirof etish tuyg'usini tarbiyalashga ko'maklashadi;

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha qonun hujjatlarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, qo'riqlash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda qatnashadi;

madaniy meros obyektlarini ta'mirlash, konservatsiya, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha davlat dasturlarining amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

madaniy meros obyektlarini aniqlash, ro'yxatdan o'tkazish, muhofaza qilish, targ'ib etish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi;

madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritadi, ularni tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazishni tashkil qiladi va amalga oshiradi;

madaniy qimmatga ega bo'lgan buyumlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda klassifikatsiyasini aniqlaydi;

madaniy boyliklarning chetga olib chiqib ketilishi, vaqtinchalik olib chiqib ketilishi to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

chetga olib chiqib ketiladigan va chetdan olib kelinadigan, shuningdek vaqtinchalik olib chiqib ketiladigan va vaqtinchalik olib kelinadigan madaniy boyliklarni ro'yxatdan o'tkazadi;

chetga olib chiqib ketiladigan, vaqtinchalik olib chiqib ketiladigan, shuningdek vaqtinchalik olib chiqib ketilganidan keyin qaytarib olib kelingan madaniy boyliklarning ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi;

madaniy boyliklarni chetga olib chiqib ketish va vaqtinchalik olib chiqib ketish huquqiga sertifikatlar beradi;

tutib qolingani yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda musodara qilingan madaniy boyliklarni davlat tegishli organlaridan qabul qilib oladi, ularni ekspertizadan o'tkazadi va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlarning jamoalari va yakkaxon ijrochilarining gastrol-konsert faoliyatini, shu jumladan chet ellardagi gastrol-konsert faoliyatini tashkil qiladi;

respublikada va xorijiy mamlakatlarda professional san'at va havaskorlik san'ati festivallari, ko'rik-tanlovlari, shuningdek ko'rgazmalar o'tkazishni tashkil qiladi;

Estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish kengashi bilan birgalikda respublika madaniyat saroylari, konsert zallari va stadionlarida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy hamda konsert tadbirlarining mavzusi, repertuar rejaları va dasturlarini takomillashtirishga doir ishlarning muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;

mamlakatimiz ta'lim muassasalarida dars berish uchun respublika va xorijiy mamlakatlarning taniqli ijrochilarini hamda san'at va sport arboblari, yetakchi mutaxassis pedagoglarini taklif qiladi;

chet ellarda o'qiyotgan va samarali ijodiy faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor yoshlarning respublikada o'tkaziladigan ko'riklar, tanlovlar hamda festivallarda qatnashishini ta'minlaydi;

iqtidorli yoshlar va san'at arboblari ijodiy safarlarini tashkil qilish va hamda ularning xalqaro ko'lamda va respublika miqyosida san'at va sport sohasida o'tkaziladigan ko'riklarda, tanlovlarda, festivallarda va boshqa anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlaydi;

madaniyatshunoslik, teatrshunoslik, san'atshunoslik, musiqashunoslikni va mazkur sohadagi boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish, oliy o'quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash chora-tadbirlarini ko'radi;

dramatik, musiqali, musiqali-dramatik asarlar, tasviriy va amaliy san'at va haykaltaroshlik asarlari yaratishga davlat buyurtmalarini amalga oshiradi;

ijodiy jamoalar, madaniyat, san'at va sport mutaxassislarini, arboblari, shuningdek sportchilar hamda ularning idoraviy mansubligidan qat'i nazar, boshqa vakillarni xalqaro tanlovlar, festivallar, musobaqalarda va chet ellardagi boshqa tadbirlarda qatnashish uchun tayyorlash, jo'natish va qabul qilinishini ta'minlaydi;

mamlakatda sport turlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

O'zbekiston terma jamoalari sportchilari va a'zolarini sport inventarlari, jihozlari, kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlaydi;

respublikada madaniyat va sportni rivojlantirishning ahvoli monitoringini amalga oshiradi, mamlakatda ularni rivojlantirishga doir har yillik prognozlarni shakllantiradi;

jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, xorijiy mamlakatlarda madaniyat va sportni rivojlantirishning ilg'or tajribasi umumlashtirishini, ushbu yutuqlarning tarmoqda joriy etilishini ta'minlaydi;

manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar bilan birgalikda madaniyat va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar rivojlanishiga, shuningdek aholini jismoniy tarbiyalashga ko'maklashadi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etadi va ushbu ishlar olib borilishini muvofiqlashtiradi;

madaniyat va sport bo'yicha o'quv dasturlari, qo'llanmalari va boshqa ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek ularni tasdiqlaydi;

madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni, madaniyat va sport sohasiga taalluqli dasturiy-metodik va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda tasdiqlaydi, ularning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi boshqa organlari bilan birgalikda madaniyat va sport arboblarni, shu jumladan sportchilarni, trenerlar, sport faxriylari va boshqa mutaxassislarni ijtimoiy muhofaza qilish masalalarini hal etadi;

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi va boshqa jamoat sport tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi;

O'zbekistondagi sportning milliy turlarini va xalq o'yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashadi, mamlakatda va chet ellarda sportning milliy turlari bo'yicha musobaqalar, xalq o'yinlari, bo'yicha jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlar tashkil etilishi va o'tkazilishi moliyalashtirilishini, shuningdek xalqaro sport maydonlarida sportning milliy turlari targ'ib qilinishi va rivojlantirilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi;

xalqaro va respublika ommaviy sport tadbirlari o'tkazilishini, sportchilar, trenerlar va boshqa mutaxassislar ta'minotini, sportchilarni, mamlakat terma jamoalarini tayyorlashni va ularning Olimpiada va Osiyo o'yinlarida, jahon, Osiyo chempionatlari, kuboklari va birinchiliklarida hamda boshqa xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishini, xalqaro

tashkilotlarga a'zolik badallari to'lanishini belgilangan tartibda ta'minlaydi;

respublika sportchilari tomonidan sport turlari bo'yicha o'rnatilgan mamlakat rekordlarini tasdiqlaydi va ularni tasdiqlash uchun tegishli hujjatlarni xalqaro sport tashkilotlariga belgilangan tartibda taqdim etadi;

sport federatsiyalarining taqdimnomasi bo'yicha davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan xalqaro ommaviy sport tadbirlarida sportning alohida turlari bo'yicha qatnashadigan mamlakat sportchilari, terma jamoalarini tasdiqlaydi va ularning ishtirok etishini ta'minlaydi;

aholining keng qatlamlari o'rtasida madaniy tadbirlar va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda mamlakatning davlat va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi;

o'ziga qarashli tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishda va ularni axborot bilan ta'minlashda, maslahat berish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashda hamda boshqa yordam turlarini ko'rsatishda ularga ko'maklashadi;

barcha mavjud madaniyat va sport inshootlarini, kutubxonalar, teatrlar, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarni xatlovdan o'tkazadi;

jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarini pasportlashtiradi hamda ulardan foydalanish yuzasidan belgilangan tartibda sertifikatlar beradi;

madaniyat va sport sohasidagi ulkan yutuqlar uchun mukofotlar ta'sis etish va O'zbekiston Respublikasi faxriy unvonlarini berish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda kiritadi;

xalqaro madaniyat hamda sport aloqalarini amalga oshiradi va rivojlantiradi;

madaniyat va sport muassasalarining davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek o'zining hududiy bo'linmalari, o'ziga qarashli boshqa tashkilotlar orqali amalga oshiradi.

Vazirlikning huquq va majburiyatlari. Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

madaniyat va sport sohasida davlatlararo hamkorlik masalalari bo'yicha muzokaralarda ishtirok etish hamda respublika Hukumatining topshirig'iga ko'ra shartnomalar va bitimlarni imzolash, idoraviy mansub tashkilotlar va boshqa tashkilotlarning o'zaro foydali munosabatlar

asosida xorijiy mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatishiga ko'maklashish, shuningdek o'z vakolatlari doirasida boshqa mamlakatlar tashkilotlari bilan madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomalar, bitimlar va boshqa hujjatlar tuzish;

vazirliklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalardan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan hisobot shakllarida nazarda tutilgan, Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha ma'lumotlar olish;

madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazganlik va hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun maxsus yig'im undirishdan tushadigan, ular bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishiladigan mablag'larning bir qismini olish;

tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar toifasini o'zgartirish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda Hukumatga kiritish;

madaniyat va sport bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish, ilmiy va ekspert ishlarini amalga oshirish, dolzarb masalalarni ishlab chiqish uchun vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlaridan, shu jumladan chet ellardan yuqori malakali mutaxassislarni shartnoma asosida taklif etish;

belgilangan tartibda umumxalq bayramlari, yubileylar, madaniy va ommaviy jismoniy tarbiya-sport tadbirlari tashkil etish;

Vazirlik tizimiga kiruvchi sport, teatr-tomosha tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasalarini jihozlash uchun zarur bo'lgan yoritish va ovoz kuchaytirish asbob-uskunalarini, musiqa asboblarini, sport jihozlari, anjomlari, sport formalarini va boshqa zarur jihozlarni markazlashtirilgan tartibda sotib olish;

muzey fondlarini va asarlar ko'rgazmalarini to'ldirish uchun tarixiy-badiiy qimmatga ega bo'lgan kino, tasviriy va dekorativ-amaliy san'at asarlari hamda materiallarini, noyob qadimiy buyumlarni, shuningdek sahna va musiqa asarlarini, qo'shiqlarni aniqlash va sotib olish, muzeylar fondlaridagi eksponatlarning yagona katalogini nashr etish;

respublikada o'tkaziladigan xalqaro tanlovlar, ko'riklar, festivallar va boshqa tadbirlarda qatnashish uchun xorijiy jamoalarni va alohida ijrochilarni taklif etish;

Vazirlik tizimiga kiruvchi o'quv yurtlarida va ta'lim muassasalarida dars berish, shuningdek master-klasslar o'tkazish uchun yuqori malakali professorlar va o'qituvchilarni, respublikamizdagi va chet ellardagi taniqli san'at va sport arboblarni taklif etish;

madaniyat va sport sohasida iqtidorli yoshlar vakillarini aniqlash, ularni chet ellarga o'qishga yuborish;

badiiy havaskorlik jamoalariga, madaniyat muassasalariga «Xalq», «Bolalar namunali jamoasi», «Xalq muzeyi» unvonlari, respublika sport unvonlari va toifalari berish, kuboklar, medallar, nishonlar, diplomlar, yorliqlar va sovrinlar bilan mukofotlash;

Vazirlikka ajratiladigan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan mavjud budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni uning tomonidan o'tkaziladigan madaniy-ommaviy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishga, madaniyat, san'at va sport arboblarni turli tanlovlar, musobaqalar va shu kabilarga tayyorlash hamda ularda qatnashtirishga yo'naltirish;

madaniyat va sport sohasida ilmiy-metodik ishlanmalar bo'yicha korxonalar va tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil etish, qayta tashkil qilish va tugatish, tarmoq mutaxassislari malakasini oshirish, shuningdek madaniy va sport-sog'lomlashtirish korxonalari, inshootlari qurish;

yuqori malakali va sport zaxirasi sportchilarini tayyorlash ishlarini amalga oshirish, soha tarmoqlarini rivojlantirishni, idoraviy mansubligidan qat'i nazar, sport maktablari, klublari va sportga tayyorlash markazlarini ixtisoslashtirishni muvofiqlashtirish;

festivallar, tanlovlar, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy sport tadbirlari va boshqa tadbirlar g'oliblari, sovrindorlari, qatnashchilari va faxriy mehmonlarini esdalik sovg'alari bilan mukofotlash;

eng iqtidorli san'at arboblari, alohida fidokorlik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon qilgan madaniyat va sport sohasi xodimlari nomzodlarini mukofotlashga belgilangan tartibda taqdim etish.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Vazirlik o'z vakolatlari doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda qabul qilishga haqlidir.

Vazirlik, zarur hollarda, boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa normativ hujjatlar qabul qilish huquqiga ega.

Vazirlik madaniyat va sport sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishi va o'ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi ta'minlanishi uchun javob beradi.

Vazirlik faoliyatini tashkil etish. Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Vazir boshchilik qiladi.

Vazirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan uch nafar o'rinbosarlari, shu jumladan ikki nafar birinchi o'rinbosarlari bo'ladi.

Vazir:

Vazirlik faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlik qiladi hamda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

zarurat bo'lganda, Vazirlik markaziy apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan cheklangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritadi, shuningdek Vazirlik markaziy apparati, Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar va muassasalar shtat jadvalini, shuningdek xarajatlari smetasini tasdiqlaydi;

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va muassasalar nizomlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

Vazirlikning markaziy apparati xodimlarini, hududiy bo'linmalar, Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va muassasalar rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi.

Vazir qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlikda Vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarni muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Madaniyat va sport ishlari vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Vazirlik faoliyatining madaniyat va ommaviy sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, xalqning boy madaniy merosini qayta tiklash, asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyatini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va uyg'un kamol topgan shaxslarni tarbiyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga

oshirish, shuningdek aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini amalga oshirish, odamlarning madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Vazirlik rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Vazirlik vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda Vazir paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalari haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari o'z faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda Vazirlik tomonidan tasdiqlangan nizomlarga muvofiq amalga oshiradilar.

Tuman (shahar) madaniyat va sport ishlari bo'limlari o'z faoliyatini tuman (shahar) hokimliklari bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari tomonidan tasdiqlangan nizomlarga muvofiq amalga oshiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari rahbarlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan Vazir tomonidan tayinlanadi.

Tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari tegishli tuman (shahar) hokimi taqdimnomasiga binoan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari boshliqlari tomonidan tayinlanadi.

Madaniyat va sport ishlari vazirligini tugatish va qayta tashkil etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimiga kiruvchi tashkilot va muassasalar. *Madaniyat muassasalari:*

«O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi;

«O'zbeknavo» estrada birlashmasi;

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining bosh direksiyasi;

Akademik, xalq va badiiy jamoalar direksiyasi;

Orkestrlar (simfonik orkestr, kamer orkestri, xalq cholg'u asboblari orkestri);

«O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi;

«O'zbekdavlatsirki» respublika birlashmasi;

«Sahnadagi sirk» ko'chma korxonalar direksiyasi.

Oliy ta'lim muassasalari (O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi).

O'rta maxsus ta'lim muassasalari.

Respublika metodika va axborot markazi.

Ijodkor yoshlar uyi.

Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodik markazi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi.

Badiiy ekspertiza boshqarmasi.

«O'zbekmuzey» respublika jamg'armasi, respublika muzeylari.

«Guliston», «Teatr», «Moziydan sado» jurnallari tahririyatlari.

Musiq va san'at maktablari.

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi tahririyati.

Ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar.

Markazlashtirilgan buxgalteriya.

Repertuar-tahririyat hay'ati.

Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi.

Sport muassasalari:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti;

Olimpiya zaxiralari respublika kolleji;

Sport turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktablari;

«Sertifikatlash va kompyuterlashtirish markazi» davlat korxonasi;

«Sport» gazetasi tahririyati;

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi;

Futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabi;

Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabi;

Ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasini boshqarish organlari, huquqiy holati haqida so'zlab bering.

2. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tizimi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Madaniyat va sport ishlari sohasini boshqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?

4. Madaniyat va sport sohasini boshqarish organlari va ularning huquqiy holati haqida so'zlab bering.

5. Madaniyat va sport ishlari vazirligining tizimi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, madaniyat va sport ishlari sohasining ichki ishlar idoralari bilan o'zaro hamkorligi haqida so'zlab bering.

9-BO'LIM. MA'MURIY-SIYOSIY SOHANI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

28-mavzu. ICHKI ISHLAR SOHASINI BOSHQARISH

1. Ichki ishlar idoralarining huquqiy holati, tizimi va asosiy vazifalari

Ichki ishlar sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuklatilgan¹. Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi² 1991-yil 25-oktabrda qabul qilingan 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati Vazirlar Mahkamasining «Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tashning Vaqtinchalik nizomini tasdiqlash to'g'risida» 1993 -yil 8-yanvardagi 16-sonli qarori va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qilish organlari tizimiga kiradi.

Ichki ishlar vazirligi «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi Nizomga asosan hamda Konstitutsiya va Mustaqillik deklaratsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar sohasi boshqaruvini yoritishdan avval uning tarixiy rivojlanishini qisqacha ko'rib chiqishni lozim topdik.

Sobiq Ittifoqning yuqori davlat organlari tomonidan ichki ishlar idoralari faoliyatiga doir ko'plab qonunlar va qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lib, jumladan, 1919-yil 26-iyunda Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissariatining «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasidagi Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risidagi Nizom», o'sha yilning iyul oyida qabul qilingan «Turkiston ASSRda jinoiy qidiruvni tashkil etish to'g'risidagi Nizom», 1948-yilda qabul qilingan

¹ Izoh: IIV sohaviy xizmatlarining vazifalari «Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyati» fanida batafsil yoritilgan.

² Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 1991. – №10. – 36-м.

«Militsiya postlari va patrul xizmatining Nizomi», 1953-yil 20- iyuldagi O'zbekiston SSR Ministrlar soveti «O'zbekiston SSRda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralari to'g'risida»gi qarori, sobiq SSSR Oliy soveti Rayosatining 1962-yil 26-sentabridagi «Har yili 10-noyabrni «Militsiya kuni» deb belgilab, uni nishonlash to'g'risida»gi farmoni, ichki ishlar idoralarida dastlabki tergov yuritish huquqini bergan sobiq Ittifoq Oliy soveti Rayosatining 1963-yil 6-aprelidagi «Jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergovni olib borish huquqini berish to'g'risida»gi farmonlari kiradi.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish; jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash; fuqarolar hamda korxona, muassasa, tashkilotlarning mulkini, huquq va erkinliklarini har xil jinoiy tajovuzlar va boshqa huquqbuzarliklardan himoya qilish; jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash hamda sodir etilgan jinoyatlarni qisqa fursatda to'liq ochilishini ta'minlash; jinoyat sodir etish sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish, sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish; pasport tizimi faoliyatini ta'minlash (fuqarolarga pasport berilishi, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ro'yxatdan chiqarishni, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish); yo'l harakati xavfsizligini, ma'muriy javobgarlik va jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash; yong'in xavfsizligini ta'minlash; voyaga yetmaganlar bilan ishlash; fuqarolar tomonidan o'q otar qurollar sotib olish, saqlash va olib yurish tartibini nazorat qilish va rasmiylashtirish kabi ko'plab vazifalar kiradi.

Ichki ishlar vazirligi o'z huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlaydi.

Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, viloyatlar IIB va Toshkent shahar IIBB, transportdagi IIB, tuman va shahar IIBlari bilan bevosita amalga oshiradi.

Vazirlik Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, transportdagi ichki ishlar boshqarmalari bilan o'zaro hamkorlikda respublika ichki ishlar idoralari faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid ishlarni olib boradi.

Vazirlik o'z faoliyatini siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlaridan mustaqil amalga oshiradi.

Vazirlik chet davlatlarning ichki ishlar idoralari, davlat va jamoatchilik institutlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni bitimlar asosida amalga oshiradi.

Vazirlik faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan ichki ishlar idoralarining faoliyati sohasidagi o'zaro hamkorlik haqidagi bitimlar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ hujjatlari tashkil qiladi.

Vazirlik xodimlari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida xizmat vazifalarini bajarayotganda o'z huquqlari doirasida harakat qiladilar va tegishli chet davlatlar qonuniga muvofiq javobgardirlar.

Vazirlik o'z huquqi doirasida ko'rsatilgan huquqiy hujjat asosida va ularni bajarish uchun buyruqlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar chiqaradi va qoidalar o'rnatadi.

Vazirlik vakolatiga kiritilgan masalalarga oid normativ hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ichki ishlar idoralari tomonidan bajarilishi majburiydir.

Zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda normativ hujjatlar chiqaradi.

Vazirlik davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, aholi va ommaviy axborot vositalarini respublikadagi huquqiy tartibning ahvolidan hamda ichki ishlar idoralarining uni mustahkamlashga, shuningdek, vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga oid faoliyatidan xabardor qilib turadi.

Vazirlik davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolardan vazirlik vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni talab qilib olishga haqlidir.

Vazirlik o'z faoliyatini respublikaning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va muvofiqlashtirish asosida amalga oshiradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Hukumatiga bo'ysunadi.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan Vazir boshchilik qiladi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi va tugatiladi, so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Vazifalarning taqsimlanishiga muvofiq vazir o'rinbosarlari Vazirlik faoliyatining muayyan yo'nalishlari bo'yicha rahbarlikni amalga oshiradilar.

Vazirning topshirig'iga ko'ra uning o'rinbosari o'z huquqi doirasida buyruqlar va kypcatmalar chiqaradi. Vazifalarni kelishilgan holda hal etish va funksiyalarni amalga oshirish uchun Vazirlikda hay'at tuziladi.

Vazirlik hay'ati boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qarorlar qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda qabul qilingan qarorlar, odatda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va tegishli vazirliklar hamda idoralar rahbarlarining buyruqlariga ko'ra hayotga tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining reglamenti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish, ularni ilmiy, ijtimoiy va moddiy-texnik rivojlantirish, kadrlar bilan ta'minlash, boshqaruv qarorlari va tavsiyalarini kelishilgan holda ishlab chiqish masalalarini kompleks hal etish uchun Vazirlikda kengashlar va komissiyalar tuziladi.

Kengashlar va komissiyalarning a'zoligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining, viloyat hokimiyati ichki ishlar boshqarmalarining, Transportdagi ichki ishlar boshqarmalarining, hokimiyat va boshqaruv organlarining, davlat va jamoat tashkilotlari va birlashmalarining vakillari tayinlanishi mumkin.

Kengashlar va komissiyalarning tarkibi, shuningdek, ular haqidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va ichki ishlar idoralari xodimlarining soni, shuningdek, ularni saqlashga ajratilgan mablag'lar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik markaziy apparatining tuzilmasi, shtatlari, xodimlarining moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ta'minoti, shuningdek, ichki ishlar idoralarining tuzilmasi va shtatlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan, ularning soni va ularni saqlashga ajratilgan mablag'lar

doirasida belgilanadi. Ichki ishlar idoralarining moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ahvoli Ichki ishlar vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Mehnatga haq to'lash shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vazirlikning markaziy apparati va ichki ishlar idoralari boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslar hamda o'zining shaxsiy, ma'naviy va kasb fazilatlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir xizmatchilar bilan to'ldiriladi.

Vazirlik markaziy apparati ichki ishlar idoralari xodimlarining xizmatni o'tash tartibi va shartlari ichki ishlar idoralari oddiy va boshliqlar tarkibining xizmatni o'tash haqidagi tasdiqlangan nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va yangilash, qolaversa, respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida ichki ishlar idoralari boshqaruvida ham muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik sohaviy xizmatlarini uch bosqichli islohotlar hamda 2008-yil 17-apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 60 yilligini nishonlash to'g'risida»gi 2008-yil 1-may farmonlari talablari asosida Vazirlik tizimida Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash xizmati, Odam savdosiga qarshi kurashish tuzilmalari tashkil etildi.

2. Ichki ishlar idoralari faoliyatida o'tkazilayotgan izchil islohotlar

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha huquqni muhofaza qilish idoralari qatori ichki ishlar idoralari faoliyatida ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Respublikamiz Hukumati tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlashni kuchaytirish hamda militsiya xodimlari xavfsizligini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida 1990-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasining «Militsiya xodimlarini ijtimoiy va

huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi¹ qonunining qabul qilinishi davlatimiz mustaqilligining dastlabki -yillaridanoq ichki ishlar idoralari tizimida ijobiy islohotlarni amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Respublikamiz mustaqilligining keyingi davrlarida ichki ishlar sohasini takomillashtirish bo'yicha *uch bosqichli* islohotlar amalga oshirildi.

Birinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiyasi to'g'risida»gi qarori respublikada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqilligimizni asrash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Shuning uchun, yuqorida ko'rsatilgan Konsepsiya asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning tashabbusi bilan jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlovchi yangi tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni va uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kriminal, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm na narkotrafikka qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida»gi 2001-yil 21-aprel, «Jinoyatchilikka qarshi kurashda IIVning tergov xizmatlari rolini kuchaytirish haqida»gi 2001-yil 7-may, «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash choralari to'g'risida»gi 2001-yil 15-may, «O'zbekiston Respublikasida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2001-yil 31-may «Jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika xizmati rolini kuchaytirish choralari to'g'risida»gi 2001-yil 6-iyun «O'zbekiston Respublikasida yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 25-iyun qarorlari shular jumlasidandir².

Xususan, o'tkazilgan islohotlar natijasida Vazirlikning jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash, tergov, jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda Yong'in

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1990. – № 31–33.– 355-м; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. –1995. – № 6. – 121-м.

² Пулатов Ю.С. С чего начинается реформирование органов внутренних дел? // Хукук – Право – Law. – 2004. – № 4. – С. 80–84.

xavfsizligi boshqarmalariga Bosh boshqarma maqomi berildi, ularning vakolatlari va vazifalari kengaytirilib, joylardagi bo'limlari boshqarmalarga aylantirildi. Xususan, jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi, Tergov bosh boshqarmasi, Post-patrul xizmati va Jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, Xorijga chiqish, kirish va fuqarolik boshqarmasi, Respublika «Qo'riqlash» birlashmasi va ko'plab boshqarmalar, xizmatlar shular jumlasidandir.

Uchinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2004-yil 19-iyul farmoni Respublikamizda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilishda ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19-iyuldagi farmonida ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish zaruriyati belgilab berildi. Mazkur farmon asosida ichki ishlar idoralari tizimida kadrlar tayyorlash va ushbu tizimda xizmat qilayotgan ichki ishlar idoralari xodimlarini moddiy rag'batlantirish hamda ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralarida mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2004-yil 23-sentabr qarori hamda «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»dagi 2004-yil 4-oktabr qarorlari qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ichki ishlar idoralari uchun «jinoyatlarning oldini olish faoliyati», «tezkor-qidiruv faoliyati», «tergov faoliyati», «ekspert-kriminalistik faoliyat» bo'yicha ofitserlar va bir necha mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibini tayyorlash vazifalari belgilab berildi.

3. Ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy holati

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritib, rivojlanish yo'lini belgilagan ilk davrlardayoq, Prezident I. A. Karimov rahnamoligida fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalasiga ustuvor masala sifatida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, hozirgi globallashuv sharoitida davlat xavfsizligini ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi hozirgi geosiyosiy manfaatlar to'qnashgan, mafkuraviy kurashlar avj olgan pallada milliy xavfsizlikni ta'minlash, xususan, bu jarayonning subyektlari hisoblangan huquqni muhofaza qilish organlari hodimlarining mas'uliyatini oshirish dolzarb hisoblanadi. Bu borada ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash va munosib turmush sharoitini yaratib berish davlat hokimiyati oldidagi ustuvor vazifalardan biridir.

Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki ishlar idoralari muhim o'rin egallaydi. Chunki, ular soni va sifati jihatidan ustunlik kasb etishi bilan birga fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlashda mas'uliyatli vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash mamlakatimizda osoyishtalikni ta'minlashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Huquqshunoslik fanidagi eng ustuvor vazifalardan biri mazkur himoyaning huquqiy mexanizmlarini yaratishdir. Bu o'rinda ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashning umumiy asoslari xususida fikr yuritiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yuqori bosqichga olib chiqish bilan bog'liq buyuk maqsadlar turibdi.¹ Ayniqsa, ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashning zamonaviy tendensiyalarini yaratish mazkur sohaning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan shaxsiy tarkibni ijtimoiy himoya qilish orqali mamlakat o'z aholisini, fuqarolarning alohida toifasi sanalgan – davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilishga erishgan bo'ladi. Ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash asnosida mamlakatda mudofaa va xavfsizlik tizimini yanada mustahkamlash mumkin.

Ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash tushunchasi. Ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash xususida fikr yuritishda, ijtimoiy himoyaning o'zi nima ekanligi, uning mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat ekanligini bilib olish lozim. Buning uchun «Ijtimoiy himoya», «Ijtimoiy-

¹ Qarang: *Каримов И. А.* Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш – устувор вазифамиздир // Халқ сўзи. – 2006. – 8 дек.

huquqiy himoya», kabi tushunchalarning¹ mohiyatini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy himoya huquqiy davlat faoliyatining eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalishda davlatning o'z aholisini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi nazarda tutiladi. Ijtimoiy himoya tizimi orqali mamlakatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga, jumladan, kam ta'minlangan oilalarga, talabalarga, boquvchisini yo'qotganlarga, pensionerlarga, nogironlarga turli imtiyozlar berish, ularni moddiy rag'batlantirish amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, «ijtimoiy himoya» kategoriyasining mazmunini to'liq tasavvur etish uchun ushbu so'z birikmasidagi «ijtimoiy» atamasini tahlil etish lozim. Mazkur atama kundalik munosabatlarda juda ko'p qo'llaniladi. Misol uchun, ijtimoiy hayot, ijtimoiy fanlar, ijtimoiy himoya, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy munosabatlar va hokazo «*Ijtimoiy» atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, «jamo», «jamiyatga oid», «insn va jamiyat hayotiga oid» degan ma'nolarni anglatadi*².

«Ijtimoiy himoya – davlat va jamiyat tomonidan fuqarolarning bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadlarida amalga oshiriladigan ko'p qirrali faoliyat bo'lib, aholining turmush darajasini yuksaltirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, turli xizmatlar ko'rsatish, ishsizlikdan himoyalashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar majmuidan iborat»³.

Ijtimoiy himoyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «*Ijtimoiy himoya – bu aholining keng qatlamlarini, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan to'liq ta'minlanmagan fuqarolarga, ularning farovon turmush sharoitini ta'minlash maqsadida moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatdir*».

Ichki ishlar idoralari xodimi de-yilganda, Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan, maxsus unvonga ega xizmatchilar tushunilishi lozim (*Vazirlik tizimida maxsus unvonsiz faoliyat yuritayotgan xodimlar, ya'ni erkin yollangan bizning tadqiqot doiramizga*

¹ Qarang: Ижтимоий ҳимоя: Атамалар изоҳли луғати / Тузувчилар М.Х. Саидов, И.И.Насриев, З.Т.Тоҳиров, Ш.Х. Улуғов. – Т., 2007. – Б. 166–167.

² Qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Е–М. – Т., 2006. – Б.177.

³ Усманова М. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий ҳимояни ташкил этишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. дис. автореферати. – Т., 2006. – Б. 10.

kirmaydi. Chunki ular maxsus mehnat shartnomasi asosida vazirlik tizimining turli yo'nalishlarida faoliyat yuritadilar.)

Aynan ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy huquqiy himoyasi xususida o'zbek huquqshunoslik fanida birinchi bor D. Ahmedov o'z mulohazalarini bildiradi¹. «Aholining ijtimoiy himoyasi» tushunchasiga asoslangan holda, ichki ishlar xodimlarining maqomini mustahkamlovchi normativ-huquqiy bazani tadqiq etib, «ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy himoyasi» tushunchasini quyidagicha tavsiflash mumkin: *ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasi ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda ularning samarali xizmat faoliyatini ta'minlash maqsadida ularga ba'zi imtiyozlar hamda ustuvorliklar belgilovchi huquqiy normalar majmuasidir*².

O'z navbatida, ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash ularga munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratib berish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, tegishli yordam ko'rsatish bilan bog'liq faol harakat sifatida baholanishi lozim. Ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasini harbiylar va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasidan farqlash lozim.

«Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiradigan mansabdor shaxslarning ijtimoiy va huquqiy himoyasi» tushunchasi «militsiya xodimi himoyasi» tushunchasidan farq qiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari mamlakatdagi muayyan vazirlik tizimida faoliyat olib borayotgan davlat xizmatchisi sifatida e'tirof etilishi bilan bir qatorda ular ham mamlakatning mustaqil fuqarosi hisoblanadi. Respublikadagi barcha fuqarolar kabi ichki ishlar idoralari xodimlari ham o'zlarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga egalar. Huquq tamoyillariga asosan, ichki ishlar idoralari xodimlari ham teng asoslarda konstitutsiyaviy erkinliklarning uzviy tarkibiy qismi hisoblangan ijtimoiy huquqiy himoyadan foydalanishga haqlidirlar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin: *ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash – bu ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni yashashi va faoliyat*

¹ Qarang: Аҳмедов Д. Қ. Бозор муносабатлари шароитида давлат ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. –Т., 2006. – Б. 136 – 137.

² Qarang: Петров А.П. Правовая и социальная защита сотрудников органов внутренних дел. –Хабаровск,1995. – С. 4–5.

yuritishi uchun zarur bo'lgan moddiy-ma'naviy ne'matlar bilan to'liq ta'minlashdan iborat davlat funksiyasining muhim yo'nalishidir.

Mamlakatimizda ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashning amaldagi huquqiy asoslari. Mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar idoralari xodimlari eng asosiy subyekt sifatida maydonga chiqadi. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnatlariga yarasha haq to'lash, xizmat faoliyati mobaynida orttirgan kasalliklarini davolash yoki yo'qotgan sog'ligini tiklash, vafot etgan taqdirida oila a'zolariga davlat tomonidan e'tibor ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalasi eng dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiladi. Buni mustaqillikka qadar qabul qilingan qonunlardan ham bilsa bo'ladi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan, xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanayotgan rivojlanishning «o'zbek modeli»dagi bir yo'nalish ham aynan kuchli ijtimoiy himoya ekanligi fikrimizni tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoya masalasi doimo davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning bosh negizini tashkil etib, bu borada bir qator xayrli tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar orasida munosib o'ringa ega bo'lgan – ichki ishlar idoralari va ularda xizmat qilayotgan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk yillarda, ya'ni *birinchi bosqichda* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot sohasidagi asosiy huquqlari va uning kafolatlari mustahkamlab qo'yildi. «*Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida*»gi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda ijtimoiy-huquqiy himoyaning fundamental asoslari yaratildi. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi natijasida ichki ishlar idoralarida xizmat qilayotgan xodimlarning sog'ligini saqlash, ular mehnatini muhofaza qilish va iste'foga chiqqanlaridan so'ng nafaqa olish bilan bog'liq munosabatlar huquqiy tartibga solindi.

Ikkinchi bosqich mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda muayyan zaminga ega bo'lganidan so'ng (1997-yildan) boshlandi va bu

davrda bevosita ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasining «Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi 1990-yil 3-oktabr qonunidir. Ushbu qonunda Militsiya xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyalanganligini kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qilgan:

1. Militsiya xodimlari davlat hokimiyatining vakili ekanligi, davlatning alohida himoyasida bo'lishi belgilab qo'yilib, ichki ishlar xodimining qonuniy talablarini barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar bajarishga majburligi, xodimining qonuniy talabini bajarmaslik, shuningdek, uni haqoratlash, unga qarshilik ko'rsatish, do'q-po'pisa qilish, zo'rlik ishlatish va uning hayotiga tajovuz qilish, shuningdek xodimining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa xatti-harakatlarni qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan javobgarlikka olib kelishi ko'rsatilgan.

2. Ichki ishlar xodimining ko'rsatmalari fuqarolarning, u huquq-buzar, jabrlanuvchi yoki guvoh bo'lishidan qat'iy nazar, ko'rsatmalari bilan teng ravishda daliliy ahamiyatga egaligi, Zarur mudofaa, o'ta zarurat bo'lgan holatda yoki kasbiga ko'ra o'rinli tavakkalchilik qilish holatda ichki ishlar xodimi tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar garchand O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyi harakatlar ko'rinishida bo'lsa ham, jinoyat deb hisoblanmasligi.

3. Ichki ishlar xodimining hayoti tegishli budjet mablag'lari hisobidan davlat ijtimoiy sug'urtasidan albatta o'tkazilishi, Ichki ishlar xodimiga u o'zining professional faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan darajada og'ir tan jarohatlari yetkazilganda tegishli budjet mablag'laridan pul to'lanishi, shuningdek, uning mansab okladi bilan pensiyasi o'rtasidagi farq to'lanishi belgilab qo'yilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 27- mart farmoni bilan ichki ishlar idoralari tizimi tubdan isloh etildi. Xususan, bu davrda poytaxt ichki ishlar bosh boshqarmasi tuzilishining isloh qilingandi; militsiya uchastka inspektorlari bo'linmalari negizida profilaktika inspektorlari instituti tashkil etilgandi; har bir mahallada militsiya tayanch punktlari ish boshladi; militsiya xizmatlarining aholi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi yanada yaxshilandi.

Ichki ishlar vazirining ichki ishlar idoralari shaxsiy tarkibini yangi namunadagi kiyim-bosh(forma)ga o'tkazishga doir 2001-yil 4-avgustdagi farmoyishi ham tub islohotlarning bir ko'rinishidir.

Uchinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19- iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonini e'lon qilinishi bilan boshlandi. Ushbu farmonida ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish masalalari o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra «militiya organlarining zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnik bazasini, ichki ishlar idoralari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-huquqiy himoyalashning samarali tizimini yaratish. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi xizmat, avvalo, moddiy ta'minot nuqtai nazaridan obro'li bo'lishi hamda militsiya xodimlarining, uning oilasi a'zolarining ijtimoiy jihatdan samarali himoya qilinishini kafolatlashi kerak». Yuqoridagi normativ huquqiy aktlarni amalga oshirish barobarida ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashning yangi mexanizmi joriy etildi.

Xususan, yuqoridagi farmonga asosan Ichki ishlar vazirligiga bir oy muddat ichida «O'zbekiston Respublikasi IIV organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish belgilandi va ushbu vazifa muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bu davrda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyalashini yanada yaxshilash choralari to'g'risida»gi 2004-yil 4-oktabr 459-73-sonli qarori qabul qilindi va bu bosqich ichki ishlar idoralari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashda o'ziga xos davr bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2004-yil 22-noyabrdagi «Ichki ishlar idoralari malaka komissiyalarining faoliyati hamda safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga malaka toifasini berish tartibi to'g'risida»gi 313-sonli buyrug'i bilan nizom tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori talablarini bajarilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar amalga oshirildi:

Kasbiy tayyorgarligi darajasiga qarab xodimlarga navbatma navbat «3-toifa» «2-toifa» va «1-toifa» beriladi, «2-toifa» va «1-toifa»lar avvalgi toifa berilgan kunidan boshlab kamida bir yil o'tganidan so'ng beriladi. «3-toifa» uchun ichki ishlar idoralarida 3 yil mutaxassisligi bo'yicha esa

kamida 2 yil, «2-toifa» uchun ichki ishlar idoralarida 5 yil, mutaxassisligi bo'yicha esa kamida 3 yil, «1-toifa» uchun ichki ishlar idoralarida 10 yil mutaxassisligi bo'yicha esa kamida 5 yil xizmat stajiga ega bo'lgan, avvalgi malaka toifasini tasdiqlagan safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi qo'yiladi.

Malaka toifasi uchun har oylik pul miqdorlari quyidagicha belgilanadi:

- a) «3-toifa»malakasi uchun amal maoshining 15 foizi;
- b) «2-toifa» malakasi uchun amal maoshining 20 foizi;
- d) «1-toifa» malakasi uchun amal maoshining 30 foizlari bilan

belgilangan.

Malaka toifasini oshirish (tasdiqlash) bo'yicha sinovlarga o'zlari-ning lavozim vazifalarini sidqidildan bajarayotgan asosiy o'quv fanlarini a'lo va yaxshi baholarga o'zlashtirayotgan, intizomli xodimlar qo'yiladi. Xodim o'z mutaxassisligi bo'yicha tegishli zarur kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Xodim sinovlarni topshira olmasa, keyingi bosqichga bir yil o'tganidan keyin qo'yiladi. Uzlaksiz 5 yil davomida «1-toifa»da bo'lgan va egallab turgan lavozimida ishlab kelayotgan xodimning malaka toifasi ichki ishlar idoralaridagi xizmatining oxiriga qadar saqlanadi. Xodimlar «1-toifa»ni ikki yil mobaynida saqlab qolsa, bu ularni Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda, yuqori lavozimlarga tayinlashda va yilga navbatdagi unvonni muddatidan oldin berishda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ўзбекистон Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyalashini yanada yaxshilash choralari to'g'risida»gi 2004-yil 4-oktabr qaroriga asosan ichki ishlar idoralari xodimlarining oylik maoshlari qariyb ikki barobar oshirildi.

2005-yilning 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi IIV organlarining safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi maxsus unvonlari bo'yicha yangi tartibda maosh ola boshladilar. Bundan tashqari, IIV organlari tayanch punktlarining safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda patrul-post, yo'l-patrul. Huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatlari komandirlariga oylik lavozim maoshlarining 20% miqdorida har oylik ustama haq; ichki ishlar idoralari serjantlar tarkibiga IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarni tamomlaganidan keyin oylik lavozim maoshining 15% miqdorida oylik ustama haq hamda Oliy kurslarni «a'lo» baholar bilan tamomlaganlarga oylik maoshining 2 baravari miqdorida bir martalik mukofot belgilandi.

Shu bilan bir qatorda, ushbu qarorning o'zi bilan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlariga yuqorida aytilganidek, daraja kvalifikatsiyasi uchun yangicha oylik pul mukofoti berish tizimi joriy etildi.

Mamlakatimizda joriy etilgan ichki ishlar xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalashning yangi mexanizmi tizimida xizmat olib borayotgan xodimlarning o'z xizmat burchiga yanada mas'uliyat bilan yondashishiga olib kelmoqda. Bu ularning o'z xalqiga, vataniga yanada sadoqat bilan xizmat qilishlarini ta'minlash barobarida yurt tinchligi va ozodligi uchun bor kuch va g'ayratlarini ishga solib mehnat qilishlariga asos bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyalash bilan bog'liq tadbiriyl islohotlar yanada davom etadi va Vatan posbonlarini huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga mustahkam zamin yaratadi.

Respublika Prezidenti tomonidan qo'yilgan vazifalardan keli chiqib, mustaqil Respublikamiz osoyishtaligini saqlash, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini to'liq ta'minlashga erishish uchun ichki ishlar idoralari faoliyatida quyidagi masalalarga alohida ahamiyat berish zarur:

Birinchidan, mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha boshlangan tizimli ishlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish, huquqbuzarliklarni, birinchi galda yoshlar o'rtasida oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari samaradorligini oshirish, jinoyatlarni zudlik bilan ochish ba sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlovchi tezkop qidiruv va tergov faoliyati tizimini takomillashtirish.

Ikkinchidan, ichki ishlar idoralari ishida qonuniyligni yanada mustahkamlash, militsiya xodimlari faoliyatida uchrab turadigan korrupsiya, kasbini suiiste'mol qilishi, buyruqbozlik loqaydlik kabi salbiy holatlarga tubdan barham berish, ayniqsa, yo'l-patrul xizmati va boshqa tuzilmalar ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, shaxsiy tarkibni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ichki ishlar idoralarini tasodifiy xodimlardan, avvalo, o'zining ishchanlik, axloqiy va professional tayyorgarligi bo'yicha ichki ishlar idoralari xodimi degan yuksak unvonga noliyiq shaxslardan xalos etish borasidagi ishlarni kuchaytirish.

Uchinchidan, Ichki ishlar vazirligi idoralarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ular faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasini joriy etish,

ma'lumotlar bankini shakllantirish va undan tezkor foydalanish borasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratish.

To'rtinchidan, profilaktika inspektorlarining malakasi va kasb mahoratini oshirish g'oyat muhim vazifalardan biridir. Yuksak professionalizm, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo'l topa bilish, oila va maktab o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish har bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatlaridan bo'lmog'i darkor.

Profilaktika inspektorlari o'z faoliyatini birinchi navbatda huquqbuzarliklarning oldini olish, sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga ko'maklashish, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashga qaratgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Beshinchidan, transhegaraviy jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafik, narkotiklarni yetkazib berish va tarqatish manbalariga qarshi kurash muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Narkotiklarga qarshi kurash bo'yicha ko'rilyotgan barcha choralar hali-hanuz huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatidagi eng zaif bo'g'in bo'lib turibdi, bu soha bo'yicha javobgar bo'lgan tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish talab darajasida ta'minlanmayapti.

Oltinchidan, militsiya xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan aniq maqsadli ishlarni yanada kuchaytirish muhim vazifalardan biri bo'lmog'i kerak. So'nggi -yillarda ularning ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash, ish haqini oshirish yo'lida ko'p ish qilindi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining professional mahorati o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan qo'shimcha pul mukofotlari va boshqa to'lovlar joriy etildi. Bu ishlar bundan keyin ham davlatimiz va jamoatchiligimizning e'tibor markazida bo'ladi, albatta.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tizimi, tuzilishi va huquqiy holati haqida so'zlab bering.
2. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarining huquqiy holati, tizimi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatida o'tkazilyotgan izchil islohotlar haqida so'zlab bering.
4. Ichki ishlar idoralarining boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
5. Ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy holati va ijtimoiy himoyasi haqida so'zlab bering.

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi boshqaruv organlari va ularning huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

Mudofaa sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»¹ 2001-yil 11-may qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini O'zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligiga aylantirish to'g'risida»² 1992-yil 3-iyul farmoni, shuningdek, «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»³ 2002-yil 12-dekabr qonunlariga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasini mudofaa qilish davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, respublika manfaatlarining himoya qilinishi va aholining tinch hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy-huquqiy tadbirlar majmuidan iborat.

Ma'lumki, davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Mudofaa sohasida yuritilayotgan siyosatning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi to'g'risida»⁴ 1995-yil 30-avgust qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mudofaa doktrinasi to'g'risida»⁴ 2000-yil 11-fevral farmonlari qabul qilindi. Xalqimiz ushbu qaror va farmonga asos bo'lgan qoidalarini ma'qulladi. Bu eng avvalo, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, mudofaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish, xalqaro huquq qoidalari va normalariga og'ishmay rioya etish majburiyatlarini qabul qilish, xalqaro bitimlar bo'yicha zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish va shu haqida»⁴.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. –2001. – № 5. – 80-м.

² Ushbu manba.–1992. – № 8. – 304-м.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2003. – № 1. – 18-м.

⁴ Qarang:Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.162-163.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Mudofaa to'g'risida»gi 2001-yil 11-may qonuni mudofaani tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilaydi, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning undagi ishtirokini aniqlab beradi.

Mudofaa deganda, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi.

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'rsatish hollari bundan mustasno;

- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;

- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;

- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo'lishi;

- yadroviy va boshqa turdagi yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishni rad etish;

- Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;

- mudofaaning yetarli darajada bo'lishi;

- harbiy xizmat sharaflilik ekanligini ta'minlash.

Mudofaani tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tajovuzning oldini olish va qaytarishga, O'zbekiston Respublikasiga tajovuzlardan uyushgan holda qurolli himoyalashga qaratilgan zarur sharoitlar yaratish;

- mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, davlat harbiy tuzilishini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish;

- mudofaa vazifalarini hal etish uchun kerakli barcha kuchlar va vositalarning muvofiqlashtirib borilishini va hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash;

- harbiy-siyosiy vaziyat, milliy xavfsizlikka bo‘lgan aniq va potensial tahdidlar monitoringini yuritish;
- O‘zbekiston Respublikasi urushga va qurolli mojarolarga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rish;
- Qurolli Kuchlarning qurilishi, tayyorgarligi, doim shay holda saqlab turilishi, ularning soni, tuzilishi va tarkibining maqbullashtirilishi;
- Qurolli Kuchlarni tegishli ravishda zamonaviy qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulk, oziq-ovqat, boshqa moddiy-texnik vositalar, energetika va boshqa resurslar bilan ta‘minlash, ularning zaxiralarini vujudga keltirish;
- Qurolli Kuchlar qo‘llanilishini rejalashtirish;
- mudofaa vazifalarini hal etish uchun tashqi siyosiy yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni ko‘rish;
- aholini va hududni mudofaaga tayyorlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining qo‘riqlanishi va himoyalashini ta‘minlash;
- aholini, iqtisodiyot va hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan obyektlarni yalpi qirg‘in qurollaridan muhofaza qilishga doir tadbirlarni o‘tkazish;
- Qurolli Kuchlarning, mamlakat iqtisodiyotining, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, shuningdek aholining safarbarlik tayyorgarligi;
- davlat va safarbarlik zaxiralari uchun moddiy boyliklar zaxiralarini vujudga keltirish;
- mudofaaning ilmiy, ilmiy-texnikaviy, ma‘rifiy, harbiy-sanoat, iqtisodiy, axborot va qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- aholini ma‘naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini davlatni himoya qilishga axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash;
- mamlakat mudofaasini tashkil etishga doir boshqa tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shimlar va qismlarni, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Qurolli Kuchlar o‘z faoliyatini qonun ustunligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy

shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog‘, harbiy texnikaning barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulk davlat mulki hisoblanadi va Qurolli Kuchlar tasarrufida bo‘ladi.

Qurolli Kuchlarning komplektlanishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti* – Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni amalga oshiradi.

Urush davrida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir vaqtning o‘zida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni o‘rinbosari hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o‘z bo‘ysunuvda Qurolli Kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning rahbarlari amalga oshiradilar.

Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabining boshlig‘i amalga oshiradi.

Mudofaa sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari quyidagicha:

- O‘zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi;
- davlat boshqaruv organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta‘minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;
- Qurolli Kuchlarni tuzish, qo‘llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo‘ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi;
- harbiy harakatlar olib borish to‘g‘risida, shu jumladan xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish to‘g‘risida, shuningdek Qurolli Kuchlarni o‘zlariga bevosita taalluqli bo‘lmagan vazifalarni bajarishga jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda: O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e‘lon qiladi hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

– Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi;

– harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sonini, ularning harbiy va muqobil xizmatni o‘tash tartibini, harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni harbiy hisobga olish ishining yuritilish tartibini, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyojlari uchun qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulk, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalarining normalari hamda hajmini belgilaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga chaqirish, muddatli xizmat harbiy xizmatchilarini rezervga va muqobil xizmat xizmatchilarini zaxiraga bo‘shatish to‘g‘risida, shuningdek harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig‘inlarga chaqirish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, fuqarolarni safarbarlik bo‘yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirish, safarbarlikdan bo‘shatish to‘g‘risida farmonlar chiqaradi;

– mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligi, shuningdek safarbarlik va strategik davlat zaxiralarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish rejalarini tasdiqlaydi;

– harbiy oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarini, oliy ta‘lim muassasalari qoshida harbiy ta‘lim fakultetlarini, shuningdek harbiy tayyorgarlik o‘quv markazlarini (harbiy kafedralar yoki sikllarni) tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mudofaa sohasidagi vakolatlari quyidagicha:

– davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

– mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligi, shuningdek safarbarlik va strategik davlat zaxiralarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish rejalarini ishlab chiqadi, mazkur rejalarining ijrosi ustidan nazorat olib boradi;

– Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy-maishiy ta‘minoti masalalarini hal etadi;

– Qurolli Kuchlarning tegishli ravishda qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulk, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishi va ta‘minlanishini tashkil etadi;

– qurol-yarog‘lar va harbiy texnika, strategik materiallar eksporti hamda importi ustidan nazorat olib boradi;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar mudofaa ehtiyojlariga doir vazifalarni bajarganligi munosabati bilan ular sarf qilgan moddiy xarajatlarning o‘rnini qoplash tartibini belgilaydi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi – mudofaa sohasida davlat siyosati va boshqaruvini olib boruvchi, shuningdek vazirlik, idora va boshqa boshqaruv organlarining mudofaa masalalari bo‘yicha faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik – o‘z tasarrufidagi qo‘shinlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining zamonaviy qurol-yarog‘lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo‘mondonlik organi hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi:

milliy harbiy strategiya, Qurolli Kuchlar qurilishi va rivojlantirilishining konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘ladi;

Qurolli Kuchlarni, harbiy okruglarni, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarini tezkor-strategik boshqarishning bosh organi vazifasini bajaradi;

qo‘shinlarning jangovar harakatlari strategik jihatdan va tezkor rejalashtirilishini hamda ularga rahbarlikni amalga oshiradi;

qo‘shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligiga, ular tashkiliy-shtat tuzilishining qo‘shinlarni qo‘llash shakl va usullariga ko‘nikma hosil qilishiga doir chora-tadbirlar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan, Qurolli Kuchlarning shakl va turdagi qo'shinlarining, birlashmalari, qo'shilmalari va bo'linmalarining qo'mondonlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan direktivalar va buyruqlar chiqaradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Harbiy okrug – operatsion yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umumqo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir.

Harbiy okruglar zimmalariga yuklangan vazifalarni bajaradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qiladilar.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mudofaa sohasidagi vakolatlari:

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonun hujjatlariga muvofiq mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek jangovar qobiliyatini ta'minlashda qatnashadilar hamda zimmalariga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas'uldirlar.

Harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo'lgan mahsulotlar yetkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas'uldirlar, safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq tarmoqning urush davrida barqaror ishlashini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari quyidagicha:

– tegishli safarbarlik topshiriqlari bajarilishini ta'minlaydilar;

– o'z hududlarida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda safarbarlik rejalari hamda davlat va safarbarlik zaxiralari moddiy boyliklarini jamlash topshiriqlari bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar;

– harbiy hisobga olish ishini, harbiy va muqobil xizmatga chaqirishni, safarbarlik, harbiy yig'inlarni tashkil etishda, shuningdek safarbarlik va urush davrida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga bron berishda qatnashadilar;

– fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishini ta'minlaydilar;

– hududiy mudofaa tadbirlarini rejalashtirish va ularning bajarilishini ta'minlashda qatnashadilar;

– Qurolli Kuchlarning zarur mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlariga, issiqlik va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydilar, ularga

aloqa vositalarini beradilar, kommunal-maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar;

– harbiy qismlar, Qurolli Kuchlarning korxona, muassasa va tashkilotlari ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda yer, xizmat xonalari hamda turar joy beradilar;

– fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi, jangovar harakatlarda qatnashishi munosabati bilan ularga, shuningdek ularning oila a'zolari uchun belgilangan ijtimoiy kafolatlar amalga oshirilishini ta'minlaydilar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki:

harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni xabardor etish va mudofaa ishlari bo'limlariga chaqirishni tashkil etishda ko'maklashadilar;

shaharchalar, qishloqlar va ovullarda harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni birlamchi shaxsiy hisobga olish ishini yuritadilar, shuningdek fuqarolarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qatnashadilar;

fuqaro muhofazasi va hududiy mudofaa tadbirlarida qatnashadilar;

o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulkni urush davrida mudofaa ehtiyojlari uchun qonunda belgilangan tartibda berib turadilar, qilingan xarajatlarning o'zni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda keyinchalik qoplanadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda qatnashadilar.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki quyidagicha:

safarbarlik rejalari hamda davlat va safarbarlik zaxiralari moddiy boyliklarini jamlash topshiriqlarida nazarda tutilgan tadbirlarni;

fuqaro muhofazasi va hududiy mudofaa tadbirlarini;

harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni hisobga olish va ularga bron berish tadbirlarini;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni bajaradilar.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulkni mudofaa ehtiyojlari uchun qonun hujjatlariga muvofiq berib turgan taqdirda, ular qilgan xarajatlarning o'zni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

Fuqarolarning mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

Fuqarolar mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ko'maklashuvchi jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

Urush holati O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda qonunda belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga qo'shinlar to'satdan hujum qilgan yoki bostirib kirgan taqdirda harbiy okruglar qo'shinlarining qo'mondonligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari urush holati e'lon qilinishini kutmay hujumni yoki bosqinni daf etishning barcha chora-tadbirlarini ko'rishlari shart.

Urush davri urush holati e'lon qilingan vaqtdan yoki harbiy harakatlar amalda boshlanib ketgan paytdan e'tiboran boshlanadi hamda harbiy harakatlar to'xtatilganligi e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran, lekin bunday harakatlar amalda to'xtatilganidan keyin tugaydi.

Urush davri sharoitida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni tomonidan Qurolli Kuchlarga va mamlakat iqtisodiyotiga rahbarlikni amalga oshiradigan vakolatli organ tuzilishi mumkin.

Safarbarlik urush holati e'lon qilinishi yoki favqulodda holat joriy etilishi bilanoq umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilinishi mumkin.

Safarbarlik tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Hududiy mudofaa O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini himoyalash va mudofaa qilish, aholini, obyektlar va kommunikatsiyalarni dushman xurujlaridan, qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlaridan himoya qilish maqsadida, shuningdek favqulodda holat rejimini saqlab turish uchun tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Hududiy mudofaani ta'minlashga jalb etiladigan kuchlarning vazifalari, hamkorlikdagi harakatlarining tashkil etilishi va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qurolli mojarolar, cheklangan doiradagi harbiy nizolar (harakatlar va qurolli to'qnashuvlar) qurolli mojarolar deb hisoblanadi, bunda urush holati e'lon qilinmaydi.

Qurolli mojarolar kelib chiqqan va O'zbekiston Respublikasi bu mojarolarga tortilgan taqdirda, Qurolli Kuchlar darhol ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalanishdan iborat bo'lgan huquqni mustahkamllovchi umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslanib, harbiy qurilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Mudofaa ehtiyojlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti qonun hujjatlariga muvofiq davlat budjeti mablag'lari hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Mudofaaga ajratiladigan mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanilishi ustidan nazorat qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqarolar va mansabdor shaxslarning mudofaa to'g'risidagi qonunlarni bajarmaganligi amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi.

Umumiy harbiy majburiyatning mazmuni - O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasini himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o'tkazishdan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirish va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo'lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi 2002-yil 12-dekabrda qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari, xususan:

- harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar – chaqiriluvchilar;
- haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar – harbiy xizmatchilar;
- Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar – harbiy xizmatga majburlar;
- turli sabablarga ko'ra harbiy ro'yxatga olinmagan yoki harbiy ro'yxatdan chiqarilgan, shu jumladan iste'fodagi shaxslar – harbiy xizmatga majbur bo'lmagan shaxslar deb ataladi.

Haqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha) kirgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqi va Prezidentiga sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

Muqaddam Harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar harbiy yig'inlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo'yicha chaqirilganlarida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

muddatli harbiy xizmat;

safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

Muddatli harbiy xizmat - chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar hisobida:

muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tayotgan harbiy xizmatchilar uchun – o'n ikki oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun – to'qqiz oy);

muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo'yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tayotgan ofitserlar uchun – to'qqiz oy qilib belgilanadi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat turi. Muddatli harbiy xizmatni o'tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus hisobvarag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshga to'lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar yigirma yetti yoshga to'lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o'tkaziladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslar to'laydigan pul badallari miqdori va ularni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan alohida nizom bilan belgilanadi. Bu mablag'lar muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning pul va moddiy ta'minotini oshirish, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslarning harbiy yig'inlarini o'tkazishga aniq maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat – Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydilar.

Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontraktga belgilanadi. Ayni vaqtda dastlabki kontrakt xizmatni oddiy askarlar va

serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha uch yil, ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha besh -yil muddatga tuziladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari bilan o'qish davri uchun kelgusida ularning ofitserlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o'tash sharti bilan kontrakt tuziladi.

Harbiy xizmatning kontraktida nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo'shilmalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha majburiyatlarni tinchlik va urush davrida bajarishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo'yicha harbiy yig'inlarni o'tashga jalb etilishlari mumkin.

Harbiy yig'inlarni o'tash muddatlari «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunning 32-moddasida belgilanadi.

Rezervchilardan urush davrida ham, tinchlik davrida ham O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug'ilganida, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan qo'shilmalar va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo'yicha foydalanilishi mumkin.

Qurolli Kuchlar rezervchilarining xizmatni o'tash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar tarkibi:

harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar, ofitserlar tarkibi kichik ofitserlar, katta ofitserlar va generallar tarkibiga bo'linadi.

Har bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburga tegishli harbiy unvon beriladi. Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo'linadi.

Qurolli Kuchlarda quyidagi harbiy unvonlar joriy etiladi:

Qo'shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
<i>I. Oddiy askarlar tarkibi</i>	
oddiy askar	matros
<i>II. Serjantlar tarkibi</i>	
kichik serjant	2-darajali starshina
serjant	1-darajadagi starshina
katta serjant	bosh starshina
<i>III. Ofitserlar tarkibi</i>	
<i>Kichik ofitserlar tarkibi</i>	
leytenant	leytenant
katta leytenant	katta leytenant
kapitan	kapitan-leytenant
<i>Katta ofitserlar tarkibi</i>	
mayor	3-darajali kapitan
podpolkovnik	2-darajali kapitan
polkovnik	1-darajali kapitan
<i>Generallar tarkibi</i>	
general-mayor	
general-leytenant	
general-polkovnik	
armiya generali	

Qurolli Kuchlardagi oliy harbiy unvon armiya generali bo'lib, bu unvon (urush davrida) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoniga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo'nalishdagi harbiy hisobdagi ixtisoslikka ega bo'lgan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburning harbiy unvoniga tegishincha «adliya» yoki «tibbiy xizmat» so'zlari qo'shiladi.

Rezervdagi, zaxiradagi yoki iste'fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishincha «rezervdagi», «zaxiradagi» yoki «iste'fodagi» degan so'zlar qo'shiladi.

Harbiy unvon berish va harbiy unvondan mahrum qilish, shuningdek harbiy unvonini pasaytirish hamda harbiy unvonini tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Harbiy burchni jiddiy tarzda buzganlik, hokimiyatni suiiste'mol qilganlik, zimmasiga qonunlar va harbiy ustavlar bilan yuklatilgan talablar va majburiyatlarni favqulodda vaziyatlarda bajarmaganlik uchun katta ofitserlar va generallar tarkibidagi shaxslarning harbiy unvonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondonining qarori bilan pasaytirilishi mumkin.

Ofitserlar tarkibiga kiruvchilarni harbiy unvondan ular og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun hukm etilganlarida faqat sudning qarori bilan mahrum qilish mumkin.

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi.

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan -yiliga bir marta – fevral-mart oylarida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori chaqiruv boshlanishiga kamida bir oy qolganida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilinganidan keyin chaqiriluvchilar, shu jumladan vaqtincha ro'yxatda turgan chaqiriluvchilar chaqiruv qog'ozida ko'rsatilgan muddatda chaqiruv punktida hozir bo'lishi shart. Muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tamagan va harbiy ro'yxatda turmagan chaqirilish yoshidagi fuqarolar, shuningdek doimiy turar joyidan vaqtincha boshqa joyga jo'nab ketgan va o'sha yerda harbiy ro'yxatda turmagan chaqiriluvchilar turar joylaridagi mudofaa ishlari organlarida hozir bo'lishi shart.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ta'lim muassasalarining rahbarlari xizmat safarida bo'lgan chaqiriluvchilarni chaqirtirib olishlari va ularning chaqiruv uchastkasida o'z vaqtida hozir bo'lishini ta'minlashlari shart.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va yoshi o'n sakkizdan oshgan chaqiriluvchilarning harbiy ro'yxatda turish joyini o'zgartirishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining navbatdagi chaqiruv to'g'risidagi qarori e'lon qilinguniga qadar yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilinganidan keyin chaqiriluvchilar harbiy ro'yxatda turish joyini faqat quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin:

boshqa joydagi ishga o'tkazilgan bo'lsa;

yangi turar joyga ko'chib o'tgan bo'lsa;

ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan va ta'lim olishni davom ettirish uchun ketayotgan bo'lsa.

Fuqarolar mudofaa ishlari organlari tomonidan belgilangan muddatlarda chaqiruv uchastkalarida hozir bo'lmaganda quyidagilar uzrli sabab hisoblanadi:

fuqaroning chaqiruv uchastkasiga kelishiga imkon bermagan kasalligi;

yaqin qarindoshining (otasi, onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, xotini, bolasi) vafot etganligi yoki og'ir kasalligi;

fuqaroga bog'liq bo'lmagan holda, uning chaqiruv uchastkasiga kelishiga imkon bermagan tabiiy ofat yoki boshqa holatlar.

Hozir bo'lmaganlik sabablari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish.

Chaqiriluvchilarning muddatli harbiy xizmatga, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish tuman (shahar) chaqiruv komissiyasining qarori asosida ularning oilaviy sharoitiga ko'ra, salomatligiga ko'ra, o'qishni davom ettirishi uchun amalga oshiriladi.

Chaqiriluvchilarning muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilish muddatini oilaviy sharoitga ko'ra kechiktirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) chaqiriluvchining ota-onasi mehnatga qobiliyatsiz bo'lib, ularni boqishi shart bo'lgan mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa. Ota-onaning mehnatga qobiliyatsizligi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi;

2) chaqiriluvchining mehnatga qobiliyatli yolg'iz onasi yoki otasi bo'lib, ularning qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lgani holda mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa;

3) chaqiruv kunida chaqiriluvchining tug'ishgan aka-ukalaridan biri muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa;

4) chaqiriluvchining onasiz tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan bir farzandi bo'lsa;

5) chaqiriluvchining birinchi yoki ikkinchi guruh nogiron xotini va voyaga yetmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lsa.

Chaqiriluvchini uning ota-onasi vafot etganligi, ular uzoq muddat betobligi munosabati bilan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra kamida besh -yildan beri o'z qaramog'ida saqlayotgan shaxslar uning ota-onasiga tenglashtiriladi.

Umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tahsil olayotgan chaqiriluvchilar, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi o'qishda tahsil olayotgan talabalar o'qishni davom ettirishlari uchun ularning chaqirilish muddati o'qishni tamomlagunlariga qadar kechiktiriladi.

Ta'lim muassasalaridan o'qishdan chiqarilgan shaxslar chaqirilish muddatini kechiktirish huquqidan mahrum bo'ladilar.

Chaqirilish muddatini kechiktirish asoslarini yo'qotgan chaqiriluvchilar, shuningdek yuqoridagi qonunga muvofiq zikr etilgan chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga yoxud chaqirilishdan ozod etish uchun asoslarga ega bo'lmagan va turli sabablarga ko'ra muddatli harbiy xizmatga yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilmagan shaxslar chaqirilish kuni yigirma yetti yoshga to'lguniga qadar Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi chaqiruv paytida chaqiriladilar.

Muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan ozod etish.

Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan quyidagilar ozod etiladilar:

1) salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan chaqiriluvchilar;

2) yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar;

3) ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlardan birida diniy rutba egasi bo'lgan chaqiriluvchilar.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar harbiy xizmatga chaqirilmaydilar.

Harbiy xizmat talablariga javob beruvchi quyidagi fuqarolar ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha) harbiy xizmatga kirishadilar.

o'ttiz yoshgacha bo'lgan, harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlik ko'rmagan harbiy xizmatga majburlar va ayollar – oddiy askarlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

muqaddam kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan oddiy askarlar va serjantlar tarkibidagi qirq yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar – oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majbur ayollar – oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o'n yetti yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan fuqarolar, shu jumladan o'qishga qabul qilingan -yili o'n yetti yoshga to'ladigan fuqarolar, shuningdek harbiy ta'lim muassasalarida o'qish istagini bildirgan, ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo'lmagan, o'n sakkiz yoshdan yigirma besh yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar – harbiy-ta'lim muassasalarining kursantlari tariqasida harbiy xizmatga;

qirq yoshgacha bo'lgan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar – ofitserlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga kiradilar.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirayotgan fuqarolar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tadilar.

Fuqarolar harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo'mitasi va idora bilan harbiy xizmatni o'tash to'g'risida kontrakt tuzadilar.

Kontraktlar tuzish, shu jumladan oliy harbiy-ta'lim muassasalarining kursantlari bilan kontraktlar tuzish, shuningdek kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibi. Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi ushbu Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi:

kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar (matrosalar), serjantlar (starshinalar) uchun – qirq besh yosh;

kichik ofitserlar uchun – qirq uch yosh;

katta ofitserlar uchun – qirq besh yosh, polkovniklar (I darajadagi kapitanlar) uchun – ellik yosh;

general-mayor, general-leytenant harbiy unvonidagi ofitserlar uchun – ellik besh yosh; general-polkovnik harbiy unvonidagi ofitserlar uchun – oltmish yosh etib belgilanadi.

Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, shuningdek yuksak kasbiy tayyorgarligi, egallab turgan lavozimida katta amaliy ish tajribasi bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo‘mtalari va idoralar rahbarlari tomonidan harbiy xizmatda bo‘lish yoshining chegarasidan besh -yilgacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Harbiy xizmatning boshlanishi va tugashi. Harbiy xizmatda bo‘lishning boshlanishi deb:

harbiy xizmatga chaqirilgan chaqiriluvchilar hamda zaxiradagi ofitserlar uchun – harbiy qismga jo‘nash maqsadida mudofaa ishlari organida hozir bo‘lgan kun;

kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirganlar uchun – harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi kontrakt kuchga kirgan kun;

harbiy-ta‘lim muassasalariga, shuningdek vazirliklar, davlat qo‘mtalari va idoralarning o‘qish harbiy xizmatga tenglashtirilgan ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirgan chaqiriluvchilar, harbiy xizmatga majburlar uchun – tegishli ta‘lim muassasasiga o‘qishga qabul qilingan kun hisoblanadi.

Harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatilishi yoki iste’foga chiqarilishi munosabati bilan harbiy qism komandirining buyrug‘iga binoan shaxsiy tarkib ro‘yxatidan chiqarilgan kun harbiy xizmatchi uchun harbiy xizmatda bo‘lishning tugashi hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi uning harbiy xizmat muddati tugagan kuni shaxsiy tarkib ro‘yxatidan chiqarilishi shart, quyidagi hollar bundan mustasno, agar harbiy xizmatchi:

statsionar davolanishda bo‘lsa;

homiladorlik va tug‘ish ta‘tilida (harbiy xizmatchi ayollar) yoki bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lsa;

asirda bo‘lsa, garovda ushlab turilgan bo‘lsa;

bedarak yo‘qolgan bo‘lsa – qonunda belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb topilguniga yoki vafot etgan deb e‘lon qilinguniga qadar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan boshqa hollarda.

Harbiy xizmatdan bo‘shatish. Harbiy xizmatchini haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatish quyidagi asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi:

– u harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatda bo‘lishining belgilangan yosh chegarasiga yetganida;

– muddatli harbiy xizmat muddati tugaganda;

– kontrakt muddati tugaganda;

– shtatlar qisqarganda yoki boshqa tashkiliy-shtat tadbir-choralari munosabati bilan harbiy xizmatchidan xizmatda foydalanish imkoniyati bo‘lmay qolganda;

– salomatligiga ko‘ra – uni harbiy-tibbiy komissiya harbiy xizmatga yaroqsiz deb topganligi munosabati bilan;

– qonun hujjatlariga muvofiq taraflardan birining tashabbusiga ko‘ra kontrakt muddatidan oldin bekor qilinganligi munosabati bilan;

– harbiy-ta‘lim muassasasidan o‘qishdan chiqarilganligi munosabati bilan;

– xizmat vazifasiga noloyiq bo‘lib qolganda;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum bo‘lishi munosabati bilan;

– harbiy xizmatchi harbiy unvonidan mahrum etilishi munosabati bilan;

– sud hukmi qonuniy kuchga kirganda.

Harbiy xizmatchilarni harbiy xizmatdan bo‘shatish ularni tegishli lavozimlarga tayinlash vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatiladi, harbiy xizmatdan bo‘shatish paytida rezervda bo‘lish yoshining chegarasiga yetgan yoki harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan harbiy xizmatchilar esa iste’foga chiqarilib, harbiy ro‘yxatdan chiqariladi.

Rezervda bo‘lish yoshining chegarasi. Rezerv darajalari. Rezervdagi harbiy xizmatga majburlar yoshiga qarab ikki darajaga bo‘linadi.

Tarkib	Yosh chegara	
	1-daraja	2-daraja
Oddiy askarlar va serjantlar	35 yoshgacha	45 yoshgacha
Kichik ofitserlar	35 yoshgacha	45 yoshgacha
Katta ofitserlar	45 yoshgacha	55 yoshgacha
Generallar	50 yoshgacha	60 yoshgacha

Ikkinchi daraja rezervida bo'lish yoshining chegarasi rezervdagi harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi hisoblanadi.

Rezervda bo'lish yoshining chegarasiga yetgan yoki salomatligiga ko'ra belgilangan tartibda urush davridagi harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan harbiy xizmatga majburlar mudofaa ishlari organlari tomonidan iste'foga chiqarilib, harbiy ro'yxatdan chiqariladi.

Muqobil xizmat tushunchasi – fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir.

O'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ular diniy ta'limoti qurol-yarog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega.

Muqobil xizmatning muddati yigirma to'rt oyni, oliy ma'lumotli fuqarolar uchun esa o'n sakkiz oyni tashkil etadi.

Muqobil xizmatga chaqirilish, uni o'tash tartibi. Fuqarolarning muqobil xizmatga chaqirilishi muddatli harbiy xizmatga chaqiriladiganlar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi, chaqiruvni tashkil etish va o'tkazish esa tuman (shahar) chaqiruv komissiyalari va hokimliklari zimmasiga yuklatiladi.

Fuqarolar muqobil xizmatni turar joylaridagi yoki mamlakatning boshqa mintaqalaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda o'taydilar. Bunday korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxati, shuningdek muqobil xizmatdagi xizmatchilar shug'ullanishi mumkin bo'lgan ishlar va kasblarning turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarga ish haqining sakson foizi to'lanadi.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarning ish haqidan ushlab qolinayotgan summalar respublika budjetiga o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi muqobil xizmat tuzilmalariga rahbarlikni mudofaa ishlari organlari amalga oshiradi.

Muqobil xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Muqobil xizmatdagi xizmatchilarning harbiy tayyorgarligi. Muqobil xizmatdagi xizmatchilar harbiy tayyorgarlik yig'inlariga (mashg'ulotlariga) jalb etiladilar, ular shu asnoda qurol-yarog'dan foydalanish, ularni qo'llanish bilan bog'liq bo'lmagan harbiy hisobdagi ixtisoslikni egallaydilar va Harbiy qasamyod qabul qiladilar. Harbiy tayyorgarlik dasturi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi.

Muqobil xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar Qurolli Kuchlar zaxirasiga o'tkaziladi.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari. Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi. Muqobil xizmat muddati mehnat stajiga qo'shiladi.

Muqobil xizmatni o'tayotganda mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar va halok bo'lgan fuqarolarning oilalari, shuningdek ularning qaramog'ida bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan nafaqalar va pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqaro uni belgilangan joyda o'tashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga, ish joyida amal qiladigan ichki mehnat tartibi qoidalariga, shuningdek mehnat shartnomasi (kontrakti) shartlariga rioya etishi shart.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqaro rahbarlik va saylab qo'yiladigan lavozimlarni egallashi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi mumkin emas.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar falokatlar, halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf qilish ishlariga jalb etilgan taqdirda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqadigan hamda ana shu oqibatlarni bartaraf etish komissiyalari yoki shtablarining joylardagi rahbarlari tomonidan belgilanadigan maxsus vazifalarni bajaradilar.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqaro ushbu xizmatdan bo'shatilganidan keyin ilgarigi ishiga yoki unga teng ishga (lavozimga), shuningdek chaqirilishga qadar o'zi o'qigan ta'lim muassasasiga qaytish huquqiga ega.

Muqobil xizmatdan bo'shatish. Muqobil xizmatning belgilangan muddatlarini o'tab bo'lgan fuqarolarni xizmatdan bo'shatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida amalga oshiriladi.

Fuqaro oilaviy ahvoli o'zgarganligi munosabati bilan, agar bu hol unga qonun hujjatlariga muvofiq chaqirilish muddatini kechiktirish yoki

chaqirilishdan ozod etilish huquqini beradigan bo'lsa, muqobil xizmatdan muddatidan oldin bo'shatilishi mumkin.

Muqobil xizmatdan muddatidan oldin bo'shatish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qabul qiladi.

Safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirilish. Fuqarolarning safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari asosida o'tkaziladi.

Safarbarlik e'lon qilingan taqdirda bu vaqtda harbiy xizmatda va harbiy yig'inlarda bo'lgan barcha fuqarolar alohida farmoyish berilguniga qadar xizmatni davom ettirib turadi, harbiy xizmatga majburlar esa harbiy xizmatga chaqiriladi. Harbiy xizmatchilarning ta'tillari bekor qilinadi. Harbiy xizmatga majburlar o'zlari qayd etilgan joydagi tuman (shahar) mudofaa ishlari organida, harbiy xizmatchilar esa xizmatni o'tayotgan joyda hozir bo'lishi shart. Safarbarlik e'lon qilinishi bilan tuman (shahar) chaqiruv komissiyalarining chaqirilish yoshidagi fuqarolarning chaqirilish muddatini kechiktirish va ularni chaqirilishdan ozod etish to'g'risidagi qarorlari bekor qilinadi. Chaqirilish muddatini kechiktirish hamda chaqirilishdan ozod etish bundan keyin faqat salomatligi holatiga ko'ra va maxsus hisobda turganligiga qarab qo'llanilishi mumkin.

Safarbarlik e'lon qilinganida va urush davrida harbiy xizmatga o'n sakkiz yoshdan boshlab «Umum harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunda belgilangan rezerv va zaxirada bo'lish yoshi chegarasiga qadar yoshdagi harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar hamda harbiy ro'yxatda turmagan o'n sakkiz yoshdan qirq besh yoshgacha bo'lgan ayollar (o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalari bor ayollar bundan mustasno) chaqirilishlari mumkin.

Safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirilish faqat mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mudofaa vazirligida vazir (rais), uning o'rinbosarlari, tuzilma bo'linmalarining rahbar kadrlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi.

Hay'at a'zolarini vazirning taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Hay'at majlislarida harbiy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, buyruqlar ijrosini nazorat qilish, kadrlarni tanlash, vazirlik apparatining ishini yaxshilash masalalari ko'rib chiqiladi, rahbar xodimlarning hisobotlari eshitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

tayinlaydigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlaydigan vazir boshchilik qiladi.

Mudofaa vaziri o'ziga bo'ysunadigan tuzilma bo'linmalarining barcha faoliyatiga rahbarlik qiladi.

2. Adliya vazirligining huquqiy holati, tizimi va asosiy vazifalari

Adliya sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 27-avgust 370-sonli qarori asosida amalga oshiriladi. Ushbu qaror bilan vazirlik nizomi, vazirlik tizimining tashkiliy tuzilmasi, vazirlikning tuzilmalari tashkil qilingan va tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o'z maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti, boshqa adliya organlari va muassasalari kiradi.

Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Vazirlikka bo'ysunadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamentining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan tartibga solinadi.

Adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek adliya tizimining xodimlari mehnatiga haq to'lash Vazirlikka ajratiladigan mablag' doirasida davlat budjeti Sudlar, adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;

2) Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama rivojlantirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

3) jamiyatda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

4) sudlarni moddiy-texnik jihatidan va moliyaviy ta'minlash bo'yicha ishlarining samaradorligini oshirish, ularning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sud hujjatlari va davlat organlari boshqa hujjatlari ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmini yaratish;

5) notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va ularning samaradorligini oshirish;

6) tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari, xorijiy investorlar va chet el investitsiyalari jalb qilingan korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

7) xo'jalik yurituvchi subyektlarga xo'jalik shartnomalarini tuzish va ularni bajarishda huquqiy yordam ko'rsatish hamda shartnoma intizomini mustahkamlash;

8) yuridik shaxslar, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazishda qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash;

9) tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini samarali huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

10) zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda huquqshunos kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

11) adliya organlari va muassasalari tizimiga rahbarlikni amalga oshirish.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish sohasida:

a) qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish sohasida:

davlat boshqaruvi organlarining qonun ijodkorligi masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqadi, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonun loyihalarini tayyorlashning zarurligi masalalari bo'yicha oldindan kelishishni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbusiga ko'ra qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi loyihalarni ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonun loyihalarini tayyorlash masalalari bo'yicha takliflarini ko'rib chiqadi va umumlashtiradi;

qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yuridik ekspertizadan o'tkazadi va ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi yuzasidan xulosalar beradi;

qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqlashtirish, huquqiy tartibga solishning tizimga solinishini va yaxlitligini ta'minlash to'g'risida takliflar ishlab chiqadi, qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflarni tahlil qiladi va umumlashtiradi hamda ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga taqdim qiladi, qonun hujjatlarini kodekslashtirish bo'yicha ishlarni olib boradi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, ularning Kengashlari, qo'mitalari va komissiyalari bilan doimiy amaliy aloqada bo'ladi;

b) idoraviy norma ijodkorligi sohasida:

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umumiy majburiy tushadigan normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestrini yuritadi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish, shuningdek ularni qo'llash bo'yicha ishlarini nazorat qiladi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning holati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilib turadi;

d) qonunchilikni tizimlashtirish sohasida:

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini davlat hisobiga olish va qonun hujjatlarini turkumlash ishlarini olib boradi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlarining nazorat nusxalarini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini bankini (fondini) shakllantiradi;

O'zbekiston Respublikasi tarmoq qonunchiligining umumhuquqiy klassifikatorini rivojlantirishni amalga oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlarga klassifikator asosida kodlar beradi;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonun hujjatlarining turkumlashtirilgan hisobini yuritish qoidalarini belgilaydi va ularga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

ye) huquqni qo'llash amaliyoti sohasida:

huquqni qo'llash amaliyoti masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini bir xilda qo'llanilishini ta'minlash ishlarini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalari bo'yicha takliflar kiritadi;

qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida xulosalar beradi;

2) Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan inson huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash sohasida:

inson huquqlari sohasida qonun hujjatlarini doimiy ravishda tahlil qiladi va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

xalqaro tajribani o'rganadi va xalqaro-huquqiy normalarning O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlaridagi ijrosi bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

inson huquq va erkinliklari sohasida aholining huquqiy bilimlarini oshirish, jamiyatda inson huquqlarini hurmat qilish g'oyasini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

inson huquqlari sohasida qonun hujjatlariga rioya qilishning holatini o'rganadi va umumlashtiradi hamda uni yaxshilash yuzasidan tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda advokatlik tuzilmalarining rolini kuchaytirishga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda ularning huquqiy asoslari mustahkamlanishiga ko'maklashadi;

inson huquqlari bo'yicha, shu jumladan inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishi monitoringi sohasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini xolisona va har tomonlama ko'rib chiqilishini ta'minlaydi, ular bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq chora-tadbirlar ko'radi;

3) davlat organlarining huquqiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish sohasida:

huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'limning ahvolini tahlil qiladi, ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga, qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy bilimlarni aholi o'rtasida targ'ib qilinishini tashkil etadi;

huquq sohasida ta'lim ishlari metodik jihatdan ta'minlanishini tashkil etadi, huquqiy tarbiya va ta'limning zamonaviy shakllarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

oliy va o'rta maxsus hamda kasb-hunar o'quv yurtlarining talabalari va o'quvchilari uchun yuridik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlari, shuningdek, ilmiy-ommabop va boshqa yuridik adabiyotlar nashr etish rejalarini ishlab chiqadi va nashr etilishini tashkil etadi;

jamiyatni huquqiy axborot bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish dasturlari va tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

adliya organlari va muassasalari uchun huquqiy axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning dasturiy-texnik vositalari va texnologiyalari joriy etilishini tashkil qiladi;

adliya organlari va muassasalarini zarur qonunchilik materiallari bilan ta'minlash choralari ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasini yaratish va saqlashni tashkil qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarning ulardan belgilangan tartibda foydalanishini ta'minlaydi;

huquqiy axborotlar davlatlararo almashinishini amalga oshiradi;

kodekslar va qonun hujjatlari to'plamlarini, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbai hisoblangan «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami»ning rasmiy nashr etilishini tashkil etadi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning normativ-huquqiy hujjatlarni nashr etish, qonun hujjatlari ma'lumotlarining elektron bazasini yaratish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi;

tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va tarqatish, qonun hujjatlari ma'lumotlarining elektron bazasini yaratish qoidalarini belgilaydi, ularning ijro etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

4) sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, shuningdek sud hujjatlari va boshqa davlat organlari hujjatlari ijrosini ta'minlash sohasida:

sudlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni moliyalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

sudlarning binolarini qurish va ta'mirlashga, sudlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga ajratilgan mablag'larning samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

sudlar va sud jarayonlari xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etadi;

sudlarning faoliyatini ta'minlash, ularning amaldagi mustaqilligini mustahkamlash masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

sud hujjatlari va boshqa davlat organlari hujjatlari ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratadi;

5) huquqiy xizmat ko'rsatishning davlat tomonidan tartibga solinishini amalga oshirish sohasida:

a) notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish faoliyatini tashkil etish bo'yicha:

davlat notarial idoralari tashkil etadi va tugatadi, notarius lavozimini ta'sis etadi va tugatadi;

davlat notarial idoralari davlat reyestrini yuritadi;

stajor notarius faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi, Oliy malaka komissiyasi va malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

chet elda foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlardagi notariuslar imzosining va ular muhri ko'chirmasining haqiqiylikini tasdiqlaydi, notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalarni bajaradi;

notariuslar tomonidan xizmat majburiyatlarining, shu jumladan notarial ish yurituv qoidalarining bajarilishi yuzasidan belgilangan tartibda nazorat olib boradi, ularning ishini tahlil qiladi va umumlashtiradi;

notarial ish yuritish qoidalarini, notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni, notarial harakatlar, tasdiqlovchi yozuvlar va guvohnomalarni ro'yxatga olish reyestrlari shaklini tasdiqlaydi, O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi qonunida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olishni tashkil qiladi, FHDYO organlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va ularni nazorat qiladi;

FHDYO organlarini tashkil qiladi, qayta tashkil qiladi va tugatadi, ularning ishini tekshiradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

FHDYO va notariat idoralari xodimlari tomonidan fuqarolarga huquqiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi;

fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish blankalari namunalarini tasdiqlaydi;

FHDYO organlarini va O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik muassasalarini qat'iy hisobdagi gerbli guvohnomalar blankalari bilan ta'minlaydi;

notariat va FHDYO organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ushbu organlar uchun ko'rsatmalar va uslubiy tushuntirishlar beradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda davlat notarial idoralarining notariuslari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar, FHDYO organlari tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan pulli xizmatlar ro'yxatlarini, ushbu harakatlar amalga oshirilganligi va xizmatlar ko'rsatilganligi uchun, shuningdek notarial arxivlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga notarial tasdiqlangan hujjatlar dublikatlari, ro'yxatlardan ko'chirmalar,

ma'lumotnomalar va arxiv hujjatlarining nusxalari berilganligi uchun to'lovlar miqdorlarini tasdiqlaydi;

b) advokatura va yuridik xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha.

advokatlarning respublika jamoat birlashmasi bilan birgalikda malaka komissiyalari vakolatlarini va ular faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

advokatlarning respublika jamoat birlashmasi bilan birgalikda advokatlarning Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi;

advokatlarga litsenziyalar berishni va advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

advokatlar, shuningdek advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarining reyestrini yuritadi;

advokatlik byurolari, hay'atlari, firmalari va advokatlarning Oliy malaka komissiyasining faoliyatiga metodik yordam ko'rsatadi va ko'maklashadi;

advokatlarning ijobiy ish tajribasini o'rganadi va ommalashtiradi;

advokatlar malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

advokatlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ta'qiblar, asossiz cheklashlar va tajovuzlardan advokatlarni himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi;

advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga, advokatlik etikasi qoidalariga rioya qilinishi, shuningdek advokatlarning kasbiy tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarining adliya organlariga statistika hisoboti taqdim qilish shakllarini tasdiqlaydi va muddatlarini belgilaydi;

yuridik xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda huquqiy ishlarni muvofiqlashtiradi, ularni yaxshilashga doir tavsiyalar ishlab chiqadi;

huquqiy ishlarni yo'lga qo'yish amaliyotini tekshiradi va tahlil qiladi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yuridik xizmatlarining ishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ijobiy ish tajribasini yoyish, yuridik maslahatchilarning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi, ularni attestatsiyadan o'tkazadi;

6) tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash sohasida;

huquqiy ta'minot samaradorligini oshirishga va tadbirkorlikni rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha qonun hujjatlariga va normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy rioya qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, kichik korxonalarni, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini o'rganadi, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

nazorat qiluvchi organlar o'tkazayotgan tekshirishlarning qonuniyligi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

jinoiy, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy ishlar materiallarini belgilangan tartibda o'rganadi;

davlat tuzilmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatidagi noqonuniy holatlarni tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirgan holda aniqlaydi, o'rganadi va monitoringni amalga oshiradi;

tadbirkorlik subyektlarining, shu jumladan xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi holatlari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqadi, ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ularni xabardor qiladi;

7) shartnomaviy-huquqiy munosabatlar sohasida:

xo'jalik yurituvchi subyektlarga xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarishda huquqiy yordam ko'rsatadi;

shartnoma intizomini takomillashtirish yuzasidan belgilangan tartibda takliflar ishlab chiqadi va kiritadi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarni va eng avvalo, ularning mansabdor shaxslarini shartnoma intizomini buzganlik uchun javobgarlikka tortish bo'yicha belgilangan choralar qo'llanilishini nazorat qiladi;

xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining shartnoma intizomiga rioya etish yuzasidan javobgarligini oshirish ishlarini olib boradi;

8) yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida:

nodavlat notijorat tashkilotlarini, shu jumladan jamoat birlashmalari (diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar)ni, xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalarini va filiallarini davlat ro'yxatidan o'tkazadi, ko'rsatib o'tilgan vakolatxonalar va filiallarning xorijiy davlatlar fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek ularning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolarini akkreditatsiyadan o'tkazadi;

auditorlik va sug'urta tashkilotlarini, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarini, birjalar, bozorlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishda qonuniylikka rioya qilinishini ta'minlaydi;

o'zi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslarning davlat reyestrini yuritadi;

adliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustav faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya etilishi yuzasidan nazorat olib boradi;

moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va o'z ustav fondlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda shakllantirmagan korxonalarini tugatish bo'yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar ko'radi;

siyosiy partiyalarning ustavlarida nazarda tutilgan faoliyatni moliyalashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan davlat mablag'larini ular o'rtasida taqsimlaydi;

9) xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini samarali huquqiy himoya qilish sohasida:

belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish bo'yicha takliflarni kelishadi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tayyorlash va bajarishda ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasining huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, tuzish va bajarish haqida belgilangan tartibda takliflar taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi tomonlardan biri hisoblanadigan xalqaro-huquqiy hujjatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida tuzilgan qarz va kredit shartnomalari bo'yicha yuridik xulosalar beradi;

xalqaro shartnomalar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;

o'z vakolatlari doirasida boshqa davlatlarning tegishli organlari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to'g'risida shartnomalar tuzadi;

xalqaro-huquqiy axborot masalalari bo'yicha ma'lumotlar bankini tashkil etadi;

o'z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlarda O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi;

xorijiy davlatlar sudlarida tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi bo'lgan nizolar ko'rib chiqilayotganda vakillik qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks-Prezidentining huquqlari va qonuniy manfaatlarini huquqiy, shu jumladan sudda himoya qilishni amalga oshiradi;

10) huquqshunos kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida:

davlat organlarining yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi, ularni Toshkent davlat yuridik institutida, Toshkent yuridik kollejida, Toshkent davlat yuridik instituti huzuridagi akademik litseyda va Vazirlik tizimining boshqa o'quv yurtlarida tayyorlash ishlarini tashkil etadi va rahbarlik qiladi;

zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi, huquqshunoslar o'rtasida kadrlar siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

adliya organlari va muassasalarining kadrlar zaxirasini yaratadi, kadrlar tayyorlashni tashkil etadi, tanlashni amalga oshiradi va belgilangan tartibda joy-joyiga qo'yishda qatnashadi, ularni qayta tayyorlashni tashkil etadi;

11) fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida:

adliya organlari va muassasalari xodimlarining noqonuniy harakatlari ustidan fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqadi, ushbu masalalar bo'yicha shikoyatlar har tomonlama xolisona ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

qonunchilikning buzilishi holatlari yuzasidan tushgan shikoyatlarni zarur hollarda joylarda mutasaddi tashkilotlar va mutaxassislar bilan birgalikda tekshirib, adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi;

adliya organlari va muassasalarining shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatini o'rganadi va bu boradagi ishlarni umumlashtiradi, shu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqadi;

12) huquqiy statistika sohasida:

davlat organlari va boshqa organlardan olingan huquqiy statistika ma'lumotlarini umumlashtiradi va tahlil qiladi, ushbu masalalar bo'yicha statistika hisoboti yuritish va tahlil qilishga metodik rahbarlikni ta'minlaydi;

adliya organlari va muassasalarida statistika hisoboti va birlamchi hisobga olish hujjatlari shakllarini ishlab chiqadi;

advokatura faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'playdi va o'rganadi;

fuqarolik holati dalolatnomalarini va notarial harakatlarni ro'yxatga olishni, shuningdek adliya organlari va muassasalari faoliyatining boshqa yo'nalishlari bo'yicha statistikani yuritadi;

doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlilik sudlari hisobini ro'yxatdan o'tkazish va muvaqqat hakamlilik sudlarini hisobga olishni amalga oshiradi.

13) adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalashtirish sohasida:

adliya tizimi xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;

adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi, adliya organlari, davlat notarial idoralari, FHDYO bo'limlari, sud ijrochilari bo'limlari va boshqa adliya muassasalari binolarini kapital qurish va ta'mirlash choralari ko'radi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritadi;

adliya organlari va muassasalarini belgilangan tartibda moliyaviy ta'minlashni amalga oshiradi, adliya tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etadi va nazorat qiladi;

adliya organlari va muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

14) sud-ekspert, ilmiy va ta'lim muassasalarini rivojlantirish sohasida:

huquqiy fanlarni rivojlantirish choralari ko'radi, sud-ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot, ekspertlik ishlarini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspert muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga ilmiy-metodik rahbarlik qiladi, shuningdek Sud ekspertizasi muammolari bo'yicha kengashni boshqaradi;

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertizasi markazi faoliyatini tashkiliy ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi, Respublika yuristlar malakasini oshirish markazi, Toshkent davlat yuridik instituti, Toshkent yuridik kolleji va boshqa adliya muassasalari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bevosita, shuningdek o'ziga buysunuvchi respublika organlari va hududiy organlar orqali amalga oshiradi.

Vazirlik o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1) davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslardan belgilangan tartibda zarur ma'lumotlar, hujjatlar va materiallarni, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish sohasida tahliliy, statistika materiallari va boshqa materiallarni so'rash va olish;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini va boshqa davlat organlari ko'rib chiqishi uchun qonun hujjatlarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

3) davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash masalalari bo'yicha metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, ilmiy muassasalar, o'quv yurtlari va boshqa tashkilotlardan qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha xulosalar olish hamda ko'rsatib o'tilgan organlar va tashkilotlar rahbarlari bilan kelishgan holda ushbu loyihalarni tayyorlash bo'yicha komissiyalar (ishchi guruhlar) tashkil etish;

5) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, e'lon qilish va

manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish bo'yicha belgilangan tartibga ular tomonidan rioya qilinishi, shuningdek ularning qo'llanilishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish;

6) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarga davlat ro'yxatidan o'tmagan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish va ijrodan chaqirib olish to'g'risida, buzilgan huquqlarni tiklash, yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish, shuningdek tegishli organlar oldiga bunda aybdor mansabdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani qo'yish;

7) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda davlat reyestridan chiqarish yoxud ularning (to'liq yoki qisman) amal qilishini to'xtatish;

8) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarga:
normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish muddatini ko'rsatgan holda ularni qabul qilish zarurligi to'g'risida;
qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, yoxud ularni qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish to'g'risida taqdimnomalar kiritish;

9) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi bo'yicha ishlarning holatini o'rganish. O'rganish natijalari bo'yicha tegishli organlar rahbarlariga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari zarur darajada qo'llanilishi to'g'risida taqdimnomalar kiritish;

10) Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) holatlari yuzasidan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarini javobgarlikka tortish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ko'rib chiqishi uchun kiritish;

11) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish.

Ko'rsatib o'tilgan organlarning rahbarlariga aniqlangan qonun hujjatlari buzilishini va uning sabablari hamda unga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash chora-tadbirlarini ko'rish to'g'risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

12) xorijiy davlatlarning sudlarida O'zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor huquqiy nizolar bo'yicha da'vogar va javobgarning vakili sifatida ishtirok etish;

13) huquqiy, shu jumladan, sud masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks-Prezidentining vakili sifatida ishtirok etish;

14) tegishli organlarga sudyalari va sud apparati mehnat sharoitlarini yaxshilash, moddiy va ijtimoiy ta'minlash yuzasidan takliflar kiritish;

15) advokatlariga berilgan litsenziyalarning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish va to'xtatish;

16) advokatlar malaka komissiyalariga advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini kiritish;

17) advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalariga aniqlangan qonun hujjatlari buzilishini bartaraf qilish to'g'risida ko'rsatmalar yuborish;

18) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda huquqiy ishlar holatini, shuningdek, ularning yuridik xizmatlari faoliyatini tekshirish, ulardan amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etishlarini talab qilish, ko'rsatilgan organlarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish, qonun hujjatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yoki ularning aybi bilan davlatga yoki korxona, muassasa va tashkilotga yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi masala bilan yuqori turuvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish;

19) xizmat majburiyatlarini qo'pol ravishda buzilishiga yo'l qo'yayotgan yuridik xizmat xodimlariga berilgan attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalarni bekor qilish;

20) tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni javobgarlikka tortishning asoslilikini zarur hujjatlar, shu jumladan jinoiy, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy ishlar materiallari bilan tanishish yo'li bilan o'rganib chiqish;

21) tadbirkorlarning «ishonch telefoni» orqali tushayotgan murojaatlarini ko'rib chiqish, barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlar, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar huquqlariga rioya etish bo'yicha qonun hujjatlari og'ishmay bajarilishini tekshirish. Ko'rsatib o'tilgan organlar va tashkilotlar rahbarlariga belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan;

aniqlangan qonun hujjatlari buzishlarini, qonun buzilishining sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;

tadbirkorlar, shu jumladan xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'rish;

22) Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan inson huquq va erkinliklari, tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mansabdor shaxslar tomonidan buzilishi holatlari aniqlanganda, shuningdek adliya organlarining qonuniy talablari mansabdor shaxslar tomonidan bajarilmaganda aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani tegishli organlar oldiga qo'yish;

23) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shu jumladan nazorat organlari va litsenziyalovchi organlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar huquqlarini buzuvchi qarorlarini, shuningdek ular mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) to'xtatib qo'yish;

24) jinoiy, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy ishlar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi sud hujjatlarini davlat boji to'lamasdan qayta ko'rib chiqish to'g'risida sud instansiyalariga taqdimnomalar kiritish;

25) tadbirkorlar va xususiy mulk egalari huquqlariga rioya qilish bo'yicha qonun hujjatlarining buzilishi mumkin emasligi to'g'risida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

26) fuqarolarning, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning o'z

huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida murojaatlarni tekshirish uchun tegishli mutaxassislarini jalb qilish;

27) xo'jalik shartnomalari bajarilishi jarayonini nazorat qilish, shartnoma intizomi buzilgan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyektlarga mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi va sudlarda da'vo qo'zg'ashlari, shuningdek shartnoma majburiyatlarini bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida yetkazilgan zararni qoplashlari yuzasidan belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan tegishli taqdimnomalar kiritish; taqdimnomada bayon qilingan talablar belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda vakolatli organlar yoki sudlar oldiga shartnoma intizomini buzganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish;

28) adliya organlarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga amal qilishini tekshirish, ulardan kerakli hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etishlarini talab qilish, ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxslarning rahbarlariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish, ta'sis hujjatlarini va amaldagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun mansabdor shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish, shuningdek, ularning aybi bilan davlatga yoki korxonaga yetkazilgan moddiy zararni undirish uchun yuqori turuvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish;

siyosiy partiyalarning ustavlarida nazarda tutilgan faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish;

28.1) Xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlar vakolatxonalari va filiallarining xodimlarini, ular tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari buzilgan hollarda akkreditatsiyadan mahrum qilish;

29) o'z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlar organlari va xalqaro tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish;

30) barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlardan huquqiy statistikani tashkil etish va yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

31) davlat, yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini ko'zlab sudlarga davlat boji to'lamasdan arizalar va da'volar bilan murojaat qilish;

32) adliya organlari va muassasalari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tegishli bo'linmalar tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek, ularning ustavlari (nizomlari)ni tasdiqlash.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Vazirlikning Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi, Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi va ularning joylardagi bo'limlarining xodimlari o'z vakolati doirasida nazoratni amalga oshirishda:

tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishishda xizmat guvohnomasini ko'rsatib tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarining, korxona va tashkilotlarning tobeligidan, mansubligidan qat'i nazar, hududlariga va binolariga kirishga;

o'rganish uchun zarur bo'ladigan qarorlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni talab qilib olishga, tadbirkorlar, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar huquqiga rioya qilish bo'yicha qonuniylikning ahvoli, shuningdek uni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga;

mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko'rsatib o'tilgan organlar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini chaqirishga, ulardan tadbirkorlarning, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlariga rioya qilinishi bo'yicha qonun hujjatlarining buzilishi yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

Vazirlik o'z vakolati doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, notariuslar, advokatlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir.

Vazirlik, zarur hollarda boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlarni chiqarishga haqlidir.

Vazirlik qonun ijodkorligi sohasida davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash va o'ziga yuklangan boshqa vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Adliya vaziri boshchilik qiladi.

Vazirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan besh nafar o'rinbosarlari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

Vazir:

1) yakkaboshchilik asosida Vazirlik faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

2) o'z o'rinbosarlari vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Vazirlik tizimidagi boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini, Vazirlik faoliyatining alohida qismlari hamda unga bo'ysunuvchi organlar va muassasalarning ishi uchun o'z o'rinbosarlarining va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligi darajasini belgilaydi;

3) Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolaydi;

4) Vazirlik tarkibiy va hududiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, shuningdek, Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa o'ziga qarashli organlar va muassasalarning nizom (ustav)larini tasdiqlaydi;

5) xodimlar belgilangan umumiy soni doirasida Vazirlik markaziy apparati tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritadi, shtat jadvalini tasdiqlaydi;

6) Vazirlik markaziy apparatining, shuningdek adliya organlari va muassasalarining xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

7) respublika notariat va FHDYO muassasalari tizimini tasdiqlaydi;

8) tegishli davlat organlariga adliya organlari va muassasalarini tashkil etish hamda ularning xodimlari sonini belgilash to'g'risida takliflar kiritadi;

9) Vazirlik markaziy apparati, adliya organlari va muassasalari xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

10) Vazirlik markaziy apparati xodimlarini, uning hududiy bo'linmalari rahbarlarini, shuningdek Vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa o'ziga qarashli organlar va muassasalar rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

11) adliya organlari va muassasalari xodimlariga belgilangan tartibda martaba darajalari beradi, adliya organlari va muassasalari xodimlariga oliy martaba darajalari berish uchun ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etadi;

12) adliya organlari va muassasalarining xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, Vazirlik tizimining alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini faxriy unvonlar berishga va O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlashga taqdim etadi;

13) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Adliya organlari va muassasalari, shu jumladan Vazirlik tizimidagi ilmiy muassasalar va o'quv yurtlari xodimlariga egallab turgan lavozimiga va ish stajiga muvofiq maxsus darajali unvonlar hamda martaba darajalari beriladi va belgilangan xizmat muddati uchun ustama haqi to'lab boriladi.

Martaba darajalari berish va undan mahrum etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan tartibga solinadi.

Vazirlikda Vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Vazirning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Vazirlik faoliyatining qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishni davom ettirish, ularning amalga oshirilishini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama rivojlantirish, huquqiy targ'ibot bo'yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, tadbirkorlikni huquqiy ta'minlash va rivojlantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari va xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shartnoma intizomini mustahkamlash, huquqshunos kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Adliya vazirligi rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Vazirlik vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda rais paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

3. Ma'muriy-siyosiy faoliyat sohasi boshqaruvida o'tkazilayotgan izchil islohotlar

Ma'lumki, mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida erkinlashtirish, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy sohalarni, ma'muriy-siyosiy sohalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur islohotlarning amalga oshirilishi jarayonida ma'muriy sohada ham bir qator ijobiy ahamiyatga molik ishlar bajarildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» deb nomlangan ma'ruzasini ma'muriy-siyosiy sohadagi samarali islohotlar sifatida e'tirof etish mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi yo'nalishlarni demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilash zarur:

- davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish;
- sud-huquq tizimini isloh etish;

– axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash;

– Oʻzbekistonda saylov huquqi erkinligini taʼminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;

– fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish;

– demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish»¹.

Maʼmuriy siyosiy faoliyat sohasida boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish borasida oʻtkazilayotgan izchil islohotlar mamlakatimizning tashqi va ichki siyosati tamo-yillari va yoʻnalishlari asosida amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilanganidek, Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning toʻla huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum eʼtirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini taʼminlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdoʻstliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

Maʼlumki, mamlakatimizning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va maʼnaviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Bu sohada biz yuritadigan siyosatning huquqiy asoslari 1995-yil 30-avgustda Oliy Majlis tomonidan «Oʻzbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi toʻgʻrisida»gi qabul qilingan qarori, keyinchalik Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Mudofaa doktrinasi toʻgʻrisida»gi 2000-yil 11-fevraldagi farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasining «Mudofaa toʻgʻrisida»gi² 2001-yil 11-may qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining «Umum-harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida»³gi 2002-yil 12-dekabr qonunlari bilan mustahkamlab qoʻyilgan.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза (2010 йил 12 ноябрь). – Т., 2010.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 2001. – № 5. – 80-м.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 1. – 18-м.

Soʻngi yillarda bu sohada yana quyidagi qonun hujjatlari qabul qilindi xususan, Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kunini belgilash toʻgʻrisida»gi¹ 2006-yil 29-noyabr qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni oʻtash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisi»dagi farmoni qabul qilindi², 2008-yil 20-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yigʻish va joʻnatish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarishni tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisi»dagi qarori³, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvarda «Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yigʻish va joʻnatish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarish tartibi toʻgʻrisi»da nizom tasdiqlandi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati qanday normativ hujjatlarda mustahkamlab qoʻyilgan?

2. Mudofaa sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi haqida soʻzlab bering.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi mudofaa sohasida qanday vakolatlarga ega?

4. Mudofaa sohasida Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi va Harbiy okruglarning vazifalari hamda fuqarolarning majburiyatlariga nimalar kiradi?

5. Mudofaa sohasida davlat boshqaruvi organlarining ichki ishlar idoralari bilan oʻzaro hamkorligi haqida tushuntirib bering.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qanday vakolatlarga ega?

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2006. – № 48–50. – 472-м.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2008. – № 47. – 462-м.

³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2009. – №3. – 13-м.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

RAHBARIY ADABIYOTLAR

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10 – Т., 2002.

Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003.

Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т., 2004.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13.– Т., 2005.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маданиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.

Каримов И.А. Ватанга қасамёд, мардлик ва жасорат мадҳияси. Т. 18. – Т., 2010.

Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва жамиятни шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. – Т., 2011.

Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т., 2011.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUUJATLARI

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2011.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси. – Т., 2009.

Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат бирлашмалари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1991. – №4. – 76-м.

«Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ов қилиш ва овчилик-балиқ овлаш хўжалигини юритиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 10 апрелдаги қарори // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 1991. – №4. – 10-м.

«Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида»ги қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1991. – №11. – 246-м.

«Давлат санитария назорати тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 3 июлдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1992. – №9. – 355-м.

«Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. – №1. – 38-м.

«Қасаба уюшмалари, уларнинг ҳуқуқлари ва фаолиятининг кафолатлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 2 июлдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1992. – №9. – 344-м.

«Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. – №9. – 320 м.

«Архитектура ва шаҳарсозлик тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 22 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1995. – №12. – 265-м.

«Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1995. – №12. – 249-м.

«Маъмурий қамоққа олинган шахсларни сақлаш харажатларини ундириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 6 майдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1995. – №6. – 166-м.

«Сиёсий партиялар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №2. – 36-м.

«Адвокатура тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 27 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №2. – 48-м.

«Таълим тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №9. – 225-м.

Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №11–12. – 295-м.

«Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1998. – №5–6. – 97-м.

«Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1998. – №5 – 6. – 99-м.

«Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1999. – №5. – 115-м.

«Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1999. – №5. – 110-м.

«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 14 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №1 – 2. – 8-м.

«Мудофаа тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 11 майдаги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №5. – 80-м.

«Прокуратура тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №1. – 29-м.

«Судлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 14 декабрдаги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №1–2. – 10-м.

«Хўжалик ширкатлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 6 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – №1. – 8-м.

«Кредит уюшмалари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 4 апрелдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – №4–5. – 65-м.

«Ўзбекистон Республикасининг Қонунчилик палатаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №1–2. – 6-м.

«Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – №12. – 218-м.

«Ўзбекистон Республикасининг Сенати тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №1–2. – 5-м.

«Ахборотлаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №1–2. – 10-м.

«Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 августдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №9–10. – 138-м.

«Валютани тартибга солиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №1–2. – 6-м.

«Фермер хўжалиги тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 27 августдаги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №9. – 162-м.

«Хусусий корхона тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 11 декабрдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №1–2. – 8-м.

Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида қонуни (Янги таҳрири) (2008 йил 11 июль № ЎРҚ–162 (Ахб. 2008 й., № 7, 353-м);

QONUN OSTI HUJJATLARI

«Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 25 октябрдаги қарори // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 1991. – №10. – 36-м.

«Давлат Божхона қўмитаси тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 30 июндаги қарори // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 1997. – №7. – 26-м.

«Ўзбекистон Республикасида паспорт тизимини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 26 февралдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси – 1999. – №3. – 65-м.

«Маҳалла посбонлари жамоат тузилмалари тўғрисида»ги ва «Яраштириш комиссиялари тўғрисида»ги низомни тасдиқлаш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 19 апрелдаги қарори // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 1999. – №4. – 45-м.

«Ўзбекистон Сув хўжалиги қурилиши давлат концерни («Ўзсув-қурилиш») тугатиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 23 июндаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ахборотномаси. – 2000. – №5-6 – 183-м.

«Олий таълимнинг таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2001. – №15–16. – 104-м.

«Республика пахта тозалаш саноатини монополиядан чиқариш ва бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 11 июндаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №6. – 120-м.

«Ўзбекистон Республикаси қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 17 январдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2001. – №1–2. – 4-м.

«Ўзбекистон темир йўллари давлат акциядорлик компаниясини бошқаришни ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 3 мартдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2001. – №5. – 23-м.

«Автомобиль транспорти соҳасида монополиядан чиқариш ва бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 4 июндаги қарори //

Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2001. – №11. – 63-м.

«Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 13 февралдаги фармони // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2001. – №3–4. – 9-м.

«Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 27 мартдаги фармони.

«Йўл ҳаракати хавфсизлиги таъминлаш чоралари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 15 майдаги қарори // Ички ишлар идораларининг фаолиятини такомиллаштиришга доир Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш бўйича методик қўлланма. – Т., 2004.

«Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 27 мартдаги фармони // Ички ишлар идораларининг фаолиятини такомиллаштиришга доир Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш бўйича методик қўлланма. – Т., 2004.

«Жинойтчиликка қарши курашда профилактика хизмати ролини кучайтириш чоралари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 6 июндаги қарори // Ички ишлар идораларининг фаолиятини такомиллаштиришга доир Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш бўйича методик қўлланма. – Т., 2004.

«Ўзбекистон Республикасида ёнғин хавфсизлиги тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 25 июндаги қарори // Ички ишлар идораларининг фаолиятини такомиллаштиришга доир Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш бўйича методик қўлланма. – Т., 2004.

«Ўзбекистон Республикасида патруль-пост хизмати ва жамоат тартибини сақлаш фаолиятини такомиллаштириш чоралари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 31 майдаги қарори // Ички ишлар идораларининг фаолиятини такомиллаштиришга доир Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш бўйича методик қўлланма. – Т., 2004.

«Республика енгил саноатини бошқаришни такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 1 июлдаги фармони // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2002. – №13. – 99-м.

«Илмий тадқиқот фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 20 февралдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – №3. – 48-м.

«Умумий фойдаланиладиган автомобиль йўлларини қуриш ва улардан фойдаланишни бошқариш тизимини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 19 августдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №8. – 112-м.

«Ўзбекистон Республикаси давлат бошқаруви органлари тизимини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 9 декабрдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №11–12. – 178-м.

«Хўжалик бошқаруви органлари тизимини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 22 декабрдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – №11–12. – 185-м.

«Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 27 августдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2003. – №15–16. – 138-м.

«Маданият ва спорт ишлари вазирлигини ташкил этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 27 сентябрдаги фармони // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – №38–39. – 422-м.

«Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри қўмитасини ташкил қилиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 15 октябрдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №10–11. – 202-м.

«Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 5 августдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – №31. – 356-м.

«Ўзбекистон темир йўллари давлат акциядорлик компаниясини бошқаришни ташкил этишни янада такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 3 августдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – №31. – 353-м.

«Ўздонмахсулот» давлат акциядорлик корпорациясини «Ўздонмахсулот» акциядорлик компаниясига айлантириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 6 августдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – №31. – 358-м.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучларининг умумхарбий низомлари. – Т., 2004. – 496 б.

«Ички ишлар идоралари фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 19 июлдаги фармони.

«Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Регламенти тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 14 февралдаги қарори // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2005. – №7. – 55-м.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида паспорт тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2009 йил 23 июндаги фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2009. №26 – 294-м.

«Ўзбекистон республикаси монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 2 мартдаги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №9. – 67-м.

«Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №9. – 66-м.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

Ma'muriy huquq: Darslik / B. E. Kasimov, X. T. Odilqoriyev tahriri ostida. – Т., 2010.

Хван А. Б. Административное право Республики Узбекистан: Курс лекций. – Т., 2010.

Самигжонов Ф. Р., Хакимов Ф. Т. Маъмурий ҳуқуқ. Махсус қисм: Ўқув қўлланма. – Т., 2009.

Хожиев Э. Давлат бошқаруви. – Т., 2006.

Хакимов Ф. Т. Маъмурий ҳуқуқ. Махсус қисм: Маърузалар тўплами. – Т., 2005.

Алимов Ҳ. Р., Махмудов А. А., Исмоилов Н. Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т., 2003.

Алимов Ҳ. Р., Махмудов А. А., Исмоилов Н. Т. Маъмурий ҳуқуқ фанидан чизмалар альбоми. – Т., 2003.

Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х., Давлат ҳуқуқ асослари: Дарслик. – Т., 2002.

Курс административного право и процесса. – М., 1998.

Хусанов О. Мустақиллик ва маҳаллий ҳокимият: Ўқув қўлланма. – Т., 1996.

Хусанов О. Ўзбекистон Республикаси давлат органлари: Ўқув қўлланма. – Т., 1996.

Бахрах Д. Н. Административное право. – М., 2000.

Овсянко Д. М. Административное право. – М., 2000.

Административное право: Учебник. – Т., 2004.

Рустамов С. С. Давлат бошқаруви соҳасидаги ислохотларнинг айрим масалалари // Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ тизими либераллаштиришнинг асосий йўналишлари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2007.

WEB. RESURSLAR

<http://akadmvd.fan.uz/files/bibl>

<http://www.lex.uz/>

<http://gov.uz/uz/>

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

MAXSUS QISM

7-BO‘LIM. IQTISODIYOT SOHASINI MA‘MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

23-mavzu. IQTISODIYOTNI BOSHQARISH

1. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot sohasini boshqarishdagi vakolatlari va iqtisodiy sohaga oid obyektlar.....	6
2. Iqtisodiyot vazirligining jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdagi asosiy vazifalari.....	12
3. Moliya va kredit boshqaruvi.....	13

24-mavzu. SANOAT, ENERGETIKA, QURILISH VA XO‘JALIK XIZMAT KO‘RSATISHNI BOSHQARISH

1. Sanoat sohasini boshqarish va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	26
2. Neft va gaz sanoati boshqarish tizimi.....	28
3. Sanoat sohasidagi davlat inspeksiya organlari faoliyati.....	30
4. Energetika sohasidagi iqtisodiy islohotlar.....	33
5. Kapital qurilishi mamlakat ishlab chiqarishining moddiy asosi sifatida.....	35
6. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining huquqiy maqomi.....	39

25-mavzu. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISH

1. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida.....	44
2. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining huquqiy maqomi, tizimi va asosiy vazifalari.....	52
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini boshqarish.....	63

8-BO‘LIM. IJTIMOIIY-MADANIY SOHANI MA‘MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

26-mavzu. TA‘LIM, FAN VA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHALARINI BOSHQARISH

1. Ta‘lim sohasini boshqarish tizimi, huquqiy maqomi va asosiy vazifalari.....	65
2. Sog‘liqni saqlash sohasini boshqarish tizimi va asosiy vazifalari.....	83

3. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini boshqarishda ichki ishlar idoralari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash.....85

**27-mavzu. MEHNAT VA AHOLINI IJTIMOII MUHOFAZA QILISH,
MADANIYAT VA SPORT SOHALARINI BOSHQARISH**

1. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining huquqiy maqomi va vazifalari.....93
2. Madaniyat va sport ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tizimi va asosiy vazifalari.....101

**9-BO'LIM. MA'MURIY-SIYOSII SOHANI
MA'MURIY-HUQUQII TARTIBGA SOLISH**

28-mavzu. ICHKI ISHLAR SOHASINI BOSHQARISH

1. Ichki ishlar idoralarining huquqiy holati, tizimi va asosiy vazifalari.....115
2. Ichki ishlar idoralari faoliyatida o'tkazilayotgan izchil islohotlar.....119
3. Ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy holati.....121

29-mavzu. MUDOFAA VA ADLIYA SOHALARINI BOSHQARISH

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi boshqaruv organlari va ularning huquqiy maqomi.....131
2. Adliya vazirligining huquqiy holati, tizimi va asosiy vazifalari.....154
3. Ma'muriy-siyosiy faoliyat sohasi boshqaruvida o'tkazilayotgan izchil Islohotlar.....174

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR177

MA'MURIY HUQUQ

MAXSUS QISM

Ma'ruzalar kursi

*Muharrir B. Q. Ergashev
Texnik muharrir D. X. Hamidullayev*

Bosishga ...06.2012 y. ruxsat etildi. Nashriyot hisob tabog'i 10,0.
Adadi nusxa. Buyurtma . Bahosi shartnoma asosida

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi,68.